

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH PROKURATURA
A K A D E M Y A S I**

JO`RAYEV OG`ABEK ANVAR O`G`LINIG

**JINOIY JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISHNING DOLZARB
MASALALARI**

5A240124 - Tergov faoliyati

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: Bosh prokuratura
Akademyasi kafedra boshlig`i
M. Radjapova

Toshkent – 2021

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. JINOIY JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISHNING UMUMIY TAVSIFI	
§ 1.1. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning tushunchasi, mazmuni va mohiyati.....	11
§ 1.2. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning rivojlanish tarixi.....	24
II BOB. JINOIY JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISHNING TASNIFI VA JINOYAT KODEKSI MAXSUS QISMI AYRIM MODDALARIDA NAZARDA TUTILGAN JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISHNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	
§ 2.1. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish turlari va ularning o`ziga xos xususiyatlari.....	37
§ 2.2. Jinoyat kodeksi Maxsus qismi ayrim moddalarida nazarda tutilgan javobgarlikdan ozod qilishning o`ziga xos xususiyatlari.....	60
III BOB. JINOIY JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISHGA OID XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI VA MILLIY QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH	
§ 3.1. Xorijiy mamlakatlar qonunchiligiga muvofiq jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning xususiyatlari.....	77
§ 3.2. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishga oid milliy qonunchilik normalarini rivojlantirish.....	90
XULOSA.....	100
FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	110

KIRISH

Magistrlik dissertatsiya mavzusining dolzarbligi. O`zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo`lga kiritgach, qisqa vaqt ichida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida islohotlar olib borish va shu orqali demokratik-huquqiy davlat hamda fuqarolik jamiyati barpo etishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ydi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar tizimida sud-huquq islohotlari alohida o`rin egallaydi. Sud-huquq islohotlari natijasida inson huquq va erkinliklari kafolatlari yangi bosqichga ko`tarildi, bu boradagi xalqaro miqyosdagi standartlar va normalar tan olindi hamda milliy qonunchiligimizga joriy etildi. Jumladan, jinoyat qonunchiligini liberallashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasida jinoyat qonunchiligimizga yangi institutlar va jazo turlari joriy etildi, jinoyatlar tasnifi o`zgartirildi. Bir so`z bilan aytganda, jinoyat qonunining qonuniylik, insonparvarlik va odillik prinsiplarida aks etgan asosiy g`oyalar o`zining amaliy ifodasini topib bormoqda.

Yuqorida ta`kidlaganimizdek, O`zbekistonda mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab jinoyatga oid siyosat izchil liberallashtirilmoqda, undan ko`zlangan asosiy maqsad – adolat va insonparvarlilik prinsiplarini amalda ro`yobga chiqarish, jazolashning repressiv vazifalarini qisqartirishdan iboratdir.

Jinoyat qonunlarini liberallashtirish jarayonida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutini takomillashtirish quyidagi sabablarga ko`ra dolzarb hisoblanadi:

birinchidan, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga asosan qabul qilingan “2017 — 2021-yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasi”da beshta ustuvor yo`nalishlaridan biri sifatida **“Qonun ustuvorligini ta`minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo`nalishlari”** ham belgilangan bo`lib, ushbu yo`nalishda jinoyat qonunchiligini takomillashtirish masalasi ham aytib o`tilgan.

Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-mayda qabul qilingan “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish

chora-tadbirlari” to`g`risida”gi PQ 3723-sonli Qaroriga muvofiq, **O`zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasi tasdiqlandi.** Ushbu konsepsiyada rag`batlantiruvchi normalarni, jumladan, jazoni yengillashtirish yoki shaxsni jinoiy javobgarlik yoxud jazodan ozod qilish shartlarini o`rnatuvchi normalarni kengaytirish kerakligi ko`rsatib o`tilgan.

Shu bilan birga, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-avgustda qabul qilingan PF 6041-sonli Farmonida og`ir yoki o`ta og`ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod etilmasligiga oid qoida voyaga yetmaganlar, birinchi va ikkinchi guruh nogironlari, ayollar, oltmish yoshdan oshgan erkaklar va ehtiyotsizlik orqasida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo`llanilmasligi kerakligi belgilab o`tilgan. Bundan ko`rinib turibdiki, jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish va ayrim toifadagi shaxslarning javobgaligini liberallashtirish, alohida jinoiy qilmishlarni dekriminallashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonparvarlashtirish bugungi kunda huquq tizimimizdagi eng muhim masalalardan biri hisoblanadi;

ikkinchidan, mamlakatimiz jahon hamjamiyatiga chuqur integratsiyalashuvi, ilg`or mamlakatlar qonunchilik tajribasidan foydalanib, o`z milliy qadriyatlarimizga mos ravishda qonunchilikni rivojlantirib, huquq-tartibotni mustahkamlanib borishi ilmiy metodologik asoslarini jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutiga nisbatan qo`llash bugungi davr talabidir;

uchinchidan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa xalqaro huquqiy hujjatlarga qat'iy amal qilinayotgan, ularga ustivorlik berilgan respublikamizda nafaqat fuqarolarning burchlari, shuningdek davlatning shaxs oldidagi majburiyatlarini ta'minlashga ham alohida e'tibor berilayotgan vaziyatda tadqiqot mavzusini yuqoridagi asoslarga ko`ra o`rganish muhim amaliy natijalar berishi mumkin;

to`rtinchidan, o`rganilgan jinoyat ishlarining tahlili, jinoyat qonunlarini liberallashtirish bo`yicha olib borilayotgan islohotlarga qaramay, aholining ayrim

qatlamlari huquqiy ongida ijobiy siljishlar kuzatilmayapti, hatto huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari ham jinoiy javobgarlikdan ozod qilishda ayrim kamchiliklarga yo`l qo`yayotganligini ko`rsatmoqda.

Rivojlangan xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutlarini O`zbekiston jinoyat qonunchiligidagi institutlar bilan taqqoslab o`rganish va samaradorligi yuqori bo`lgan tajribalarni qonunchiligimizga kiritish ham ahamiyatga molik muamolardandir.

Yarashuv hamda aybdorni amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilib, jinoyat ishi qo`zg`atishni rad qilish yoki jinoyat ishini tugatishning protsessual mexanizmi yaratilganligi munosabati bilan jinoyat va jinoyat-protsessual qonun normalarning funksional vazifalarini yagona maqsad sari yo`naltirish lozim va bu to`g`rida huquqiy yechimlar ishlab chiqish talab etiladi.

Jinoyat kodeksining jinoiy javobgarlikdan ozod qilishga oid ayrim normalarini takomillashtirish, xorijiy davlatlarning jinoyat qonunchiligini o`rgangan holda javobgarlikdan ozod qilishning yangi turini jinoyat qonunchiligimizga kiritish ham mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

Yuqoriagi ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy muhim muammolarni tadqiq etish va ularning yechimini topish jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini oshiradi, liberallashtirish jarayonini chuqurlashtiradi, inson huquqlari va manfaatlarini himoya qilishni mustahkamlaydi hamda jinoyat huquqi fanining yanada takomillashishiga zamin yaratadi.

Tadqiqot obyekti va predmeti.

Tadqiqotning obyekti bo`lib jinoiy javobgarlikdan ozod qilish turlarini nazariy jihatdan o`rganib tahlil qilish, shuningdek, ularni tartibga soluvchi Jinoyat kodeksi normalari va ularni qo`lash amaliyotini tahlil qilish hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti Jinoyat kodeksining umumiy va maxsus qismlaridagi jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni nazarda tutuvchi normalarni xalqaro huquq hamda xorijiy davlatlarning jinoyat qonunlari bilan qiyosiy tahlil qilish, shu sohaga oid

olimlarning fikrlarini o`rganish hamda ular asosida ilmiy-amaliy qoidalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.

Tadqiqotning maqsadi jinoyat qonunchiligini liberallashtirish jarayonida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish turlarini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini takomillashtirish, shuningdek, bu normalarning amaliyotda soddalashtirilgan tartibda qo`llash yuzasidan asoslangan taklif va tavsiyalar berishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

- jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning rivojlanish tarixini o`rganish;
- jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutining mazmun, mohiyatini olimlarning fikrlari asosida tahlil qilish;
- jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslarini tahlil qilish;
- jinoiy javobgarlikdan ozod qilish turlarini ilmiy-amaliy jihatdan o`rganish;
- jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadigan subyektlaning huquqiy holatini aniqlash;
- javobgarlikka tortish muddati o`tib ketganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning o`ziga xos xususiyatlarini aniqlash va tahlil qilish;
- jabrlanuvchi aybdor bilan yarashganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishning o`ziga xos jihatlarini yoritib berish;
- kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish asoslarini tahlil qilish;
- amnistiya akti tushunchasi va amnistiya akti asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning o`ziga xos jihatlarini tahlil qilish;
- aybdor o`z qilmishiga amalda pushaymon bo`lganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning asoslarini tahlil qilish;
- qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo`qotganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning o`ziga xos jihatlarini o`rganish;

- ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligidagi jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslari va turlarini o`rganish;
- Jinoyat kodeksi maxsus qismidagi javobgarlikdan ozod qilishning o`ziga xos xususiyatlarini jinoyat qonunchilimizdagi normalar asosida tahlil qilish;
- Jinoyat kodeksidagi jinoiy javobgarlikdan ozod qilish turlarini takomillashtirish va optimallashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning turlari, ularning mazmun mohiyati, uni qo`llash asoslari va shartlari, amaliyotda qo`llashning o`ziga xos xususiyatlari ochib berilib, Jinoyat kodeksiga jinoiy javobgarlikdan ozod qilish haqidagi tushunchani kiritish to`g`risida taklifi berildi;

- jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning har bir turi, xususan, javobgarlikka tortish muddati o`tib ketganligi, yarashilganligi, kasalligi, aybiga chin ko`ngildan pushaymon bo`lganligi munosabati bilan jinoyat sodir qilgan shaxsni javobgarlikdan ozod qilishga oid olimlarning fikrlari, xorijiy davlatlar tajribasi, shuningdek, uni amaliyotda qo`llash yuzasidan dastlabki tergov hamda sudlardagi jinoyat ishlarini tahlil qilib, Jinoyat kodeksining 64, 66¹, 67-moddalarini takomillashtirishga qaratilgan takliflar, shuningdek, javobgarlikdan ozod qilishning yangi turini, ya`ni “Shaxsni jamoat tashkilotiga kafillikka berish sababli javobgarlikdan ozod qilish”ni Jinoyat kodeksiga 65¹-modda sifatida kiritish haqidagi takliflar ko`tarildi;

- jabrlanuvchining buzilgan huquqlarini tiklash va aybdor bilan yarashilganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishda qonuniylik, insonparvarlik va odillik prinsiplarini qo`llash asoslari tahlil qilindi;

- jinoyat kodeksi Maxsus qismi tegishli moddalaridagi jinoiy javobgarlikdan ozod qilishga oid normalar o`rganildi va xorijiy davlatlar tajribasi asosida Jinoyat kodeksi Maxsus qismidagi rag`batlantiruvchi normalarni kengaytirishga doir takliflar va tavsiyalar ishlab chiqildi;

- shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilishga oid jinoyat va jinoyat-protsessual qonunlaridagi normalarning o`zaro bog`liqligi va tafovuti ochib berildi, shuningdek, dastlabki tergov va sud amaliyoti tahlili asosida mazkur masala yuzasidan nazariy va amaliy muammolarni bartaraf etish yuzasidan takliflar bayon qilindi;

- jinoyat huquqi nazaryasini boyitishga, qonunchilik va sud-tergov amaliyotini takomillashtirishga yo`naltirilgan takliflar ishlab chiqildi.

Tadqiqot mavzusi bo`yicha adabiyotlar sharh (tahlil)i.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutining ayrim muammolari yuzasiddan bir qancha olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Xususan, mamlakatimizning M.X. Rustamboyev¹, M. Usmonaliyev², B.X. Po`latov³, G`.A. Abdumajidov⁴, Q.R. Abdurasulova⁵, B.J. Axrarov⁶, R. Kabulov, Z.X. Gulyamov⁷, O.G` Zokirova⁸, B.Xidoyatov, O.Maxkamov, R.Zufarov, M.Kurbanov, X.Abzalova, U.Zakirova, D.Kamalova, X.Karimov, X.Karimov, B.Xidoyatov, M.O`razaliyev, N.Salayev, G.Tulaganova, R.Altiyev, V.Sunnatov⁹ kabi olimlari ilmiy ishlarida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning ayrim muammolari ko`rib chiqilgan.

Shuningdek, respublikamizda jinoyat huquqiga oid tadqiqotlarning ba`zi birlarida Jinoyat kodeksining maxsus va umumiy qismidagi institutlar bilan bog`liq ravishda jinoiy javobgarlikdan ozod etish masalalari bevosita yoki bilvosita muhokama

¹ Rustamboyev M.X. O`zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga sharhlar (Umiiy qism). – Toshkent: “Adolat”, 2016. 608 bet.

² M. Usmonaliyev. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o`quv yurtlari uchun darslik. —T., «Yangi asr avlodi», 2010, 536-bet.

³ Po`latov B.X. Prokurorning sudda davlat ayblovini quvvatlash faoliyati. O`quv qo`llanma. Toshkent, “Qonun himoyasida” jurnali 2005 17-29-betlar.

⁴ O`zbekiston SSR Jinoyat kodeksiga sharhlar: Abdumajidov G`.A., Axmedov B. A va boshqalar. – Toshkent. O`zbekiston 1988. 580 b.

⁵ Abdurasulova Q.R. Kriminalogiya. – Toshkent. TDYI nashriyoti, 2008. -305 bet.

⁶ Axrarov B.J., Saydullayev SH. Ishirokchilikdan farlash // Qonun himoyasida. – Toshkent, 2002. - №6 (78). – B 18-19.

⁷ Kabulov R., Gulyamov Z.X. Уголовная ответственности за преступления против правосудия. Учеб пособие. Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2007. - 49 с.

⁸ Zokirova O.G`. Rashk tufayli jinoyat sodir etgan shaxslarning o`ziga xos xususiyatlari // Huquq-Pravo-Law. Toshkent, 2002. - №2 (18). – B. 32-35.

⁹ Jinoyat huquqi. (Umumiy qism) Darslik. Mas`ul muharrir: yu.f.f.d (PhD) X.Ochilov – T.: Adolat nashriyoti, 2020. 264 b.

qilingan. Jumladan, SH.G. Niyozova¹⁰ jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning alohida turini, shuningdek, Sh. Berdiyev¹¹ ushbu institutni tadqiqot obyekti sifatida o`rgangan.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutini takomillashtirishga oid ilmiy izlanishlar MDHga a'zo davlatlar olimlari S.G. Kelina¹², N.I. Vetrov¹³, N.F. Kuznetsova¹⁴, N.V. Grigorev¹⁵, O.I. Kuzmina¹⁶ va boshqalar tomonidan ham olib borilgan.

Tadqiqotda qo`llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi:

Dissertatsiya oldiga qo`yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda tizimli, tarixiy hamda qiyosiy uslublarni asosiy metodlar bo`ldi. Zarur hollarda esa, rasmiy yuridik tahlil metodlaridan, shuningdek, huquq normalarining sharhlanishidan ham foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati shundaki, unda jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutining huquqiy tabiati yoritilganligi, uni takomillashtirish to`g`risidagi xulosalar chiqarilganligi, rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning mazmun-mohiyati va uni amaliyotda qo`llashning o`ziga xos xususiyatlari ilmiy asoslab berilganligi bilan belgilanadi. Ushbu tadqiqot natijasida to`plangan ma'lumotlar asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutining nazariy, amaliy va huquqiy muammolarini topish va ularga huquqiy

¹⁰ Niyozova Sh.G. Muddatlarning o`tganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilishning muammolari. – Yuridik fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: TDYI, 2010. -26 b.

¹¹ Berdiyev SH. Jinoyat qonunlarining liberallashtirilishi jarayonida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni takomillashtirish muammolari. – Yuridik fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: TDYI, 2011. -52 b.

¹² Келина С.Г. Теоретические вопросы освобождения от уголовной ответственности. Изд. "Наука" – М.: 1974. С. 41-42

¹³ Ветров Н.И. Уголовное право. Общая часть. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, Закон и право, 1999 г. С. 331.

¹⁴ Курс уголовного права. Общая часть. Том 2. Учение о наказании. Учебник для вузов. Под пред. Н.Ф. Кузнецовой и И.М. Тяжковой. – М.: ИКД Зерцало- М, 2002. С.464.

¹⁵ Григорьев Н.В., Сабитов Р.А. Освобождение от уголовной ответственности по нормам особенной части УК РФ. Хабаровск 1993 г. С.12.

¹⁶ Кузьмина О.Н. Институт освобождения от уголовной ответственности: генезис формирования, современное состояние, перспективы оптимизации. – Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. 2020. С. 205.

yechim berish bo'yicha aniq takliflar kiritishga harakat qilingan. Tadqiqot ishida bayon etilgan qoidalar, chiqarilgan xulosalar, ishlab chiqilgan takliflar va tavsiyalardan ushbu muammoga doir ilmiy tadqiqotlar o'tkazishda, amaldagi Jinoyat, Jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirishda, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning amaliy faoliyatida, o'rganilgan muammoga oid o'quv adabiyotlarini tayyorlashda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijasini aks ettiruvchi xulosalar jinoiy javobgarlikdan ozod qilish masalasiga tegishli bo'lgan, olimlar tomonidan e'tirof etilgan ilmiy izlanishlarning, tadqiqot mavzusiga oid statistik ma'lumotlar tahliliga asoslangan. Dissertatsiya doirasida qonun normalarini takomillashtirish borasida bildirilgan taklif va xulosalar tegishli xalqaro huquq normalariga va standartlariga hamda ilg'or xorijiy tajriba, shuningdek nazariyachi olimlarning ushbu mavzuga oid tadqiqotlaridagi umumilmiy-metodologik asoslarga mos keladi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 5 ta maqola tayyorlanib nashrga taqdim etilgan.

Tadqiqot ishining tuzilishi va hajmi: Tadqiqot ishi kirish, 6 ta paragrafni o'z ichiga olgan 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 116 betni tashkil qiladi. Tadqiqot ishini yozishda 100 ga yaqin turli rasmiy va ilmiy manbalardan foydalanilgan.

I BOB. JINOIY JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISHNING UMUMIY TAVSIFI

§ 1.1. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning tushunchasi, mazmuni va mohiyati

Jinoyat kodeksining vazifalari shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo`riqlash, shuningdek jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Ana shu vazifalarni amalga oshirish uchun Kodeks javobgarlikning asoslari va prinsiplarini, qanday ijtimoiy xavfli qilmishlar jinoyat ekanligini aniqlaydi, ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan shaxslarga nisbatan qo`llanilishi mumkin bo`lgan jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralarini belgilaydi¹⁷.

Jinoyat kodeksining 10-moddasiga muvofiq qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi shart¹⁸.

Shu bilan birga, qonunchilik sodir etilgan jinoyat va uni sodir etgan shaxsni qonunchilikda belgilangan bir qator holatlar aniqlangan taqdirda jinoiy javobgarlikdan ozod qilish shartlari va tartibini ham belgilab berganki, bu shubhasiz jinoyat qonunchiligining insonparvarlik prinsiping dalolati bo`lib hisoblanadi.

Jinoyat kodeksining 7-moddasiga ko`ra jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarur hamda yetarli bo`ladigan jazo tayinlanishi yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo`llanilishi kerak.

¹⁷ Lex.uz/docs O`zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.

¹⁸ O`sha yerda.

Shu o`rinda, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tushunchasi va mohiyatini qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlardan va shaxsni reabilitatsiya qilish tushunchalaridan farqlash lozim bo`ladi.

Shaxsni oqlash shuni anglatadiki, unda shaxsning harakatlarida jinoyat tarkibi mavjud bo`lmaydi yoki shaxs jinoyatga umuman aloqasi bo`lmaydi. Shu sababli ushbu holat shaxsga nisbatan oqlov hukmining chiqishiga asos bo`ladi.

Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar shundan iboratki, shaxsning xatti-harakatlarida tashqi tarafdin jinoyat tarkibi mavjud bo`lsada, qilmishning ijtimoiy xavfli, g`ayriqonuniy yoki aybli emasligi sababli uning harakatlari jinoyat hisoblanmaydi.

Tahlil etilayotgan javobgarlikdan ozod qilishda esa Jinoyat kodeksining maxsus qismida nazarda tutilgan jinoyat sodir etilgan, tergov hujjatlarini sudda tekshirish natijasida jinoyat sodir etilganligi fakti va aynan shu shaxs tomonidan sodir etilganligi to`la isbotlangan bo`ladi. Lekin tergov organlari, prokuror va sud tomonidan qonunda belgilangan asoslar mavjudligi aniqlangan taqdirda jinoyat sodir etgan shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish masalasi ko`rib hal etilishi kerak bo`ladi.

Jinoyat hisoblanmagan boshqa huquq buzishlarga nisbatan jinoyat qonunida nazarda tutilgan normalarni qo`llab javobgarlikdan ozod qilish ham mumkin emas. Chunki bu yerda faqat jinoiy javobgarlikdan ozod qilish to`g`risida gap boradi.

Shuningdek, jinoyat huquqidagi javobgarlikdan ozod etishning jinoyat uchun javobgarlikka tortishdan yoki jazodan ozod etishdan farq qiluvchi eng muhim xususiyati jinoyat protsessual huquqining ishni sudga qadar yuritish (surishtiruv yoki dastlabki tergov) bosqichi bilan bevosita bog`liq ekanligi hisoblanadi. Chunki jinoiy javobgarlikdan ozod etishning javobgarlikka tortish muddatining o`tib ketganligi (64-m.), qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo`qotgani (65-m.), aybdor o`z qilmishiga amalda pushaymon bo`lganligi (66-m.) sababli javobgarlikdan ozod etish masalasini, ya`ni mazkur asoslar bilan jinoyat ishini tugatish tergov organi tomonidan ham amalga oshiriladi. Yarashuv (66¹-m.), kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish (67-m.),

amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod etish (68-m.), surishtiruv yoki tergov organining prokuror orqali yuborilgan iltimosnomasi asosida sud tomonidan hal etiladi. Shu sababli, bizning fikrimizcha, jinoiy javobgarlikdan ozod etishning Jinoyat kodeksida aks etgan turlari yuzasidan tadqiqotlarni amalga oshirishda Jinoyat-protsessual kodeksidagi normalar yoki jinoyat-protsessual huquqining ayrim institutlari mohiyatini qiyosiy tahlil etib, kompleks tarzda chuqur o`rganishga, eng asosiysi, ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan aniq fikr-mulohazalar, xulosa va takliflarni bildirishga to`g`ri keladi. Jinoyat huquqi va jinoyat-protsessual huquqi biri ikkinchisi uchun asos, manba bo`lib doimo o`zaro uyg`un holatda huquq tizimida joylashgan va alohida-alohida fan sifatida rivojlanib kelmoqda.

Bugungi kunda ko`pgina olimlar, sodir etilgan huquqbuzarlik uchun jazo uning oldini olishdagi samarali vosita emasligi haqida fikr bildirib, kishilarni jinoyat sodir qilishdan tiyib turish uchun asosiy yoki yetakchi o`rin tutishiga shubha bilan qaramoqdalar. Kelajakda ozodlikdan mahrum qilish bilan bog`liq bo`lmagan jazo choralari amaliyotda ko`proq qo`llash vazifalari nazarda tutilganligi ham ta`kidlab o`tilmoqda. Jumladan, O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov bu masalaga to`xtalib: “Ishonchim komil, xo`jalik ishlari bilan bog`liq jinoiy ishlar bo`yicha odamlarni qamash shart emas — bu davlatga juda qimmatga tushadi, qolaversa, bunday jazo turi mahkumlarni tarbiyalash va qayta tarbiyalash vazifasini hal qilmaydi”¹⁹, deb qayd etgandi.

O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 10-moddasida jinoiy javobgarlikning muqarrarligi prinsipi xususida so`z yuritilgan bo`lib, unga ko`ra, shaxs qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy xavfli qilmishlari uchungina javobgar bo`lishi nazarda tutilgan. Jinoyat kodeksining 64-68, 87, 155, 160-modda 2-qismi, 178, 180, 181, 181¹, 184, 185², 188, 189, 190, 211, 212, 223, 244², 244⁴, 248-moddalarida esa jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsning javobgarlik

¹⁹ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent “O`zbekiston”, 2010, 20-b.

masalasiga nisbatan butunlay boshqacha yo`l tutilib, unda qonunda belgilab qo`yilgan asos va shartlar bajarilgan taqdirda jinoiy javobgarlikdan ozod qilish masalasi nazarda tutilgan.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tushunchasi turli xil yondashuv va tamoyillar asosida talqin qilinganligi, qonunchiligimizda uning ta`rifi nazarda keltirib o`tilmaganligi, qolaversa, ushbu mavzuda keng qamrovli tadqiqotlar o`tkazilmaganligi sababli bu tushunchaga barcha olimlar tomonidan umume`tirof etishga joiz bir xil ta`rif va tavsif mavjud emas.

Jinoiy javobgarlikdan ozod etish masalalari yuzasidan chuqur tadqiqot olib borgan S.G.Kelinaning fikricha, jinoyat sodir etgan shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish jinoyat huquqiy munosabatning tugatilganligini anglatadi. Davlat shaxsni javobgarlikdan ozod etish to`g`risida qaror qabul qilgan odil sudlov organlari timsolida sodir etilgan qilmishi uchun aybdorni jazolash borasidagi o`z huquq va majburiyatlaridan voz kechadi, jinoyat sodir etgan shaxs esa qonunda nazarda tutilgan ozodlikdan mahrum bo`lish majburiyatidan hamda sodir etilgan jinoyat oqibati hisoblangan majburlov choralaridan xalos bo`ladi²⁰.

Rossiyalik bu olimaning fikriga binoan, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish deganda, jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan qonunda ko`rsatilgan jinoyat-huquqiy sanksiyani qo`llamay, aksincha, uni bunday javobgarlikdan ozod qilish tushuniladi. Bu holat barcha jinoiy javobgarlikdan ozod qilish turlari uchun, jumladan, yarashganligi munosabati bilan, shuningdek, voyaga yetmaganlarga nisbatan majburlov choralarini qo`llagan holda jinoiy javobgarlikdan ozod qilishga xam taalluqlidir. Masalan, agar shaxs ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan jinoyati uchun javobgarlikdan ozod qilinsa, ushbu holatda jinoyat sodir qilgan shaxs ham javobgarlikdan ham jabrlanuvchiga yetkazgan moddiy va ma`naviy zararni qoplashdan ozod etiladi. Bizning fikrimizcha bu jinoyat huquqining odillik, adolat kabi prinsiplariga zid hisoblanadi.

²⁰Келина С.Г. Теоретические вопросы освобождения от уголовной ответственности. Изд. "Наука" – М.: 1974. С. 41-42

Bu masalada o`zbek huquqshunos olimlari ham turli xil fikrlar bildirganlar. Jumladan, M.X. Rustamboyevning fikriga ko`ra, “jinoiy javobgarlikdan ozod qilish – jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiruvchi organlarning davlat nomidan Jinoyat kodeksida ko`rsatilgan bir qator holatlar sababli keyinchalik o`zining oldingi ijtimoiy xavfsizligini yo`qotgan jinoyatni sodir etgan shaxsni ayblashdan bosh tortilishi”²¹.

Shuningdek, yana bir o`zbek huquqshunos olimi M. Usmonaliyevning fikricha “jinoiy javobgarlikdan ozod qilish shaxsni aybsiz deb topish bo`lmasdan, balki javobgarlikdan ozod qilishdir. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilingan shaxs fuqaroviy-huquqiy majburiyatlardan ozod qilinmaydi”²² – deb ta`kidlaydi.

N.I.Vetrovning fikriga ko`ra, jinoiy javobgarlikdan ozod etish — bu ayblov hukmida salbiy baholangan shaxsni davlat tomonidan mahkum etishdan voz kechishidir²³.

A.I.Rarogning fikricha esa, jinoiy javobgarlikdan ozod etish deganda, huquqbuzarni jinoiy qilmishni sodir etish natijasida kelib chiqqan barcha huquqiy oqibatlardan ozod etish tushuniladi²⁴.

Ayrim soha mutaxassisleri “jinoiy javobgarlikdan ozod etish” tushunchasini davlatning jazoga mahkum etish va jinoiy javobgarlik qo`llash choralaridan voz kechishi deb tushunadilar²⁵. Boshqa mualliflar aybdorning sodir qilingan jinoyati uchun davlat tomonidan javob berish majburiyatidan ozod qilinishini, uchinchi bir mualliflar esa, jinoiy javobgarlikdan ozod etish deganda, shaxsga u sodir etgan jinoyati uchun huquqiy xususiyatdagi ta`sir choralari qo`llashdan, shuningdek, sodir etilgan jinoyat uchun qo`llanishi lozim bo`lgan barcha huquqiy oqibatlardan ozod etishni tushunadilar. Bundan tashqari ba`zi bir mualliflar jinoiy javobgarlikdan ozod etishni jinoiy qilmishi

²¹ Rustamboyev M.X. O`zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi. 2-tom. Toshkent. TDYI, 2008, b-187.

²² Usmonaliyev. M. Jinoyat huquqi. Ummiy qism. Oliy o`quv yurtlari uchun darslik. – T., “Yangi asr avlodi”, 2010, 535-bet.

²³ Ветров Н.И. Уголовное право. Общая часть. – М.: 1999 г. С. 331.

²⁴ Уголовное право.Россия, том-1. Общая часть. – М.: норма. 1998 г. С. 463-464.

²⁵ Лобанова Л.В. Юридическая природа и процессуальные вопросы освобождения от уголовной ответственности. Ярославль, 1986. – С. 45-46.

uchun salbiy baholangan shaxsning jinoiy javobgarlikning jabru-jafosidan ozod qilish haqidagi odil sudlovning hujjatini tushunadilar²⁶.

Yana bir guruh mutaxassislarning fikriga ko`ra, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish deganda asosan jinoyat sodir qilgan shaxsni davlat tomonidan ozodlikdan mahrum etishdan, ya'ni sud tomonidan ayblov hukmi chiqarishdan ozod qilish tushuniladi²⁷.

Yuqorida bildirilgan ta'riflarda davlatning "aybdorni jazolash borasidagi o'z huquq va majburiyatlaridan voz kechishi", "jinoyat-huquqiy sanksiyani qo'llamaslik", "majburlov choralarini qo'llamaslik", "shaxsni mahkum qilishdan voz kechish", "barcha huquqiy oqibatlardan ozod etish", "davlatning mahkum etish, javobgarlik qo'llash choralaridan voz kechishi", "javob berish majburiyatidan ozod qilishi", "huquqiy xususiyatdagi ta'sir choralarini qo'llashdan", "javobgarlikning jabru-jafosidan ozod qilish" kabi "javobgarlikdan ozod etish" tushunchalari ifodalangan bo`lib, bizning fikrimizcha, bu tushunchalarning har biri diqqatga sazovor va ular bir-biriga qarama-karshi emas, aksincha, ular bir-birini to`ldiradi.

SH.G.Niyozovaning fikriga ko`ra, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish deganda, sud tomonidan jinoyat qonunida nazarda tutilgan shartlarga ko`ra, davlat ayblovini bekor qilish tushuniladi²⁸. Bizning fikrimizcha, ushbu ta'rif shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning huquqiy tabiatiga to`g`ri kelmaydi, chunki jinoiy javobgarlikdan ozod qilish yuzasidan prokuror tomonidan sudga yuborilgan hujjatlar, ya'ni iltimosnoma (yarashuv, amnistiya aktini qo'llash bo'yicha) Jinoyat kodeksi asosida hamda Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan tartibda shaxsni davlatning majburlov choralaridan emas, balki jinoiy javobgarlikdan ozod qilish masalasi qo`yiladi va unda hech qanday davlat ayblovi mavjud emas.

²⁶ Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации. Под общ. Ред. Ю.И. Скуратова, В.М. Лебедева. – М.: Инфра –М – Норма, 1996. С. 155.

²⁷ Курс уголовного права. Общая часть. Том 2. Учение о наказании. Учебник для вузов. Под пред. Н.Ф. Кузнецовой и И.М. Тяжковой. – М: ИКД Зерцало- М, 2002. С.464.

²⁸ Niyozova SH.G. Muddatlarning o'tganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilish mummalari. Y.f.n. nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent-2020-yil, 20-b.

Jinoiy javobgarlikdan ozod etish to`g`risidagi yuqorida bayon etilgan tushunchalarni to`liq asosga ega deb bo`lmaydi. Bizningcha, bu tushunchalarda jinoiy javobgarlikdan ozod etishning amalga oshirish mexanizmi yoritib berilmagan.

Jinoiy javobgarlikdan ozod etish nafaqat jinoyat qonuni normalari bilan emas, balki JPK normalarida ko`rsatilgan shartlarni amalga oshirish bilan ham bevosita bog`liq bo`lib, jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni bu shartlar bajarilgan taqdirdagina qo`llanilishi mumkin. Masalan, yarashuv instituti asosida aybdorni jinoiy javobgarlikdan ozod etish to`grisida jabrlanuvchining arizasi bo`lishi shart (JPK 583-moddasi) yoki JKning 66-moddasi asosida javobgarlikdan ozod qilish uchun ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan yoki uncha og`ir bo`lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs tomonidan o`z aybini bo`yniga olish to`g`risida arz qilgan, chin ko`ngildan pushaymon bo`lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilganligi kabi shartlar bajarilgan bo`lishi lozim va bu shartlar bilan bog`liq holatlarni aniqlash hamda ularga tegishli baho berish faqat ma`lum protsessual harakatlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Shu sababli, N.V. Grigorev va A.R. Sabitovlarning jinoiy javobgarlikdan ozod qilish jinoyat va jinoyat protsessual institutlarining majmuidan iborat bo`lib, bunda jinoyat huquqi normalari jinoiy javobgarlik va jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslarini mustahkamlasa, jinoyat protsessi protsessual tartib va javobgarlikdan ozod qilishning oqibatlarini mustahkamlashi²⁹ to`g`risidagi fikrlarini asosli deb bilamiz.

Yuridik adabiyotlarda jinoiy javobgarlikdan ozod qilish bilan bog`liq masalalar yuzasidan turli yondashuvlar mavjud. Ayrim mualliflar javobgarlikning muqarrarligi prinsipidan voz kechishni yoqlab chiqsalar, boshqa toifa mutaxassislar jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutidan voz kechishni taklif qiladilar. Uchinchi guruh tadqiqotchilar jinoiy ta`qibdan voz kechishni, to`rtinchi guruh olimlar esa, aybsizlik prezumpsiyasi g`oyasidan voz kechishni yoqlab chiqadilar.

²⁹ Григорьев Н.В., Сабитов Р.А. Освобождение от уголовной ответственности по нормам особенной части УК РФ. Хабаровск 1993 г. С.12.

G.K.Botirov javobgarlikning muqarrarligi prinsipining qonunda (JK 10-modda) mustahkamlanishini mantiqsiz deb hisoblaydi. Uning fikricha, jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning yangicha talqin etilishi hozirgi paytda bunday prinsipni alohida ajratishga imkon bermaydi. Boshqacha aytganda, hozirgi paytda jinoyat sodir etgan shaxs qonunda belgilangan talablarga mos keladigan hollarda nafaqat jinoiy, balki har qanday boshqa javobgarlikdan ham ozod kilinishi mumkin. Bu esa davlatning jinoyatga oid siyosati ijtimoiy munosabatlarning ancha “nozik” shakli bo`lmish jinoiy javobgarlikning muqarrarligini inkor etishdan dalolat beradi. Demak, yangi yo`nalishlarga mos bo`lmaganligi sababli javobgarlikning muqarrarligi haqidagi masalani ko`tarishga hojat ham yo`q³⁰, deb xisoblaydi.

Bizningcha, muallifning javobgarlikning muqarrarligi prinsipidan voz kechish haqidagi fikr-mulohazalari yetarlicha huquqiy asosga ega emas. Chunki amaldagi Jinoyat kodeksining Maxsus qismi moddalarida belgilangan talablar bajarilmagan taqdirda, shaxs qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi shart. Sodir qilingan har qanday jinoyat ichki ishlar organi tomonidan maxsus daftar F-1 shaklda ro`yxatga olinsa, F-2 shaklda esa kim tomonidan jinoyat sodir qilinganligi qayd etiladi va hatto shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod etilgan taqdirda ham bu haqida alohida F-8 shaklda ro`yxatga olinganligi holati yuqorida ta`kidlagan fikrimizning asosidir. Shu sababli muallifning jinoiy javobgarlikning muqarrarligi prinsipi yangi yo`nalishlarga mos kelmasligi haqidagi fikriga qo`shilib bo`lmaydi.

Jinoiy javobgarlikning muqarrarligi deganda, JKning Maxsus qismida belgilangan jinoyatlardan qaysi biri sodir etilganligidan qat`iy nazar, agar shaxsning qilmishida jinoyat tarkibi mavjud bo`lsa, javobgarlikka tortilishi mumkinligi tushuniladi.

Javobgarlikning muqarrarligi doimiy bo`lib, u quyidagi hollarda: birinchidan, jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan jinoyat ishi qo`zg`atish rad etilib, jinoiy

³⁰ Botirov G`. K. O`zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunchiligini liberallashtirishning asosi sifatida insonparvarlilik prinsipining amalga oshirilishi. Y.F.N. avtoreferat. – T. 2016-yil, 13-bet.

javobgarlikdan ozod etilganda; ikkinchidan, jinoyat sodir etganlik fakti bo`yicha jinoyat ishi qo`zgatilib, shaxsga ayb e`lon qilinib, so`ngra u javobgarlikdan ozod etilganda; uchinchidan, shaxsni sodir qilgan jinoyati uchun sudda muhokama qilinib, unga nisbatan biror-bir jazo tayinlanganda namoyon bo`ladi.

Jinoiy javobgarlikning muqarrarligi bilan jinoiy javobgarlikdan ozod etish o`zaro bog`liq bo`lib, shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilingan taqdirda ham jinoiy javobgarlikka tortishni to`la amalga oshirish ehtimoli mavjud bo`ladi, buni Jinoyat kodeksining tegishli normalarida ko`rsatilgan shartlar ochiq-oydin ko`rinib turishidan payqash qiyin emas. Yuqorida ta`kidlaganimizdek, bunda jinoyat sodir etilishi oqibatida jabrlanuvchiga yetkazilgan moddiy zarar va ma`naviy ziyon qoplanib, uning buzilgan huquq va qonuniy manfaatlari tiklanadi. Shu sababli jinoiy javobgarlikning muqarrarligi voz kechish g`oyasini ilgari suruvchi tadqiqotchilarning fikrini bizningcha, asosli deb bo`lmaydi.

Ushbu masalada ilmiy qarashlarda ko`plab bahs va munozaralarga sabab bo`layotgan masalalardan yana biri, bu – jinoiy javobgarlikdan ozod qilish to`g`risida qaror qabul qilish mutasaddi organlarning huquqimi yoki majburiyati.

Bu boradagi norma Jinoyat kodeksining faqat 64 va 67-moddalaridagina, ya`ni “shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi”, deb qat`iy belgilangani, qolgan moddalarda (65, 66, 66¹, 68-moddalarda) esa, “ozod qilinishi mumkin” tarzida mavhum ifodalangani munosabati bilan bildirilayotgan e`tirozlarni o`rinli deb xisoblaymiz.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni takomillashtirish haqida N.D.Suxareva fikr bildirib, ushbu institutning tadrijiy rivojlanishi ijtimoiy va huquqiy jihatdan asoslangan, ham jamiyat, ham shaxs manfaatlariga xizmat qiladigan bo`lishi kerak, deb yozadi. Olima jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslarining yaxlit bir jinoiy huquqiy hujjatda aks ettirilishi zarurligini yoqlab, “vaziyat o`zgarganligi tufayli ozod qilish” amaliyotiga qaytish g`oyasini ham ilgari suradi.

O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 65-moddasiga muvofiq, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun asos bo`lib ham qilmishning ham shaxsning jamiyat uchun xavfi yo`qolgani hisoblanadi.

Hamma holatlarda ham jinoiy javobgarlikdan ozod qilish qonunda belgilangan vaziyatlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Masalan, O`zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 66¹-moddasiga binoan, agar shaxs ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan qilmishi uchun aybiga iqror bo`lsa, jabrlanuvchi bilan yarashsa, yetkazilgan zarar qoplangan bo`lsa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi. Bularning barchasi shaxsning ijtimoiy xavfi yo`qligi, demak, unga nisbatan jinoiy javobgarlik choralari qo`llash zarurati yo`qolganidan dalolat beradi.

Ayni paytda jinoyatning ijtimoiy xavfliligi saqlanib qoladi, chunki xatti-harakatni jinoiy deb topilishiga asos bo`ladigan barcha mezonlar saqlanib turadi. Huquqni muhofaza qiluvchi organning shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish to`g`risidagi hujjati xatti-harakatni jinoiy hamda ijtimoiy xavfli deb topish to`g`risidagi qonun talablarini rad eta olmaydi.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasiga muvofiq, aybsizlik prezumpsiyasi prinsipi jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxsga nisbatan tatbiq etiladi. Mazkur moddaning ikki joyida “ayblanayotgan shaxs” atamasi ishlatilgan. JPKning “Aybsizlik prezumpsiyasi” deb nomlangan 23-moddasida esa bu atama “ayblanuvchi” tarzida ifodalangan. Aslida esa bu ikki atama xam bir ma’noni bildiradi.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish huquqini batamom sudlar ixtiyoriga berish yo`liga o`tish haqida chuqurroq o`ylab ko`rish kerak. Bu yerda gap jinoiy javobgarlikni maqbul tarzda individuallashtirish uchun jinoiy javobgarlikdan ozod qilish haqidagi jinoyat ishini sudda ko`rilgunga qadar qo`llanish imkoniyatini nazarda tutishda ham, sudlarning ishi haddan tashqari ko`payib ketishi va bu hol ularning ish sifatiga salbiy ta’sir etishida ham, jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning barcha turlari dastlabki tergov bosqichida anchagina keng qo`llanib kelinayotganligidan dalolat beruvchi, qaror

topgan amaliyotni tubdan o`zgartirishga to`g`ri kelayotganligida ham emas. Umuman qayd etilganlarning birontasi ham muammoni hal etishga imkon bermaydi, vassalom³¹.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning haqiqiy chegaralari anchagina kengdir. Ular haqida hozirgacha turli fikrlar bor. Basharti, buning uddasidan chiqilgan taqdirda ham, muammo mualliflarning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilangina o`z yechimini topadi. Biroq jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning sarhadlari to`g`risida ozgina mushohada qilingan zahoti ilgari surilayotgan taklifning puxta, mukammal emasligi ayon bo`ladi qoladi. Xususan, istaymizmi-yo`qmi, JPKning 590-591-moddalariga asosan jinoyat ishini qo`zg`atishni rad etishdek jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning protsessual shaklidan foydalanish zaruriyatidan voz kechish ham mushkul. Bu esa jinoiy javobgarlikdan ozod qilish shaklini sud emas, avvalgidek tergovchi amalga oshirishi lozim, degan ma`noni anglatadi. Demak, yuqorida aytilgan g`oya huquq ijodkorligi faoliyatida aftidan, qisman amalga oshirilishi mumkin. Bunday holatda muammo ham qisman hal etilgan bo`lardir.

Shunday qilib, jinoyat huquqi bilan konstitutsiyaviy huquq o`rtasidagi yuqorida zikr etilgan ziddiyatni quyidagi shartlarga ko`ra, ya`ni shaxsning jinoyat sodir etganlikda aybdorligi albatta, qayd etilgan sud hukmiga rioya etilgan taqdirda, jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning protsessual shakli sifatida jinoyat ishi qo`zgatishni rad etishdan voz kechish to`g`risidagi qoida bekor qilingan taqdirda chinakamiga bartaraf etish mumkin, biroq bu xolatni ham samarali, deb bo`lmaydi.

Jumladan, voyaga yetmagan shaxsni jinoiy javobgarlikdan unga tarbiyaviy ta`sirning majburlov choralarini qo`llagan holda ozod qilish huquqini faqat sudga berish to`g`risida yuqoriroqda o`rtaga tashlangan fikr-mulohazalarimiz ayni shunday yo`nalishga ega. Bunda ko`zlanayotgan maqsad jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni shaxsning sodir etilgan jinoyatdagi aybini qayd etishga (garchi talab etiladigan shakl-

³¹ Энциклопедия уголовного права. Т. 10. Освобождения от уголовной ответственности и наказания. Издание проф. Малинина – СПбГКА. Санкт-Петербург. 2008. С. 434.

andozaga rioya etmagan tarzda bo`lsa ham) haqli bo`lgan davlat hokimiyati organi tomonidan amalga oshirilishiga erishishdan iborat.

Yuqorida qayd etilgan qarashlarning jinoyat qonunida nazarda tutilgan qilmishning sodir etilishi bilan bog`liq bo`lgan, u yoki bu jihatdan yagona huquqiy natijada, aniqroq qilib aytganda, davlat bilan shaxs o`rtasidagi jinoyat huquqiy munosabatlarning tugatilishida o`z aksini topadi.

Shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish deganda jinoyat sodir qilgan, shuningdek jinoyat yo`liga kirgan bo`lsa-da, ammo og`ir yoki o`ta ogir jinoyat sodir etilishining oldini olishga harakat qilgan shaxsga nisbatan Jinoyat kodeksida belgilangan asos va shartlar bilan JPK tartibida vakolatli davlat organi (tergov yoki sud) tomonidan sudning ayblov hukmi chiqarilgunga qadar ish yuritishning har qanday bosqichida (sudga qadar yoki sudda ish yuritish), ya`ni jazo yoki boshqa huquqiy ta`sir chorasini qo`llashdan voz kechib, sodir qilgan jinoiy qilmishning barcha oqibatlaridan ozod qilish tushuniladi.

Bizning fikrimizcha, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tushunchasi turlicha talqin qilinmasligi, ayniqsa, hozirgi amaliyotda bu masaladagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish maqsadida Jinoyat kodeksida ushbu tushuncha o`zining aniq ta`rifini topishi zarur.

Jinoyat kodeksining 14, 16, 18, 23, 27, 35, 42-moddalarida tegishincha, “jinoyat”, “jinoyat uchun javobgarlik”, “aqli rasolik”, “murakkab aybli jinoyat”, “jinoyatda ishtirokchilik”, “qilmishning jinoiyiligini istisno kiladigan xolatlar”, “jazo” tushunchaparining bayon etilgani ham mazkur yangi normani qo`shishni taqozo etadi.

Mavjud amaliyotdan kelib chiqib, Jinoyat kodeksining “Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tushunchasi” nomli yangi mazmundagi 64-modda bilan to`ldirish zarur, ya`ni “Shaxs jinoyat sodir qilgan, shuningdek, ushbu Kodeks Maxsus qismining ayrim moddalarida nazarda tutilgan holatda jinoyat yo`liga kirgan, ammo o`z vaqtida jinoyat natijasida kelib chiqishi mumkin bo`lgan oqibatlarning oldini olishga harakat qilgan bo`lsa, unga nisbatan ushbu kodeksda belgilangan asos va shartlar bilan davlat organi

tomonidan sudning ayblov hukmi chiqarilgunga qadar ish yuritishning har qanday bosqichida jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasini qo'llashdan voz kechib, sodir qilgan jinoiy qilmish barcha oqibatlarining bekor qilinishi jinoiy javobgarlikdan ozod qilish deb hisoblanadi".

Shuningdek, Jinoyat kodeksidagi javobgarlikdan ozod qilishni qo'llash mumkin bo'lgan moddalarning birortasida javobgarlikdan ozod qilishni sud yoki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida aytilmagan. Ammo jazodan ozod qilishni nazarda tutuvchi moddalarning deyarli barchasida jazodan faqat sud ozod qilishi mumkinligi qayd qilingan. Shunga muvofiq, javobgarlikdan sud yoki boshqa jinoyat protsessi ishtirokchisi tomonidan ozod qilinishi qonunda aniq ko'rsatib qo'yilishi kerak deb hisoblaymiz.

§ 1.2. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning rivojlanish tarixi

Hammamizga juda yaxshi ma'lumki, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish jinoyat huquqida eng muhim institutlardan biri hisoblanadi. Shu sababli, masalaning kelib chiqish tarixini o'rganmay turib, uning nazariyasini yaratib bo'lmaydi, degan g'oyadan kelib chiqib, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutining o'tmishiga nazar tashlasak, jinoyat huquqidagi bu institut necha yuz yillar muqaddam shakllangan, turli davrlarda qo'llanib kelingan huquqiy chora ekanligiga guvoh bo'lamiz. Turli davlatlarda hozirgi vaqtda ham ayblanuvchining qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lishi, aybini bo'yniga olishi, jabrlanuvchi bilan ayblanuvchining yarashuvi, yetkazilgan zararni qoplashi va boshqa holatlar asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish instituti amalga oshirilmoqda. Bu o'rinda tarixiy an'analarga tayanish, tarixiy tajribadan foydalanish ustuvorlik kasb etmoqda.

Ma'lumki, jinoyat, javobgarlik, jazo, javobgarlikdan ozod qilish muammosi uzoq huquqiy hamda tarixiy asoslarga ega. To'g'ri yo'ldan adashib, jinoyat ko'chasiga kirib qolgan, qilmishiga pushaymon bo'lgan shaxslarga nisbatan shafqat qilish, muruvvatli va kechirimli bo'lish umuminsoniy axloq qoidasi hisoblanadi. Barcha dinlar, ayniqsa islom adashgan kimsaga siylai-rahm qilishga da'vat etadi.

Qur'oni karimda: «Ey mo'minlar, sizlarga o'ldirilgan kishilar uchun ozod kishi muqobiliga ozod kishidan, qul uchun quldan, ayol kishi uchun ayoldan qasos olish farz qilindi. Endi kimga birodari tomonidan biroz afv qilinsa, ya'ni qotildan qasos olish o'rniga tovon olishga rozi bo'linsa, u holda yaxshilik bilan bo'ysunish va chiroyli suratda tovon to'lash lozim»³², - deb ta'kidlangan. Islom ta'limotining bu g'oyasiga 1400 yildan buyon barcha musulmon davlatlarida, so'nggi yillarda esa, ba'zi dunyoviy davlatlarda ham amal qilib kelinmoqda.

³² Qur'oni karim. Baqara surasi 178-oyat.

Yurtimiz xududida musulmon qonunchiligi, shariat hukmron bo`lgan davrlarda islom huquqi - fiqh asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish turlari amalda bo`lgan. Jabrlanuvchi bilan ayblanuvchining yarashishi, tovon to`lash orqali yetkazilgan zararni qoplash, ayol yoki keksalarga nisbatan jazoni yumshatish kabi me`yorlar ko`plab qo`llanilgan.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutining tarkibiy qismlari – jinoiy javobgarlikdan ozod qilish turlari, ularning o`tmishi, hozirgi holatini tahlil qilish kelajakda ularni yanada takomillashtirish imkonini beradi.

Yigirmanchi asr boshlarida yuzaga kelgan bunday yondashuv asr so`nggiga kelib yanada muhim xususiyatga ega bo`ldi. Amaldagi jazolar o`rniga qo`llanila boshlangan choralar jinoiy ta`qibni bartaraf etish bilan birga jinoyatchilikka qarshi kurashni ham o`z ichiga oladi.

Bu tendensiya xalqaro hujjatlarda ham o`z aksini topdi. Jinoyat-huquqiy nizolarni suddan tashqarida hal etish g`oyasi, masalan, Yevropa Kengashi a`zolari bo`lgan davlatlarning vazirlar qo`mitasi tomonidan ma`qullandi. Qo`mita rasmiy tavsiyanoma nashr etdi, unda nizolashgan tomonlarni kelishtirishning asosiy modellari belgilab qo`yilgan³³.

Dunyoning ko`pchilik davlatlarida jinoiy javobgarlik uchun muqobil choralar turlarini qo`llash joriy etila boshlandi.

Yuridik adabiyotlarda xorijiy mamlakatlarning jinoyat masalalari bilan shug`ullanuvchi adliya sohasida qo`llaniladigan muqobil choralarning ikkita asosiy modeli ajratib ko`rsatiladi. Birinchisi “Niderlandiya-Belgiya» modelidir. Jinoiy javobgarlikdan ozod etish mazmunini qamrab olgan bu model shundan iboratki, unga ko`ra agar jinoyat sodir qilgan shaxs har bir holatda belgilab qo`yilgan pul summasini

³³ Курс уголовного права. Том 2. Общая часть. Учение о наказании. Коллектив авторов. — М.: Зерцало. 2002. С. 155.

davlat g`aznasiga kiritishga ixtiyoriy ravishda rozilik bildirsa, tergov organlari (prokuratura, politsiya) huquqbuzarni jinoiy ta'qib etishdan voz kechadilar³⁴.

1935-yilda Belgiyada paydo bo`lgan bu model agar ayblanuvchi o`z aybiga iqrор bo`lsa, kam ahamiyatli iqtisodiy jinoyatlar sudda ko`rilishini bartaraf etishga ko`maklashishi kerak edi. Mazkur ozod etish instituti Belgiyada 1984-yilda mustahkam asosga ega bo`ldi³⁵. Shu vaqtdan boshlab besh yil muddagacha qamoq jazosi qo`llanilishi nazarda tutilgan har qanday jinoiy qilmish uchun ushbu chora qo`llanila boshlandi. Bu normalar jinoyat protsessining sudgacha bo`lgan davrida qo`llanilishiga ijozat etildi. Unga ko`ra, prokuratura qonunda belgilangan doiralarda to`lanishi lozim bo`lgan pul xajmini, to`lov muddatini belgilaydi. Shundan so`ng aybdor shaxsga mazkur summani to`lash to`g`risida taklifnoma yuboradi. Ayblanuvchi bunday summani davlat g`aznasiga to`lashdan bosh tortgan taqdirda jinoiy ta'qib odatdagi tartibda davom ettiriladi.

Niderlandiyadagi bu amaliyot Belgiyadagi qoidalardan deyarli farq qilmaydi. Farqi shundaki, bu davlatda olti yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar uchun tovon to`lash mumkin bo`ladi. Mazkur institut Niderlandiyada tergov organlariga kelib tushayotgan jinoyat ishlarining qariyb uchdan bir qismiga qo`llanilmoqda.

Muqobil usullarning ikkinchi modeli xorijiy davlatlarning jinoyat huquqida mediatsiya nomini olgan bo`lib, u oddiy va kompleks variantlarda namoyon bo`ladi. Mediatsiyaning mohiyati shundan iboratki, u agar ayblanuvchi yetkazilgan zararni to`lashga rozilik bildirsa, jabrlanuvchini ayblanuvchi bilan yarashtirishda vositachi vazifasini bajarishi zarur bo`ladi. Rossiya yuridik adabiyotlarida ta'kidlanishicha, mediatsiya tizimining muhim jihati shundan iboratki, bunday vakolat berilgan shaxs

¹ Курс уголовного права. Том 2. Общая часть. Учение о наказании. Коллектив авторов. — М.: Зерцало. 2002. С. 155

² Уголовный Кодекс Бельгии. Санкт-Петербург. «Юридический центр пресс», 2004 г.

tomonlarni yarashtirishda passiv bo`lmay, jinoyat-xuquqiy mojaroni murosaga keltirish bilan hal qilishi uchun faol pozitsiyani egallamog`i lozim.

Belgiyada mediatsiya prinsipi yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi nazarda tutilgan barcha jinoyat ishlari bo`yicha qo`llaniladi. Ayblanuvchi quyidagi harakatlarni bajarganda jinoyat ishi tugatilishi mumkin: yetkazilgan zararining o`rni qoplanishi, davolanish kursidan o`tilishi, ijtimoiy foydali ishlar bajarilishi, kasb-hunar ta`limi olinishi³⁶.

Hozirgi paytda mediatsiya u yoki bu ko`rinishda Germaniya, Avstriya, Portugaliya, Fransiya va boshqa bir qancha davlatlarda mavjud. Shundan ko`rinib turibdiki, ko`plab xorijiy mamlakatlarda jinoiy javobgarlikdan ozod etishning ko`plab muqobil variantlari izlanmoqda . Bu tergov-sud tizimi ishini yengillatish, jazoni ijro etish muassasalarining mahbuslar bilan to`lib ketishidan saqlashda muhim vosita bo`lib xizmat qilmokda.

Aybsizlik prezumpsiyasi masalasi avvaliga jinoyat huquqi sohasi mutaxassislarini unchalik qiziqtirmagan ko`rinadi. Nazariyada bunday tasmollar sof protsessual ahamiyatga ega, deb xisoblanardi. O`tgan asrning 50-60-yillarida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish turlari jadal rivojlanganligi hamda ularni amaliyotda keng qo`llanishga kirishilganligi munosabati bilan jinoyat huquqi bilan shug`ullanuvchi olimlarda bu masalaga qiziqish yuzaga keldi. Sobiq sho`rolar Ittifoqining 1977-yildagi Konstitutsiyasida (160-modda) quyidagi qoidaning mustahkamlab qo`yilganligi mazkur masalaga olimlar e`tiborini yanada kuchaytirdi: “Hech kim jinoyat sodir etganlikda sudning hukmidan tashqari va qonunga muvofiq bo`lmagan tarzda aybdor deb topilishi, shuningdek, jinoiy jazoga tortilishi mumkin emas”.

Ko`pgina mutaxassislarning fikricha, ayni shu qoidada aybsizlik prezumpsiyasi mujassam. Bu tag-zaminli g`oya 1978-yilgi O`zbekistan SSR Konstitutsiyasida ham to`la o`z ifodasini topdi. Ko`rib chiqilayotgan masala muhimligi nuqtai nazaridan

¹ Курс уголовного права. Том 2. М. : Зерцало-М. 2002. С-156.

aybsizlik prezumpsiyasi jinoyat huquqining manbalari - sobiq SSR Ittifoqi va ittifoqdosh respublikalarning jinoyat qonunlari asoslarida (1958-yil) ham muayyan darajada aks etganligini ta'kidlash joiz.

1917-yil oktabr to'ntarishidan keyin O'zbekistonda jinoyat xuquqi, albatta, ayrim mahalliy xususiyatlarni hisobga olgan holda, ammo yagona qolipda - sobiq Ittifoq jinoyat konunchiligi asosida rivojlandi.

1959-yilda qabul kilingan O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksidada jinoiy javobgarlikdan ozod qilish normalari asosan "Jazoni tayinlash va jazodan ozod qilish" deb nomlangan bobga kiritilgan edi. Mazkur Kodeksning 46-moddasi jinoiy javobgarlikka tortish muxlatlari, 48-modda jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilish, 48¹-modda jinoiy javobgarlikdan ozod etib, ma'muriy javobgarlikka tortish, 49-modda shaxsni jamoat tashkilotlariga kafillikka berib, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, 49¹-modda ishni o'rtoqlik sudiga topshirib, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish masalalari bayon qilingan. Jumladan, 48-modda "Jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilish" deb nomlangan bo'lib³⁷, unga asosan agar ishni tergov qilish yoki sudda ko'rish paytida sharoit o'zgarishi tufayli shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyat alomatlari bo'lgan xatti-harakat jamoat uchun xavflilik xususiyatini yo'qotgan bo'lsa yoki o'sha jinoyat qilgan shaxs jamoat uchun xavfli, emas deb hisoblansa, uni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish mumkin bo'lgan. Bunda jinoiy javobgarlikdan ozod etishning asosi etib, jinoyat va shaxsning ijtimoiy xavfli bo'lmay qolganligi inobatga olingan.

Mazkur Kodeksning 48¹-moddasida esa, shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod etib, ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan. Ushbu moddaning dispozitsiyasida shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod etib, ma'muriy javobgarlikka tortishning zaruriy elementi qilib jamiyat uchun uncha xavf tug'dirmaydigan, sodir qilgan jinoyati sanksiyasida ko'pi bilan bir yilgacha ozodlikdan mahrum etish va ozodlikdan mahrum

³⁷ O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksiga sharhlar, Toshkent, "O'zbekiston", 1988, 95 – 151-betlar.

qilish bilan bog`liq bo`lmagan boshqa ta'sir choralari belgilanganligi, shuningdek, aybdorga nisbatan jazo qo`llamasdan turib uning axloqan tuzalishi va qayta tarbiyalanishi mumkin degan xulosaga kelinsa, uni jinoiy javobgarlikka tortmasdan, ma'muriy jazo chorasi qo`llanishi nazarda tutilgan edi.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning uchinchi turi sifatida JKning 49-moddasida shaxsni jamoat tashkilotlariga kafillikka berish nazarda tutilgan bo`lib, unga ko`ra, yuridik shaxs va undagi mehnat jamoasi dastlabki tergov organlariga yoki sudga iltimosnoma bilan murojaat qilib, ijtimoiy xavfli bo`lmagan jinoyat sodir qilgan o`z xodimini qayta tarbiyalash va axloqan tuzatish uchun kafillikka olishini bildirar edi.

Shu narsa diqqatni tortadiki, sobiq O`bekiston SSR Jinoyat kodeksining 49-moddasiga muvofiq, aybdor shaxsni jamoat kafilligiga berish ham jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning bir turi hisoblanardi. Bu jinoyat sodir etgan shaxsning jamiyat uchun unchalik katta xavf tug`dirmagan hollarda amalga oshirilardi.

Shu yo`l bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun jamoat tashkiloti va mehnat jamoasining kafilligi zarur bo`lardi. Kafillikka berish qayta tarbiyalash va axloqan tuzatish maqsadida amalga oshirilardi. Jamoat tashkiloti yoki mehnat jamoasi, agar kafillikka olingan shaxs “jamoat ishonchini oqlamasa”, “sotsialistik turmush qoidalariga bo`ysunmasa” yoki “jamoat ta'siridan bo`yin tovlash maqsadida shu mehnat jamoasini tark etsa”, kafillikdan voz kechishi mumkin edi. Javobgarlikdan ozod qilishning bu turiga e'tiroz bildiruvchilar, turli sabablarga ko`ra, masalan, o`z a'zosiga ta'sir o`tkazishga qodir jamoaning yo`qligi, kafillikdan voz kechish asoslarining aniq-ravshan emasligi va boshqa sabablarga ko`ra, bu tur samarador bo`lmagan hamda fuqarolarning xuquq va erkinliklarining ko`plab buzilishiga olib kelgan, deb hisoblashadi.

Bugungi kunda sobiq ittifoqdosh respublikalardan faqat Ukrainada ushbu modda saqlanib qolgan, xolos. Xuddi shu o`rinda yuridik shaxslarning jinoyatchilikka qarshi kurashib, jinoyatchilikning oldini olishdagi faolligini oshirish maqsadida, ushbu kafillikka olish institutini qayta tiklash zarurligini maqsadga muvofiq, deb xisoblaymiz.

Shuning uchun amaldagi Jinoyat kodeksiga “Shaxsni jamoat tashkilotiga kafillikka berish sababli javobgarlikdan ozod qilish” deb nomlangan yangi 65¹-modda, ya’ni “ijtimoiy xavfi katta bo’lmagan jinoyatni birinchi marotaba sodir etgan va qilmishiga chin ko’ngildan pushaymon bo’lgan shaxs jamoat tashkilotlarining iltimosnomasiga binoan jamoat tashkiloti kafilligiga berilib, javobgarlikdan ozod etilishi mumkin”. Bu o’rinda gap jamoat tashkilotlari, ya’ni fuqarolik jamiyati institutlarida — nodavlat tashkilotda ishlagan, jinoyat sodir etgan shaxs haqida bormoqda. Javobgarlikdan ozod etishning mazkur turining afzalligi shundaki, jamiyatni demokratlashtirish, fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirish bilan bog’liq islohotlarning hozirgi bosqichida jamoat nazoratini amalga oshirishga alohida e’tibor berilmoqda. Fuqarolik jamiyatiga xos faoliyat bilan shug’ullanayotgan jamoat tashkiloti ijtimoiy xavfi katta bo’lmagan jinoyatni sodir etib qilmishiga pushaymon bo’lgan shaxsni o’z tarbiyasiga olishi mumkin, chunki javobgarlikning murakkabligini to’liq anglagan holda qilmishidan chin ko’ngildan pushaymon bo’lib tuzalish yo’liga o’tgan bo’lsa, kafillikka olish yo’li bilan unda ijobiy xulq-atvorning shakllanishiga erishish mumkinligi shubhasizdir.

Shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod etishning to’rtinchi turi sobiq O’zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 49¹-moddasida ko’rsatilgan bo’lib, unga asosan shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod etilib, ish o’rtoqlik sudiga topshirilardi. Bu modda dispozitsiyasi talablari yuqorida bayon etilgan 48, 48¹, 49-moddalar talablaridan tubdan farq qiladi. Unda badanga qasddan yengil shikast yetkazgan yoki birovni sog’ligiga zarar yetkazmagan holda urgan, do’pposlagan bo’lsa, jamoada boshqa bir a’zoni sharmanda qilish uchun yolg’on va uydirma xabar tarqatgan bo’lsa, birovni haqorat qilgan bo’lsa, basharti bunda aybdor ham, jabrlanuvchi ham bir jamoa a’zosi bo’lsa; ushbu Kodeksning Maxsus qismi moddasiga binoan jamoat ta’siri ko’rsatish chorasi qo’lanilishiga yo’l qo’yiladigan boshqa xatti-xarakat sodir qilsa; shaxs sodir qilgan, jamiyat uchun unchalik xavf tug’dirmaydigan, jinoyat alomatlari bor bo’lgan boshqa xatti-xarakatning xusiyatiga ko’ra va mazkur shaxsning kimligiga qarab, uni jazo

qo'llanmasdan, jamoat ta'siri chorasini qo'llash yo'li bilan tuzatish mumkin deb topilgan holatlarda jinoiy javobgarlikdan ozod etish belgilangan.

O'rni kelganida shuni aytib o'tish kerakki, sobik O'zbekiston SSRning 1959-yildagi Jinoyat kodeksida jinoiy javobgarlikdan ozod etib, ma'muriy javobgarlikka tortish (48¹-modda) haqidagi qoidani sobiq SSSR Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi 1990-yil 13-sentyabrda RSFSR JKning jinoiy javobgarlikni ma'muriy javobgarlik yoki jamoat ta'siri choralari bilan almashtirish borasidagi amaldagi qoidalari ishni sudda ko'rmasdan va ayblov hukmi chiqarmasdan turib, shaxsni jinoyat sodir etishda aybdor deb topishga imkon beradigan bo'lgani uchun ham aybsizlik prezumpsiyasiga zid degan xulosa berishga majbur bo'lgan edi.

Masalaga chuqurroq yondashadigan bo'lsak, jinoiy javobgarlikning ma'muriy javobgarlik bilan almashtirilishi jinoiy javobgarlik tushunchasi va asoslariga ziddir. Chunki shaxs jinoyat deb belgilangan qilmish sodir etdimi, bas, bu qilmishi uchun u jinoiy javobgarlikka tortilishi yoki jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi kerak. Ammo jinoiy javobgarlikni boshqa javobgarlik bilan almashtirish tug'ri emas. Lekin bu norma hayotda ko'plab odamlarni jinoiy javobgarlikdan ozod etishga imkon yaratdiki, bu hol o'sha yillari sobiq Ittifoq tarkibidagi respublikalarda, shu jumladan O'zbekistonda ozod qilishning silsilasi amal qilgani haqida gapirishga imkon beradi.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning boshqa bir turiga ko'ra, birinchi marta: qasddan yengil tan jarohati yetkazish yoki do'pposlash (bular jabrlanuvchining sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazmagan bo'lsa), haqorat qilish, aynan o'sha jamoada ishlaydigan odamning mulki bo'lgan mayda iste'mol yoki maishiy mollarni o'g'irlash jinoyatlarini sodir etgani uchun shaxs o'rtoqlik sudiga berilishi mumkin bo'lgan. O'rtoqlik sudlari JK jamoatchilik aralashuvini nazarda tutgan boshqa holatlarda ham ishlarni ko'rib chiqqan. Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan qilmish sodir etgan aybdor shaxsni jazo choralari qo'llamasdan turib jamoada tarbiyalash imkoniyati bor deb hisoblangan hollarda ish o'rtoqlik sudlariga topshirilgan.

Jinoiy javobgarlikdan ozod etishning bunday turini saqlab qolish O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qoidalariga zid edi, chunki Konstitutsiyaga muvofiq O`zbekiston Respublikasida odil sudlovni faqat sud amalga oshiradi. Binobarin, Konstitutsiyaga muvofiq sud tizimini umumiy yurisdiksiyadagi sudlar, xo`jalik sudlari, konstitutsiyaviy sudlar tashkil etadi. Korxonalar, mehnat jamoalari qoshida tuzilgan o`rtoqlik sudlari sud tizimiga kirmas edi. Qolaversa, bu sudlar tarkibiga aksariyat xollarda jinoyat huquqi masalalarida uquvsiz bo`lgan shaxslar kirar, shu sababli taqdim etilgan ishlarni to`g`ri va xolis ko`rib chiqish imkoniyati bo`lmasdi.

Shunday qilib, O`zbekistonda jinoiy javobgarlikdan ozod etishning yuqorida sanab o`tilgan turlari amalda qo`llanilar edi.

Bundan tashqari 1959-yildagi JPKning 5-moddasida jinoyat ishi qo`zg`atilmaydigan holatlar belgilangan bo`lib, uning 6-bandida jabrlanuvchi ayblanuvchi bilan yarashganda jinoyat ishi qo`zg`atilmasligi nazarda tutilgan. Ushbu institutning mohiyati jabrlanuvchi hamda ayblanuvchining yarashganligi bilan bog`liq moddiy qonun normasini ifodalaydi. Aynan shu sababli ham amaldagi Kodeksda bu holat inobatga olinib, yarashuv institutining JKning 66¹-moddasida belgilanganligi nazariy va amaliy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Ko`rib chiqilayotgan mavzu ilm-fanda bahs-munozaralarga sabab bo`lganligi tufayli bu masala xususidagi nuqtai nazarni, ya`ni biz qo`llab-quvvatlaydigan nuqtai nazarni tasdiqlash uchun bir qancha tarixiy rasmiy xujjatlarga murojaat etamiz.

Sobiq SSSR Oliy Soveti Rayosatining «SSR Ittifoqi va ittifoqdosh respublikalar jinoyat qonuni asoslariga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida»gi 1981-yil 13-avgustda chiqarilgan Farmoni qonun normalari o`rtasida yuqorida qayd etilgan ziddiyat mavjudligiga dalil bo`la oladi³⁸.

Jinoiy javobgarlikdan ozod etilayotgan shaxslarni qonun aybdor sifatida tilga olmagan, ular sodir etgan qilmish esa jinoyat deb ta`riflanmagan ham (“jinoyat” va

³⁸ Ведомости Верховного Совета СССР. 1981. №33.С. 965.

“ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan qilmish” atamaları “jinoiyat alomati bo`lgan qilmish” hamda “ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan qilmish” degan atamalar bilan almashtirilgan).

Mazkur Farmonning 1-bandida ta`kidlanishicha, ushbu xujjat jinoiyat to`grisidagi qonun xujjatlarini SSSR Konstitutsiyasiga muvofiqlashtirish maqsadida qabul qilingan.

Ana shu Farmon zamirida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish to`g`risidagi normativ huquqiy hujjatlarning moddalarida qilmishning tavsifini, xususiyatini o`zgartirish zarur degan fikr yotadi. Bu fikr jinoiy xatti-harakatni - jinoiy bo`lmagan huquqbuzarlikka ta`sis etishga oid taklifda o`z ifodasini topgan³⁹.

SSSR Konstitutsiyaviy nazorat qo`mitasining “Jinoiyat to`g`risidagi qonun hujjatlarining va jinoiyat-protsessual qonun hujjatlarining jinoiy javobgarlikdan SSSR Konstitutsiyasi hamda inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlardagi ma`muriy jazo yoki ijtimoiy ta`sir choralarini qo`llagan holda ozod qilish asoslari va tartibini belgilovchi normalarning nomuvofiqligi to`grisida”gi 1990-yil 13-sentyabrdagi xulosasida: “SSR Ittifoqi va ittifoqdosh respublikalar jinoiyat qonuni asoslari”ning 43-moddasi shaxsni jinoiyat sodir etganlikda ishni sudda ko`rmay turib ham aybdor deb topish imkoniyatini beradigan qismi SSSR Konstitutsiyasining 160-moddasi qoidalariga mos emas. Bunday nomuvofiqlik jinoiyat to`g`risidagi qonun hujjatlariga SSSR Oliy Soveti tomonidan tegishli qo`shimcha va o`zgartirishlar kiritish bilan bartaraf etilmog`i lozimligi qayd etilgan⁴⁰.

Konstitutsiyaviy nazorat qo`mitasining bu murojaatini SSSR Oliy Soveti SSR Ittifoqi va ittifoqdosh respublikalar jinoiyat qonuni asoslari loyihasini ishlab chiqishda va uni 1991-yil 2-iyulda qabul qilishda inobatga oldi.

Birinchidan, jinoiy javobgarlikdan shaxsni ma`muriy javobgarlikka jalb etgan holda ozod etishdek jinoiy javobgarlikdan ozod qilish turi asoslarga kiritilmadi.

³⁹ Кригер Г.А. Конституция ССР и совершенствование уголовного законодательства// Вест. Моск. ун-та.Сер. 11:Право. 1979. №2. С. 3-9/

⁴⁰ Ведомости Съезда народных депутатов СССР и Верховного Совета СССР. 1990.№39.С. 775.

Ikkinchidan, qonunga muvofiq shaxsni jinoiy javobgarlikdan unga nisbatan ijtimoiy ta'sir choralari qo'llagan holda ozod qilish huquqi bundan buyon faqat sudlarga taalluqli ekanligi belgilab berildi. Shu yo'l bilan shaxsning jinoyat sodir etishdagi aybdorligini prokuror, tergovchi, surishtiruv organi tomonidan amalga oshirishga yo'l qo'ymaslikka qaratildi.

Ushbu Konstitutsiyaviy qoidaga ko'ra, shaxsni jinoyat sodir etganlikda faqat sud aybdor deb topishi mumkin ekanligi bois jinoiy javobgarlikdan ozod qilish huquqini faqat davlat xokimiyatining sud organiga berish kerak, degan g'oya mazkur qarorga asos bo'ldi⁴¹.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi JKni yaratishda yanada osonroq yo'l tanlandi: yuqorida zikr etilgan nazorat qo'mitasi xulosasida ko'rsatib o'tilgan, jinoiy javobgarlikdan ma'muriy jazo va ijtimoiy ta'sir choralari qo'llagan holda ozod qilish turlari Kodeksga kiritilmadi.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish masalasida ancha faol tadqiqot olib borgan mutaxassislarning mehnati bekor ketmadi. Ular tomonidan taklif etilgan bir qator ijobiy fikrlar, maqbul yechimlar keyingi qonunchilik hujjatlarida o'z aksini topdi. O'rni kelganda ta'kidlash joizki, "Javobgarlikdan ozod qilishning turlari" deb nomlangan, anchadan buyon kutilgan mustaqil (XII) bobning Jinoyat kodeksidan muqim o'rin olishi ham ushbu muammoni sinchiklab o'rganilganining natijalaridan biri bo'ldi.

Sobiq Ittifoq va ittifoqdosh respublikalar jinoyat qonunlari asoslarini yaratuvchilar tadqiq etilayotgan institutni tuzilishi jihatdan alohida qilishni joiz deb topdilar. Shu tarzda "Jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish" degan bob yuzaga keldi. Bu bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutini kelajakda yanada mustaqilligi ta'minlash sari qadam tashlandi. Biroq uni ajratish va mustaqil qilib belgilash borasidagi g'oya faqat 1994-yilga kelib, mustaqil O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini qabul qilish jarayonida o'zining normativ ifodasini

⁴¹ Либус И.А. Презумпция невинности и прекращение уголовных дел // Советское государство и право 1981.№7. С. 69-70.

topdi. Tadqiq qilinayotgan institut doirasi hozir avvalgiga qaraganda, ancha kengaygan bo`lib, huquqni qo`llash amaliyotining bugungi ehtiyojlariga javob beradi.

Jinoyat kodeksining XII bobida, dastavval, jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning beshta turi ko`rsatilgan edi. Bular javobgarlikka tortish muddatining o`tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish (JK 64-moddasi); qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo`qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish (JKning 65-moddasi); aybdor o`z qilmishiga chin ko`ngildan pushaymon bo`lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish (JKning 66- moddasi); kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish (JKning 67- moddasi); amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish (JKning 68- moddasi)dan iborat edi. Keyinchalik ularga yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish (JKning 66¹-moddasi) qo`shildi. Voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlariga bag`ishlangan bo`limdagi alohida moddada (JK 87-moddasi birinchi qismi) majburlov choralarini qo`llagan holda javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish nazarda tutildi.

Ko`rib turganimizdek, nazariyachi va amaliyotchilarning kutganlari tez orada ro`yobga chiqdi. Mazkur institutning samaradorligi hamda o`zbek xalqining rahmdillik va kechirimlilik kabi ko`p asrlik an`analariga mosligi uning izchillik bilan kengayib borishiga asos bo`ldi. Hozirgi kunda 53 ta jinoyat tarkibi bo`yicha yarashuv institutini qo`llash imkoniyati nazarda tutilgan.

Shu o`rinda yana bir misolga e`tibor beraylik. Yarashuv institutining joriy etilishi natijasida o`tgan davr mobaynida 100 mingdan ortiq fuqaro jinoiy javobgarlikdan ozod etilgan.

Yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish turini bizning jinoyat qonunchiligimizga mutlaqo yangilik deyish mumkin. Biroq u ham yo`q yerdan paydo bulgan emas, albatta. Milliy qonunchiligimizda, xususan, fiqh kitoblarida, ayniqsa, buyuk alloma Burxoniddin Marg`iloniyning «Hidoya» nomli asarida jabrlanuvchining ayblanuvchi bilan yarashganligiga oid munosabatlar to`grisidagi qoidalar qadimdan mavjudligiga guvoh bo`lamiz.

Ijobiy jihati shundaki, hozir Jinoyat kodeksida jinoiy javobgarlikdan ozod etish institutining chegaralari avvalgiga qaraganda yanada aniqroq qilib belgilangan. Qonun ijodkorlari avvalgi kodeksdan farqli ravishda javobgarlikka tortish muddati, yarashuv, amnistiya akti, voyaga yetmaganlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish kabi jinoiy javobgarlikdan ozod qilishga asos bo'luvchi holatlarning mohiyatini aniq va to'g'ri belgilab berdilar.

2-BOB. JINOIY JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISHNING TASNIFI VA JINOYAT KODEKSI MAXSUS QISMI AYRIM MODDALARIDA NAZARDA TUTILGAN JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISHNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

§ 2.1. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish turlari va ularning o`ziga xos xususiyatlari

Jinoiy sudlov faoliyati jinoyatlarni tez va to`liq ochish, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga qonunda ko`rsatilgan adolatli jazo tayinlash maqsadida amalga oshiriladi. Jinoyat qanchalik darajada tez fosh etlsa, to`liq va sifatli tergov qilinsa, jinoiy javobgarlikka oid jinoyat qonun hujjatlaridagi normalar shunchalik aniq qo`llaniladi, eng muhimi, jinoyatga yarasha davlat majburlov choralari shunchalik adolatli va maqsadga muvofiq bo`ladi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining XII bobi "Javobgarlikdan ozod qilishning turlari" deb nomlangan bo`lib, ushbu bobda quyidagi jinoiy javobgarlikdan ozod qilish turlari ko`rsatib o`tilgan:

- 1) javobgarlikka tortish muddatining o`tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish (64-modda);
- 2) qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo`qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish (65-modda);
- 3) aybdor o`z qilmishiga chin ko`ngildan pushaymon bo`lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish (66-modda);
- 4) yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish (66¹-modda);
- 5) kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish (67-modda);
- 6) amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish (68-modda).

Javobgarlikdan ozod qilishning bu turlari voyaga yetgan va voyaga yetmaganlarga nisbatan ham birday qo`llanilishi mumkin. Bularidan tashqari, voyaga yetmaganlarga nisbatan majburlov choralarini qo`llagan holda javobgarlikdan ozod qilishni (87-modda) qo`llanilishi ham mumkin.

O`zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 64-moddasi “Javobgarlikka tortish muddatining o`tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish” deb nomlangan bo`lib, dastlab, jinoiy javobgarlikka tortish muddatining o`zi nima ekanligiga to`xtalib o`tsak.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish muddatlari deb jinoyat sodir etilgan paytdan boshlab jinoyat qonunida belgilangan muddatlarning o`tib ketganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo`lmagan muddatlarga⁴² aytiladi.

Ayni shu muddatlarning tugashi shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun asos bo`lib hisoblanadi. Ularning davom etishi, ham sodir etilgan jinoyatning jamoat uchun xavflilik darajasiga, ham qonunda nazarda tutilgan sodir etilgan jinoyat uchun jazoning og`rligiga bog`liq, chunki ayni jazoning og`irligi jinoyatlarni toifalarga bo`lish asosida yotadi. Shuni ham ta`kidlash zarurki, jazo muddati o`tganligi uchun jinoiy javobgarlikdan ozod qilishga, agar qonunda o`rnatilgan muddat davomida jinoyat sodir etishda aybdor shaxs tergov va suddan yashirinmagan tartibda yo`l qo`yiladi.

Ushbu muddatlarning belgilanishining ahamiyati yana shundaki, agar jinoyat sodir etgan shaxs jinoyat qonunida belgilangan muddatlar ichida yangi jinoyat sodir etmasa, uning jamiyat uchun ijtimoiy xavfliligini yo`qotgan yoki uncha xavf tug`dirmaydi degan xulosaga kelinadi. Bundan tashqari, jinoyat sodir etilgan paytdan boshlab qonunda belgilangan muddatlar o`tib ketganidan keyin kishilar ongidagi shu qilmishga munosabat ham asta-sekin o`zgarib boradi. Shunga ko`ra, ko`p yillar o`tib ketganligiga qaramay, o`tmishda sodir etilgan jinoyatni yana qo`zg`atish, kishilar

⁴²M. Usmonaliev. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o`quv yurtlari uchun darslik. —T., «Yangi asr avlodi», 2010, 536-bet.

hayotida alg`ov-dalg`ovliklar vujudga keltirish fuqaroviy-huquqiy ong nuqtai nazaridan ham maqsadga muvofiq emas.

O`zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 64-moddasiga muvofiq, agar jinoyat sodir etilgan kundan boshlab quyidagi muddatlar o`tib ketgan bo`lsa, shaxs javobgarlikdan ozod etiladi:

a) ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab — ikki yil;

b) uncha og`ir bo`lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab — to`rt yil;

v) og`ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab — sakkiz yil;

g) o`ta og`ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab — o`n to`rt yil o`tgan bo`lsa, shaxs javobgarlikdan ozod qilinadi⁴³.

Javobgarlikka tortish muddati jinoyat sodir etilgan kundan boshlab hukm qonuniy kuchga kirgan kungacha hisoblanadi. Javobgarlikka tortish muddatlariga dastlabki tergov vaqti, jinoyat ishi prokurorda ayblov xulosasi uchun bo`lgan vaqt, sud tarkibi tomonidan hukmga qo`l qo`yilgan va hukmni e`lon qilish vaqti, kassatsiya shikoyati tufayli kassatsiya sudida ko`rilgan vaqt va hukm kassatsiya sudida o`zgarishsiz qoldirilgan vaqtlar kiradi.

Moddiy va davomli jinoyatlarda jinoyat sodir etilgan vaqtni hisoblash masalasi biroz murakkabroq. Moddiy jinoyatlar sodir etilgan vaqti O`zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 13-moddasiga muvofiq aniqlanadi. Uzoqqa cho`zilgan jinoyatlarda jinoiy qilmish to`xtatilgan vaqt jinoyat sodir etish vaqti deb olinadi. Davomli jinoyatlarda oxirgi jinoiy harakat sodir qilingan vaqtdan boshlab hisoblanadi. Muddatlarni hisoblashda jinoyat sodir qilingan soatdagi kundan emas, o`sha kun tamom bo`lib, sutkaning 24.00 dan keyingi vaqtdan boshlab hisoblanadi.

Jinoyat qonunchiligiga muvofiq, jinoiy javobgarlikka tortish muddati jinoyat sodir etilgan kundan boshlab qonunda ko`rsatilgan muddat tugaguniga qadar, uzluksiz

⁴³ O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – T.: “Adolat”, 2020-yil, 64-modda.

tarzda kechaveradi. Biroq, Jinoyat kodeksining 64-moddasi 3-qismidagi qoidada belgilanishicha, agar jinoyat sodir etgan va jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxs tergov yoki suddan yashirinsa, muddatning o`tishi to`xtatiladi.

Gumonlanuvchi yoki ayblanuvchi hamda jinoyat sodir qilishga aloqador shaxsni qidirish bilan bog`liq bo`lgan muddat javobgarlikka tortish muddatiga qo`shilmaydi. Muddatning o`tishi aybdor topilgan yoki u aybini bo`yniga olib, arz qilgan kundan boshlab hisoblanadi. Shunday qilib, muddatga shaxs jinoyat sodir etib, tergov yoki suddan yashiringaniga qadar o`tgan vaqt va ushlangan yoki aybini bo`yniga olib kelganidan keyin o`tgan vaqt kiradi. Agarda bu vaqt umumiy hisoblanganda JKning 64-moddasi 1-qismida ko`rsatilgan muddatlardan oshsa, shaxs jinoiy javobgarlikka tortish muddati o`tganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilinishi shart.

Jinoyat kodeksi 64-moddasi uchinchi qismiga muvofiq, aybdor qo`lga olingan yoki aybiga iqrор bo`lib kelgan vaqtdan boshlab muddat o`tishi tiklanishini ko`zda tutadi.

Javobgarlikka tortish muddati institutining huquqiy tabiati jinoyat sodir etilgan kundan boshlab ma`lum bir vaqtning o`tishi bilan jinoyatni sodir etishda ayblanayotgan shaxsning ijtimoiy xavfliligi yo`qolishidan iboratdir. Aksincha, yangi bir jinoyatning sodir etilishi, shaxsning ijtimoiy xavfliligi davom etayotganligini ko`rsatadi. Ko`pincha bu holatlar qasddan jinoyat sodir etishda ko`riladi, chunki u avval sodir etgan jinoyatini bilgan holda yana qasddan yangi jinoyat sodir qiladi.

Shunday qilib, Jinoyat kodeksining 64-moddasi 4-qismiga muvofiq, “Agar og`ir yoki o`ta og`ir jinoyat sodir etgan shaxs ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlar o`tmasdan qasddan yangi jinoyat sodir etsa, muddatning o`tishi uziladi. Bunday holda javobgarlikka tortish muddatlari yangi jinoyat sodir etilgan kundan boshlab hisoblanadi. Qolgan hollarda, agar shaxs javobgarlikka tortish muddatlari o`tmasdan yangi jinoyat sodir etsa, bu muddatlar har bir jinoyat uchun alohida hisoblanadi”.

Ushbu qism mazmuni adolat va insonparvarlilik g`oyalari bilan boyitilgan bo`lib, unga ko`ra faqat qasddan qilingan jinoyatgagina muddat o`tishi uzilishi, biroq ehtiyotsizlikdan qilingan jinoyatlarga nisbatan bu qoidaning tatbiq etilmasligi shaxsning jinoyat sodir etishga nisbatan ichki hissiyoti inobatga olinganligi bilan e`tiborga molikdir.

JKning 64-moddasi 5-qismida agar ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan yoki uncha og`ir bo`lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab o`n yil, og`ir yoki o`ta og`ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab yigirma besh yil o`tgan bo`lsa, shaxs javobgarlikka tortilishi mumkin emasligi belgilanishi ham huquqiy demokratik davlatimizda insonparvarlilil tamoyilining amaliy ifodasidir.

Javobgarlikka tortish muddatlarining maksimal miqdori Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat kodeksida 30 yil, Belgiya va Argentina Jinoyat kodekslarida 20 yil, Rossiya Jinoyat kodeksida 15 yil etib belgilangan.

JK 64-moddasi 6-qismi bu qoidadan istisnoni mustahkamlaydi. Ushbu normaga muvofiq “Ushbu Kodeks Maxsus qismining moddasida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan, javobgarlikka tortish muddatlarini qo`llash masalasi sud tomonidan hal qilinadi. Agar sud javobgarlikka tortish muddatini qo`llashni lozim topmasa, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi o`rniga ozodlikdan mahrum qilish tayinlanadi”.

Aynan sud javobgarlikdan ozod qilish muddatini qo`llash yoki qo`llamaslik masalasini hal qiladi⁴⁴. Amaldagi qonunga ko`ra, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi berilishi mumkin bo`lgan jinoyatni sodir etgan shaxs, muddati o`tgan-o`tmaganligidan qat`i nazar, har qanday vaqtda jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Muddati o`tganligini qo`llash ana shunday jinoyat sodir etganlikda ayblangan shaxsning 25 yil o`tganidan so`ng jinoiy javobgarlikdan ozod etilishini anglatadi. Agar sud muddati o`tganligini qo`llash imkoni yo`q, deb topsa, u holda umrbod ozodlikdan

⁴⁴O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil 14-noyabrdagi «Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni qo`llashning ayrim masalalari to`g`risida»gi 15-sonli qarori, 8-band.

mahrum qilish jazosi o`rniga ozodlikdan mahrum etish ko`rinishida jazo belgilanishi kerak.

Jinoyat kodeksi 64-moddasining 7-qismi xalqaro huquqning ustuvorligini e`tirof etgan holda jinoiy javobgarlikka tortish muddati o`rganligini qo`llash qoidalaridan istisno bo`lgan hollarni ham belgilab o`tib, ularga muvofiq, ushbu Kodeksning 150-157-moddalarida, 158-moddasining birinchi qismida, 159-moddasining uchinchi va to`rtinchi qismlarida, 160, 161 va 244²-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan qo`llanilmaydi.

Xaqaro huquq me`yorlariga binoan, qilmishning sodir etilish vaqtdan qatiy nazar, javobgarlikka tortish muddati qoidasi harbiy jinoyatchilar, tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyat qilgan shaxslar, urush yoki tinchlik davrida⁴⁵ sodir etilganligidan qatiy nazar, shuningdek, apartend⁴⁶ va genotsid⁴⁷ uchun qo`llanilmaydi. Barcha ko`rsatilgan xalqaro aktlar shunga o`xshash jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish va jazo tayinlashda javobgarlikka tortish muddatlarini hisobga olmaydi.

Shu o`rinda, ushbu moddani tahlil qilishimiz davomida duch kelingan muammo va kamchiliklar yuzasidan fikr-mulohazalarimizni bildirib o`tsak.

Ma`lumki, JKning 64-moddasi 4-qismida og`ir yoki o`ta og`ir jinoyat sodir qilgan shaxs ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlar o`tmasdan qasddan yangi jinoyat sodir qilsa, muddatning uzilishi belgilangan. Biroq bunda aynan og`ir yoki o`ta og`ir jinoyat sodir etgan shaxsning qasddan yangi jinoyat sodir qilishi zaruriy belgi qilib ko`rsatilganda qonunshunos qanaqa asosdan kelib chiqqanligi noma`lum. Maboda shaxs ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan yoki uncha og`ir bo`lmagan jinoyatni sodir

⁴⁵ BMT Bosh Assambleyasining 1968- yil 2391-sonli Rezolutsiyasiga muvofiq qabul qilingan "Harbiy jinoyatlar va insoniyatga qarshi jinoyatlarga nisbatan muddati o`rganlik qoidasi qo`llanilmasligi to`g`risidagi" konvensiya.

⁴⁶ Aparteid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazo belgilash to`g`risidagi 1973-yil 30-noybrda qabul qilingan konvensiya

⁴⁷ Genotsit jinoyatining oldini olish va uning uchun jazo belgilash to`g`risidagi 1948-yil 9-dekabrda qabul qilingan konvensiya.

qilgandan keyin muddat o'tmasdan yangi og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir qilsa, muammo qanday yechilishi masalasi jinoyat qonun hujjatlarida aniq ko'rsatilmagan.

Shuningdek, JKning 64-moddasi 4-qismida muddatning uzilishiga ikki asos bo'lib, birinchisi, shaxs ilgari og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etgan bo'lishi, ikkinchisi, o'sha shaxs muddat o'tmasdan qasddan yangi jinoyat sodir etishi hisoblanadi. Qayd etilganlar ro'y bergan holda javobgarlikka tortish muddati yangi jinoyat sodir qilingan paytdan boshlab hisoblanadi. Ammo jinoyat qonun hujjatlarimizda bu muddatlar qanday tartibda o'tishi aniq bayon qilinmagan.

Shu bilan birga, jinoyatga tayyorgarlik va suiqasd qilinganda, moddiy va formal jinoyatlarda, ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlarda tashkilotchi, dalolatchi, bajaruvchi va yordamchi harakatlarida o'tish muddatining boshlanishi, bir necha jinoyatlar sodir etilganda, davomli, uzoqqa cho'zilgan, takroriy jinoyatlarda muddat o'tishi boshlanishining o'ziga xos tomonlari mavjud bo'lib, ularni ochib berish uchun Oliy sud Plenumi tomonidan tegishli tushuntirishlar berilsa, jinoyatchilikka qarshi kurashda samaradorlikka erishilgan bo'lar edi.

Qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 65-moddasida javobgarlikdan ozod qilishning ikkita bir-biriga yaqin bo'lgan turlari nazarda tutilgan. Ushbu moddaning birinchi qismida ishni tergov qilish yoki sudda ko'rish vaqtida sharoit o'zgarganligi tufayli sodir etilgan qilmish o'zining ijtimoiy xavfliligini yo'qotgan deb topilsa, jinoyat sodir etgan shaxs javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin. Ikkinchi qismida esa ishni tergov qilish yoki sudda ko'rish vaqtida sharoit o'zgarganligi tufayli jinoyat sodir etgan shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotgan deb topilsa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Jinoyat kodeksi 65-moddasi 1-qismida "ishni tergov qilish yoki sudda ko'rish vaqtida sharoit o'zgarganligi tufayli sodir etilgan qilmish o'zining ijtimoiy xavfliligini yo'qotgan deb topilsa, jinoyat sodir etgan shaxs javobgarlikdan ozod qilinishi

mumkin”ligi ko`rasatib o`tilgan. Sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavfliligini yo`qotishiga oid shart-sharoitning o`zgarishi deganda, butun mamlakat yoki alohida hudud miqyosida jamiyat hayot faoliyatining barcha jabhalarida ro`y bergan tub o`zgarishlar nazarda tutiladi.

Shart-sharoit o`zgarishi keng ko`lamli bo`lib, birgina muayyan qilmishning emas, balki shu turdagi barcha qilmishlar ijtimoiy xavfini yo`qotishiga olib kelishi shart. Masalan, mamlakat yoki muayyan mintaqada favqulodda vaziyat bekor qilinganidan so`ng favqulodda yo harbiy vaziyatda jinoyat, deb topilgan barcha qilmishlar o`z ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo`qotadi.

Qilmish sodir etilgan vaqtida jinoyat bo`lib, sharoit o`zgarganligi tufayli ma`muriy yoki intizomiy javobgarlikka tortiladigan qilmish bo`lib qolishi mumkin.

Javobgarlikdan ozod qilishning bu turida jinoyat qonunida o`zgarish yuz berganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishni nazarda tutmaydi, balki jinoyat sodir etilgan vaqtdagiga nisbatan ishni tergov qilish yoki sudda ko`rish vaqtida obyektiv ravishda qilmish o`zining ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo`qotganligi nazarda tutiladi.

JK 65-moddasi birinchi qismining mazmuniga ko`ra, ishni tergov qilish yoki sudda ko`rish vaqtidagina sharoit o`zgarganligi tufayli qilmish o`zining ijtimoiy xavfliligini yo`qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishni nazarda tutadi. Hukm qonuniy kuchga kirib shaxs jazoni o`tash vaqtida sharoit o`zgarib qilmish ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo`qotgan bo`lsa, JKning 65-moddasi asosida shaxsni javobgarlikdan ozod qilish mumkinmi, degan savol tug`iladi. Qonun mazmuniga ko`ra, faqat ishni tergov qilish va sudda ko`rish vaqtida sharoit o`zgarganligi tufayligina javobgarlikdan ozod qilish nazarda tutiladi. Hukm chiqqanidan keyin yoki jazoni o`tash vaqtida sharoit o`zgarganligi tufayli qilmish ijtimoiy xavfliligini yo`qotgan taqdirda O`zbekiston Respublikasi JKning 65-moddasi qoidalarini qo`llab javobgarlikdan ozod qilish mumkin emas. Bunday holda jazodan ozod qilishni nazarda tutuvchi boshqa normalar qo`llanib jazodan ozod qilish mumkin.

Jinoyat kodeksining 65-moddasi 2-qismida “Ishni tergov qilish yoki sudda ko`rish vaqtida sharoit o`zgarganligi tufayli jinoyat sodir etgan shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo`qotgan deb topilsa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin”ligi belgilab qo`yilgan.

Jinoyat sodir etgan shaxs ijtimoiy xavfliligini yo`qotishiga oid sharoitning o`zgarishi tor ma`noda tushuniladi, ya`ni bu shaxsning jinoyatni sodir etgan va undan keyingi vaqtdagi hayoti va faoliyati shart-sharoitlariga bog`liq. Ko`pincha amaliyotda shunga o`xshash sharoitning o`zgarishiga jinoyat sodir etgan shaxsning armiyaga xizmatga chaqiruvi, uning ishga yoki o`qishga kirishi, jinoyat sodir etganligi, oilaviy munosabatlarning yaxshilanishi yoki aybdorning og`ir kasalligi tufayli mansabdan ketishi sabab bo`ladi. Jinoyat sodir etgan shaxs ijtimoiy xavfliligini yo`qotganligi haqida nafaqat uning hayotining obyektiv sharoitlari, balki uning sodir etilgan jinoyatdan keyingi xulqi hamda uning namunali xulqi, kasbiy va ijtimoiy majburiyatlariga munosabati va hatto uning axloqi guvohlik qiladi. Agar aybdor o`n oltiga kirmagan shaxs bilan jinsiy aloqaga kirgan, lekin oqibatda u bilan turmush qurish uchun ro`yxatdan o`tib va to`liq oila qurgan bo`lsa, shaxs ijtimoiy xavfliligi yo`qotilishiga sabab bo`lgan sharoitlar o`zgarganligi tufayli uni javobgarlikdan ozod qilish masalasini ko`rib chiqish shart.

Sharoitning o`zgarishi ishni tergov qilish yoki sudda ko`rish vaqtida qilmishi yoki shaxsning ijtimoiy xavfliligini yo`qotganligi dastlabki tergov harakatlari endi boshlanganda, ishni sudda muhokama qilish vaqtida yoki ishni sudda ko`rishning keyingi bosqichlarida yuz berishi mumkin.

Agar shaxs o`zini O`zbekiston Respublikasi JKning 65-moddasi asosida javobgarlikdan ozod qilinishiga norozi bo`lsa, u javobgarlikdan ozod qilinmay, jinoyat ishini tergov qilish yoki sudda ko`rish davom ettiriladi va oqlov hukmi yoki ayblov hukmi chiqariladi. Shaxs JKning 65-moddasi asosida javobgarlikdan ozod qilinarkan, ozod qilinganga nisbatan qonunda belgilangan biron bir shart yoki cheklash qo`llanilmaydi.

Aybdor o`z qilmishiga amalda pushaymon bo`lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish.

O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 66-moddasiga muvofiq, ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan yoki uncha og`ir bo`lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u aybini bo`yniga olish to`g`risida arz qilgan, chin ko`ngildan pushaymon bo`lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo`lsa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning bu turi jinoyat qonunchiligimizda yangi institut bo`lib, 1959-yilda qabul qilingan O`zbekiston SSR Jinoyat kodeksida javobgarlikdan ozod qilishning bu turi nazarda tutilmagan edi.

Jinoyat kodeksining 66-moddasida aybdor o`z qilmishiga amalda pushaymon bo`lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishning asoslari ko`rsatib o`tilgan bo`lib, bular quyidagilardan iborat:

- 1) ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan yoki uncha og`ir bo`lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etganligi;
- 2) huquqni muhofaza qilish organlariga aybini bo`yniga olish to`g`risida arz qilganligi va qilmishiga chin ko`ngildan pushaymon bo`lganligi;
- 3) jinoyatning ochilishiga faol yordam berganligi va keltirilgan zararni bartaraf qilganligi.

Shuningdek, *O`zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasi beshinchi qismining 2-bandiga* binoan, ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan yoki uncha og`ir bo`lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs aybini bo`yniga olish to`g`risida arz qilgan, chin ko`ngildan pushaymon bo`lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo`lsa, jinoyat ishi shaxsning roziligi bilan uning aybliligi haqidagi masalani hal qilmay turib tugatilishi mumkin.

Ta`kidlash joizki, shaxs og`ir yoki o`ta og`ir jinoyat sodir qilgan hollarda uning amalda pushaymon bo`lishiga Jkning 66-moddasini qo`llanilmaydi. Bunday hollarda, Jkning 55-moddasi 1-qismi “a” bandiga asosan, shaxsning aybini bo`yniga olish

to'g'risida arz qilishi, jinoyatni ochishda faol yordamlashishi, yetkazilgan zararni o'rnini qoplashga qaratilgan harakatlarini qonun jazoni yengillashtiruvchi holatlar deb topadi.

JKning 66-moddasi 2-qismiga muvofiq, "Ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida alohida ko'rsatilgan hollarda, jinoyat sodir etgan shaxs o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lgan taqdirda javobgarlikdan ozod qilinishi lozim". Ta'kilash joizki, JKning 66-moddasi 2-qismida ko'zda tutilgan holatlar Jinoyat koeksining 155-moddasi (terrorizm) to'rtinchi qismi, 157-moddaning (davlatga xoinlik qilish) ikkinchi qismi, 160-moddaning (josuslik) ikkinchi qismi, 211-moddaning (pora berish) to'rtinchi qismi, pora olish-berishda vositachilik qilish (212-modda) va boshqa shu kabi javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalarda o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasi birinchi qismining 8-bandiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida shaxsning o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi tufayli yoxud belgilangan muddat ichida yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplanganligi va (yoki) jinoyat oqibatlari bartaraf etilganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilinishi nazarda tutilgan bo'lsa, shaxsning jinoyat sodir etilishida aybliligi to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishi tugatilishi lozim.

Yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish.

Barchamizga ma'lumki, 2001-yil 29-avgustdagi "Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun bilan Jinoyat kodeksi 66¹-modda bilan to'ldirilib, amaliyotga yarashganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish instituti joriy etildi.

Yarashuv instituti joriy etilganidan buyon shu kunga qadar **18** moddada nazarda tutilgan **28** ta jinoyat tarkibi bilan kengaytirilib, hozirgi kunda **44** ta moddada nazarda

tutilgan 60 ta jinoyat tarkibi bo'yicha yarashuv institutini qo'llash imkoniyati mavjudligining o'zi, bu institut naqadar muhim ekanligini ko'rsatib beradi.

Aytish kerakki, ushbu institut jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning bir turi bo'lib, shaxsning aybdorlik masalasini hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish uchun asos bo'ladi.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun asos sifatida yarashuvning qo'llanilishi – aybdor va jabrlanuvchining o'zaro kelishishi masalasidir. Yarashuv tomonlarning erkin xohish-istaklari va majburlovsiz amalga oshirilishi kerak. Bu esa, jabrlanuvchi tomonidan aybdorni kechirishi hamda shaxsni qilmishi uchun jinoiy javobgarlikka tortilishini istamaslikda namoyon bo'ladi. O'z navbatida, aybdordan ham o'z aybini tan olib, yetkazilgan zararni qoplash talab qilinadi, agar jabrlanuvchi aybdor tomonidan yetkazilgan zarardan voz kechmagan bo'lsa.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qaroriga binoan, "yarashuv to'g'risidagi ariza har doim yozma shaklda taqdim etilib, unda jinoyat natijasida yetkazilgan zarar bartaraf etilganligi (yoki jabrlanuvchining zarardan voz kechganligi) va yarashilganligi munosabati bilan jinoyat ishini tugatish haqidagi iltimos ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Yarashuv to'g'risida ish yuritish masalasini qo'zg'atish huquqiga qonunda belgilangan tartibda jabrlanuvchi (fuqaroviy da'vogar) deb topilgan shaxs yoki uning qonuniy vakili egadir. Jabrlanuvchi bilan ayni bir vaqtning o'zida ishda fuqaroviy da'vogar ham qatnashgan hollarda yarashuv to'g'risida ish yuritishni boshlash uchun ham jabrlanuvchi, ham fuqaroviy da'vogar tomonidan tegishli ariza berilgan bo'lishi shart.

Ish bo'yicha bir gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va bir necha jabrlanuvchi bo'lgan hollar uchun ham qonunda aynan shunday talablar belgilangan. Jabrlanuvchilarning hatto birortasidan tegishli ariza bo'lmagan hollarda yarashuv

to`g`risida ish yuritish mumkin emas. Bunday holda jinoyat ishi bo`yicha ish yuritish umumiy asoslarda olib boriladi”⁴⁸.

Shu bilan bir vaqtda, ish bo`yicha bir jabrlanuvchi va bir necha gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchilar bo`lgan taqdirda ham qonun jabrlanuvchining ulardan ayrimlari yarashuvga kelishi mumkinligini e`tirof etadi. Bunday hollarda ishning jabrlanuvchi yarashuvga kelgan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchilarga oid qismi alohida ish yurituvga ajratilib, JPKning 584-moddasi tartibida sudga yuboriladi, qolganlarga doir qismi bo`yicha esa, ish yuritish umumiy asoslarda olib boriladi.

Yarashuv o`zining mazmuni bo`yicha amalda pushaymon bo`lish bilan o`xshash bo`lib, u bilan bir xil belgilarga ega. Ammo amalda pushaymon bo`lishdan farqli o`laroq, yarashuvda yetkazilgan zararni qoplash va zarar yetkazilgan jabrlanuvchi tomonidan kechirilishni talab qiladi, lekin amalda pushaymon bo`lishda bu rol dastlabki tergov organlari va sudga tegishli. Formal nuqtai nazardan amalda pushaymon bo`lishning shartlari aniq ko`rsatilgan va ularning hatto bittasining yo`qligi ushbu asosni qo`llashga yo`l qo`ymaydi. Yarashuvda jabrlangan shaxs bilan aybdor shaxs o`rtasida zararni qoplash haqida kelishilmagan bo`lsa va tomonlar shunga rozi bo`lgan vaziyatlar javobgarlikdan ozod qilishga xalaqit bermaydi.

Ta`kidlash joizki, aybdorning va jabrlanuvchining yarashuvini qonuniy va ixtiyoriy harakat, deb hisoblash uchun ma'lum bir shartlar bo`lishi kerak:

- Jinoyat kodeksining 66¹-moddasida ko`rsatilgan jinoyatlardan birining sodir etilganligi;
- aybiga iqror bo`lish;
- jabrlanuvchi bilan yarashish;
- yetkazilgan zararining qoplanishi (jabrlanuvchi yetkazilgan zarardan voz kechgan hollatlar bundan mustasno);

⁴⁸ O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002-yil 25-oktyabrdagi «Yarashuv to`g`risidagi ishlar bo`yicha sud amaliyoti haqida»gi 27-sonli qarori, 2-band, 2–5-xatboshilari // To`plam, 2-jild. 126–127-b.

– og`ir va o`ta og`ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holatining yo`qligi.

Amaldagi qonunchilikning tahlili shuni ko`rsatadiki, Jkning 66¹-moddadasi 1-qismida ko`rsatilgan jinoyat tarkiblari ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan va uncha og`ir bo`lmagan jinoyatlar toifasiga kiradi. Ko`rsatilgan normadagi jinoyatlar ro`yxati “tugal va kengaytirib talqin etilishi mumkin emas”⁴⁹.

Oliy sud tushuntirishlariga ko`ra, agar shaxs bir nechta jinoyat sodir etgan bo`lib, ulardan biri Jinoyat kodeksi 66¹-moddasida ko`rsatilgan bo`lsa, ishning shu qismi Jinoyat-protsessual kodeksining 62-bobida belgilangan tartibda tugatilishi mumkin, lekin bu tartib takroriylik belgisini beradigan jinoyatlarga tatbiq etilmaydi.

Aybiga iqrор bo`lish va zararni qoplash o`zida jabrlanuvchi bilan yarashish maqsadini olgan harakatlardan iboratdir.

Yarashuv – jabrlanuvchining afv etishigina emas, balki uning aybdorga nisbatan o`z dastlabki talab va da`volaridan rasmiy ravishda voz kechishini anglatadi. U jinoyatni sodir etgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish iltimosidan voz kechish (agar yarashuv jinoiy ish qo`zg`atilishidan avval yuz bergan bo`lsa) yoki uning arizasiga ko`ra qo`zg`atilgan jinoyat ishini tugatishni so`rab berilgan arizadan iborat bo`ladi. Yarashuv akti jinoyat-protsessual qonun hujatlari talablariga muvofiq, bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Jabrlanuvchi bilan yarashuv aybiga iqrор bo`lmasdan ro`y berishi mumkin emas.

Yetkazilgan zararni qoplash inson hayoti va sog`lig`iga tajovuz paytida salomatlikka yetkazilgan mulkiy zarar o`rnini to`ldirishdan, shuningdek ma`naviy zararni qoplashdan iborat bo`ladi.

Aybdorning og`ir yoki o`ta og`ir jinoyati uchun sudlanganlik holati yo`qligi, shu shaxsni avval og`ir yoki o`ta og`ir jinoyati uchun sudlanmagan yoki sudlangan, lekin sudlanganlik qonuniy tartibda olib tashlangan yoki muddati tugallangan bo`lishini

⁴⁹ O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002 yil 25 oktyabrdagi «Yarashuv to`g`risidagi ishlar bo`yicha sud amaliyoti haqida»gi 27-sonli qarori, 1-band, 2-xatboshi // To`plam, 2-jild. – 126-b.

anglatadi. Bundan tashqari, qonunning o`zgarganligi tufayli jinoyat, deb hisoblanmaydigan qilmishi uchun jazo o`tagan shaxs sudlangan hisoblanmaydi. Shunday qilib, JKning 66¹-moddasi 2-qismiga binoan, “Og`ir yoki o`ta og`ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi”. Qonunning o`zgarganligi sababli jinoyat deb hisoblanmaydigan qilmish uchun jazo o`tagan shaxs sudlangan hisoblanmaydi.

Jinoyat sodir etgan shaxsning jabrlanuvchi bilan yarashganligi munosabati bilan jinoyat ishini tugatish to`g`risidagi (yoki jinoyat ishini qo`zg`atishni rad etish) qaror surishtiruv organi yoki tergovchi tomonidan prokurorning roziligi bilan, shuningdek prokuror tomonidan dastlabki tergovning barcha bosqichida, sud (sudya) tomonidan esa, sudning (sudyaning) hukm e`lon qilish uchun maslahat xonasiga kirishdan oldin sud muhokamasining har qanday vaqtida ajrim shaklida qabul qilinishi mumkin⁵⁰.

Shu o`rinda, yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutiga oid qonunchiligimizdagi mavjud muammo va kamchiliklarga to`xtalib o`tsak.

Ma`lumki, O`zbekiston Respublikasining O`zbekiston Respublikasi JPKning 583-moddasida yarashuv to`g`risidagi ariza jabrlanuvchi (fuqaroviy da`vogari) yoxud uning qonuniy vakili tomonidan surishtiruv va dastlabki tergovning, shuningdek sud muhokamasining istalgan bosqichida, ammo sud maslahatxonaga kirishdan oldin berilishi mumkinligi qat`iy belgilab qo`yilgan.

Biroq, amaliyotda birinchi bosqich sudi JKning 66¹-moddasi ko`rsatilgan jinoyatlar toifasiga kiritilgan ishlarni ko`rish jarayonida taraflardan yarashuv haqidagi ariza kelib tushmagan taqdirda ish yuzasidan ayblov hukmi chiqarilgandan so`ng, taraflardan yarashuv haqidagi arizalar kelib tushishi hollari ko`plab uchramoqda.

⁵⁰ O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002 yil 25 oktyabrdagi «Yarashuv to`g`risidagi ishlar bo`yicha sud amaliyoti haqida»gi 27-sonli qarori, 3-band // To`plam, 2-jild. – 127-b.

Bundan tashqari, Qonunchiligimizda sud ishini ko`rib chiqib, aybdorning harakatlarini yarashuv instituti doirasiga tushadigan Jinoyat kodeksi Maxsus qismining moddasiga o`zgartirgan hollarda unga nisbatan JKning 66¹-moddasini qo`llash imkoniyati mavjud emas edi.

Muhtaram Prezidentimizning 2020-yil 10-avgustdagi “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmoniga muvofiq, shaxsga e`lon qilingan ayblovlar, jinoyat ishi sudning qaysi instantsiyasida ko`rilayotganligidan qat`iy nazar, yarashuv instituti doirasiga tushadigan O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining moddasi yoki qismiga o`zgartirilgan hollarda yarashuv institutini qo`llash tartibini joriy qilish bo`yicha qonunchilikka o`zgartirish kiritish mutloq qo`shilamiz.

Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 66¹-moddasida og`ir yoki o`ta og`ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmasligi belgilangan. Biroq, amaliyotda og`ir yoki o`ta og`ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar ushbu moddalarda nazarda tutilgan jinoyatlarni ehtiyotsizlik natijasida sodir qilgan va aybiga iqror bo`lib, jabrlanuvchi bilan yarashib, yetkazilgan zararni to`liq qoplagan taqdirda ham jinoiy javobgarlikka tortilmoqda.

Yuqorida qayd etilgan Farmonda og`ir yoki o`ta og`ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod etilmasligiga oid qoida voyaga yetmaganlar, birinchi va ikkinchi guruh nogironlari, ayollar, oltmish yoshdan oshgan erkaklar va ehtiyotsizlik orqasida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo`llanilmasligi haqidagi tartib o`rnatiladi. Farmondagi ushbu takliflarga qisman qo`shilaman. Bizningcha, ushbu normani yanada leberallashtirilsa maqsadga muvofiq bo`lardi. Ya`ni, Jkning 66¹-moddasi oxirgi qismida nazarda tutilgan norma quyidagicha bayon qilinsa maqsadga muvofiq bo`lardi: “o`ta og`ir jinoyatlarni sodir

etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi, o`n sakkiz yoshga to`lmagan shaxslar, birinchi va ikkinchi guruh nogironlari, ayollar, shuningdek oltmish yoshdan oshgan erkaklar hamda ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatlarni ehtiyotsizlik orqasida sodir etgan shaxslar bundan mustasno”.

Xulosa qilib aytganda, jinoyat qonunchiligiga yarashuv instituti xalqimizga xos bag`rikenglik, kechirimlilik kabi oliyjanob qadriyatlarining amaliy ifodasi bo`lib, ushbu institutni yanada takomillashtirib borish ayni muddaodir.

Kasallik tufayli jinoiy javobgarlikdan ozod qilish:

O`zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 67-moddasiga muvofiq, agar jinoyat sodir etgan shaxsda hukm chiqarilguniga qadar o`z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan tarzda ruhiy holatning buzilishi yuzaga kelgan bo`lsa, u javobgarlikdan ozod qilinadi.

Jinoyat sodir etgan shaxsning jinoyat sodir etish vaqtida aqli raso bo`lib, hukm chiqarilgunga qadar ruhiy kasallikka chalinib, aqli noraso bo`lib qolgan taqdirda uni jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi jinoyat qonunining insonparvarlik prinsiplaridan biri hisoblanadi.

O`zR JKning 67-moddasi faqat jinoyat sodir etish paytida aqli raso bo`lib, ushbu jinoyat yuzasidan surishtiruv, dastlabki tergov olib borish yoki ishni sudda ko`rish vaqtida aqli noraso bo`lgan shaxslarga nisbatangina tadbiiq etiladi. Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir qilish vaqtida aqli noraso bo`lgan shaxsning qilmishi jinoyat hisoblanmaganligi tufayli ularga nisbatan JK 67-moddasining qoidalarini qo`llab jinoiy javobgarlikdan ozod qilish qoidalari qo`llanmaydi, balki JK 18-moddasining uchinchi qismi qoidalari asosida tibbiy yo`sindagi majburlov choralari qo`llanishi mumkin.

Hukm qonuniy kuchga kirganidan keyin ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan O`zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 181-moddasida nazarda tutilgan qoidalari asosida tibbiy yo`sindagi majburlov choralari qo`llanadi.

Demak, O`zR JKning 67-moddasi faqat jinoyat sodir qilish paytida aqli raso bo`lib, ushbu jinoyat yuzasidan surishtiruv, dastlabki tergov va ishni sudda ko`rish, ya`ni hukm chiqirilgunga qadar ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatangina qo`llanadi. Qonunda ruhiy kasalliklardan boshqa turdagi kasallikka chalingan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish nazarda tutilmagan.

O`zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasining uchinchi qismiga muvofiq, jinoyat sodir etganidan keyin ruhiy holatining o`z harakatlari ahamiyatini anglay olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan darajada buzilishi yuzaga kelgan shaxs to`g`risidagi jinoyat ishi belgilangan tartibda aybdorlik haqidagi masala hal qilinmasdan tugatiladi.

Agarda jinoyat sodir qilgan shaxs ruhiy kasallikdan boshqa og`ir kasallikka chalinib qolsa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish masalasi qo`llanmaydi. Bunday holda O`zR JPK ning 366-moddasida nazarda tutilgan ayblanuvchi ishni yuritishda uning ishtirok etishini istisno etadigan og`ir va davomli, lekin davolab bo`ladigan kasallikka chalingan hollarda mazkur ish yuzasidan ish yuritish to`xtatiladi. Davolanganidan keyingina unga nisbatan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish (agar bunga asoslar mavjud bo`lsa, JK 65, 66, 661-moddalari asosida) yoki jinoiy jazo tayinlash masalalari qo`yilishi mumkin.

Jinoyat sodir qilgan shaxs uning ustidan sud hukmi chiqarilganiga qadar kasal bo`lib qolsa, unga nisbatan sud tomonidan majburlov choralari qo`llanilishi mumkin⁵¹.

Shuningdek, agar jinoyat qilgan shaxs hukm chiqarilguniga qadar kasal bo`lib qolgan bo`lib, javobgarlikdan ozod qilingan bo`lsa va u JKning 64-moddasida nazarda tutilgan muddatlar o`tgandan keyin tuzalsa uni javobgarlikdan ozod qilish sudning majburiyati hisoblanadi. Ammo Jinoyat Kodeksining 67-moddasi 3-qismiga muvofiq, Bunday shaxs ushbu Kodeksning 64-moddasida nazarda tutilgan muddatlar o`tmasdan

⁵¹ O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – T.: “Adolat”, 2021-yil, 67-modda.

tuzalsa, javobgarlikka tortiladi. Bunday holda javobgarlikka tortish muddatlari sud tomonidan tibbiy yo`sidagi majburlov chorasi qo`llanilgan kundan hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasi JKning 64-moddasiga ko`ra, jinoiy javobgarlikka tortish muddatlari jinoyat sodir etilgan kundan boshlanadi. Ammo JK 67-moddasi asosida tibbiy yo`sidagi majburlov choralari qo`llanilgan shaxsga nisbatan javobgarlikka tortish muddatlari sud tomonidan tibbiy yo`sidagi majburlov chorasi qo`llanilgan kundan hisoblanadi. Bunday holat boshqa xuddi shunday jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan tibbiy yo`sidagi majburlov chorasi qo`llanilgan shaxsga nisbatan javobgarlikka tortish muddatlari sud tomonidan tibbiy yo`sidagi majburlov chorasi qo`llanilgan kundan hisoblanadi. Bunday holat boshqa xuddi shunday jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan tibbiy yo`sidagi majburlov chorasi qo`llanilgan shaxsning ahvolini ma`lum darajada og`irlashtiradi. Chunki javobgarlikka tortish muddatlarini 67-moddada belgilangan tartibda hisoblash, avvalo, JK 64-moddasi talablariga xilof bo`lsa, ikkinchi tomondan, jinoiy javobgarlikka tortish muddatlarini sun`iy ravishda uzaytirib yuboradi.

Amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish.

Amnistiya akti huquq tizimida o`ziga xos institut bo`lib, u o`z mazmun-mohiyatiga ko`ra, jinoyat sodir etgan yoki jazoni o`tayotgan shaxslarga nisbatan davlat tomonidan ko`rsatiladigan insonparvarlilik, muruvat ifodasi hisoblanadi. Shu jihatdan olib qaraganda, amnistiya reabilitatsiya, ya`ni oqlash emas, balki mehr-shafqat ko`rsatishdir. Amnistiya tushunchasi lotinchadan olingan bo`lib, “unutish”, “kechirish” degan ma`nolarni bildiradi.

O`zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 68-moddasida jinoyat sodir etgan shaxs amnistiya akti asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinligi belgilangann.

O`zbekiston Respublikas Prezidenti O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasining 23-bandiga binoan amnistiya to`g`risidagi

hujjatlarni qabul qilish haqida O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnoma kiritadi.

Shuningdek, Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasi 1-qism 2-bandiga muvofiq e`lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo`lsa, shaxsning jinoyat sodir etilishida aybliligi to`g`risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishi tugatilishi lozim.

Amnistiya akti muayyan jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi jinoyat qonuni normalarini bekor qilmagan holda muayyan turkumdagi shaxslarning yoki muayyan turkumdagi jinoyat sodir qilgan shaxslarning gunohidan kechib, javobgarlik yoki jazodan ozod qilishdan iboratdir.

Amnistiya akti orqali javobgarlikdan ozod qilish asosan ikkita holatni qamrab oladi:

birinchidan, jinoyat ishi hali sudda ko`rilmagan, hali shaxsning jinoyatda aybli ekanligi ko`rib chiqilmagan;

ikkinchidan, hali jazo tayinlash masalasi hal qilinmagan bo`lsa, amnistiya akti orqali javobgarlikdan ozod qilish masalasi qo`yiladi⁵² (JKning 68-moddasi).

Takidlash joizki, amnistiya akti keng doiradagi jinoyat sodir qilishda ayblanayotgan yoki jazoni o`tayotgan muayyan turkumdagi keng doiradagi shaxslarga nisbatan chiqariladi. Amnistiya akti keng doiradagi shaxslarga nisbatan chiqarilsada, amalda esa har bir shaxsga nisbatan alohida-alohida qo`llanadi. Demak, amnistiya akti normativ xususiyatga ega bo`lib, amnistiya qilinadigan shaxslarning ismi, sharifi ko`rsatilmay, muayyan turkumda jinoyat sodir qilgan guruhdagi shaxslarga yoki jinoyat sodir qilgan guruhdagi shaxslarga yoki ijtimoiy xavfliligi hisobga olingan jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan chiqarilganligi amnistiya aktida ko`rsatiladi.

⁵² M. Usmonaliev. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o`quv yurtlari uchun darslik. —T., «Yangi asr avlodi», 2010, 536-bet.

Umumiy qoidaga ko`ra, amnistiya akti chiqqan kungacha sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan qo`llanadi yoki amnistiya aktida ko`rsatilgan vaqtgacha sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan qo`llanishi mumkin.

Bundan tashqari, amnistiya akti umumiy tarzda chiqarilib, amalda alohida-alohida qo`llanganligi tufayli amnistiya aktigacha jinoyat sodir qilib, tergovdan, suddan yoki jazoni o`tashdan qochib ketgan bo`lsalar, amnistiya aktigacha qilmishiga pushaymon bo`lib, kelsalar, amnistiya aktini qo`llab javobgarlikdan ozod qilish mumkin.

Agar amnistiya aktida yoki uni qo`llash tartibi to`g`risidagi Nizomda boshqacha holat nazarda tutilgan bo`lmasa, amnistiya akti muqaddam amnistiya aktiga muvofiq jinoyat ishi qo`zg`atilishi rad etilgan yoki amnistiya aktiga asosan jinoiy javobgarlikdan yoxud jazodan ozod etilgan va amnistiya akti qo`llanilgandan so`ng qasddan yangi jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan qo`llanilmaydi.

Jinoyat kodeksi Umumiy qismi normalariga muvofiq, amnistiya akti shaxs muqaddam amnistiya aktiga asosan jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod etilgan-etilmaganligidan qat`i nazar, quyidagi hollarda qo`llanilishi mumkin, agar:

jinoyat qonuni o`zgarishi natijasida shaxs muqaddam jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod etilgan qilmish jinoyat deb hisoblanmay qolgan bo`lsa;

amnistiya akti qo`llanilgan paytdan boshlab shaxs amnistiya aktiga asosan jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod etilgan jinoyat uchun qonunda belgilangan jinoiy javobgarlikka tortish muddatlariga teng vaqt o`tgan bo`lsa (agar amnistiya aktida boshqacha holat nazarda tutilgan bo`lmasa);

shaxs muqaddam boshqa davlat (shu jumladan, sobiq SSSR)ning amnistiya aktiga asosan jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod etilgan bo`lib, O`zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida va amnistiya aktida boshqa holat nazarda tutilmagan bo`lsa.

Shuningdek, Jinoyat-protsessual kodeksi 23-moddasining uchinchi qismiga muvofiq, agar tekshirish natijalari bo`yicha shaxsga nisbatan o`tmishda

amnistiya akti qo'llanilganligi to'g'risida ma'lumot to'plash imkoni bo'lmasa, amnistiya akti qo'llanilishi shart⁵³.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 22-dekabrdagi 16-sonli "Sudlar tomonidan amnistiya aktlarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori, 9-bandiga binoan, davomli yoki uzoqqa cho'zilgan jinoyatlarni sodir qilgan shaxslarga nisbatan amnistiya aktini qo'llashning o'ziga xos xususiyati shundaki, davomli jinoyatlarda amnistiya akti chiqqan kungacha yoki amnistiya aktida ko'rsatilgan kungacha jinoiy harakatini to'xtagan bo'lishi kerak. Uzoqqa cho'zilgan jinoyatni sodir qilgan shaxslar esa jinoiy faoliyatini to'xtatgan bo'lishi kerak.

Amnistiya o'ldirish qonun hujjatlarini va sud amaliyotini o'rganish jarayonida ba'zi bir muammolarga duch keldikki, ular yuzasidan fikr bildirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ma'lumki, Jinoyat qonunchiligimizda amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilishning ma'lum bir chegarasi belgilanmagan, ya'ni shaxs amnistiya akti asosida Jinoyat Kodeksining maxsus qismida nazarda tutilgan qaysi jinoyat turini sodir qilsa ham javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin. Bu degani, o'ta og'ir jinoyatni sodir qilgan shaxslar ham amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinligini anglatadi. Holbuki, jinoyatchi o'z aybiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lmagan, yetkazilgan zararni qoplama bo'lishi mumkin. Bu esa kelajakda o'sha shaxs tomonidan yana yangi jinoyatlar sodir etilishiga zamin yaratib bermasligiga kim kafolat bera oladi. Shu sababli, amnistiya aktini o'ta og'ir jinoyatlarni sodir qilgan shaxslarga va odam o'limi bilan yakunlangan og'ir va ehtiyotsizlik orqasidan sodir qilingan jinoyatlarga nisbatan qo'llanilmasligi maqsadga muvofiq bo'lardi.

Shunday qilib, amnistiya akti orqali jinoiy javobgarlikdan ozod qilish shaxsning jinoyatini bekor qilish yoki oqlash orqali jinoiy javobgarlikdan ozod qilish bo'lmay,

⁵³ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 22-dekabrdagi 16-sonli "Sudlar tomonidan amnistiya aktlarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi [qarori](#), 8-band.

balki aybdorni davlat tomonidan gunohidan kechib, unga yana bir bor imkoniyat berib, uni jinoiy javobgarlikdan ozod qilishdan iborat.

§ 2.2. Jinoyat kodeksi Maxsus qismi ayrim moddalarida nazarda tutilgan javobgarlikdan ozod qilishning o`ziga xos xususiyatlari.

Ma'lumki, Jinoyat Kodeksi umumiy va maxsus qismlardan tashkil topgan bo`lib, umumiy qismda barcha turdagi yoxud mutlaq ko`pchilik jinoyatlarga tatbiq etiladigan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni nazarda tutgan moddalar belgilangan.

Jinoyat Kodeksining Umumiy qismidagi shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish bilan bog`liq barcha moddalar Maxsus qismdagi jinoyatlardan biri sodir etilganda, qonunda ko`rsatilgan asoslarga ko`ra, aybdorning jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishida universal xususiyat kasb etadi. Masalan, JKning 66¹-moddasi dispozitsiyasida belgilangan asoslarga ko`ra, shaxs o`z aybiga iqror bo`lsa, jabrlanuvchi bilan yarashsa va yetkazilgan zararni bartaraf etsa, yarashuv instituti Maxsus qismning 53 ta moddasida ko`rsatilgan jinoyat sodir etilganda ulardan har biriga nisbatan qo`llanilishi mumkin.

Ammo Jinoyat Kodeksi Maxsus qismidagi jinoiy javobgarlikdan ozod qilish normalari, aynan shu modda mazmunidan kelib chiqib faqat shu moddaga nisbatan tatbiq etilishi xususiyati bilan, shuningdek, asosan, og`ir yoki o`ta og`ir jinoyatlar sodir etilishiga bog`liqligi bilan Umumiy qismdagi jinoiy javobgarlikdan ozod qilish normalaridan farq qiladi.

Jinoyat kodeksi Maxsus qismining ayrim moddalarida rag`batlantiruvchi qismlar berilgan bo`lib, muayyan shartlar asosida shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish mumkinligi nazarda tutilgan. Jumladan, **122, 123, 155, 155², 155³, 157, 160, 178, 180, 181, 181¹, 184, 185², 188, 189, 190, 192², 190, 211, 212, 213, 223, 244², 248-moddalari.**

Sobiq sho`rolar Jinoyat kodeksining Maxsus qismi ba`zi moddalari tarkibida ham jinoiy javobgarlikdan ozod qilish nazarda tutilgan normalar mavjud bo`lgan. Jumladan, 54-moddaning 2-qismida SSSRga qarshi dushmanlik faoliyati yurgizish uchun chet el razvedkasiga yollangan SSSR fuqarosi, agarda u topshirgan jinoiy

vazifani ado etish yo`lida hech qanday harakat qilmasdan o`zining chet el razvedkasi bilan aloqasi borligini o`z ixtiyori bilan hokimiyat organlariga ma`lum qilsa, jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi belgilangan edi.

Shuningdek, O`zSSR Jinoyat kodeksining 147¹-moddasi 3-qismi dispozitsiyasida ta`kidlanganidek, ushbu moddaning 2-qismida ko`rsatilgan shaxslarnig harakatlari yoki shu harakatlarni qilgan shaxslarning o`zlari jamoat uchun uncha xavli bo`lmasa, ularga nisbatan jamoat ta`siri choralari qo`llash mumkin. Bundan tashqari, JKning 153-moddasi 3-qismiga binan, agar shaxsni tovlamachilik bilan pora berishga ko`ndirilgan bo`lsa yoki shu shaxs pora bergandan keyin bu haqda o`z ixtiyori bilan kelib aytsa, u holda bunday shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi, ammo JKning Maxsus qismining birorta ham moddasida bunday qilmishlar uchun jazodan ozod qilish nazarda tutilmagan edi.

O`zSSR Jkdan amaldagi JK o`zining insonparvarlilik g`oyalarini etgani bilan tubdan farq qilib, unda shaxsni jinoiy javobgarlikdan hamda jazodan ozod qilish normalari keng tatbiq etilishi hamda og`ir, shuningdek, o`ta og`ir jinoyatlarning oldini olish maqsadida fuqarolarga keng imkoniyatlar berilib, ularni jinoyat yo`lidan qaytarish maqsadida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish kafolatlari kuchaytirilgan.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish normalarining JKning Umumiy va Maxsus qisimlarida belgilashning o`ziga xos xususiyatlari bo`lib, bu to`g`rida L.V. Golovka, N.E. Krilova, Y.M. Tkachevskiy kabi olimlarning fikricha, jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning maxsus turlarga bo`lishning asosi bo`lib, JK Maxsus qismida belgilangan konkret jinoyat tarkibi hisoblanadi⁵⁴.

V.P. Konyaxin, Y.E. Pudovochkin, C.C. Pirvagidov kabi olimlarning firriga ko`ra, jinoiy javobgarlikdan ozod etishning asosi etib, JK tuzilishining belgilanishi yetarli emas, balki Jkga qo`shimcha va o`zgartirish kiritishni nazarda tutuvchi qonunlar

⁵⁴ Головки Л. Классификация оснований освобождения от уголовной ответственности // Законность. 1998. №11. С. 37-38

tuzilishini ham inobatga olish lozim⁵⁵. Bu olimlarning fikrlari bir-birlariga qarama-qarshi bo`lmay, aksincha ular bir-birni to`ldiradi.

Bizning fikrimizcha, Umumiy qismdagi normalardan farqli ravishda Maxsus qism normalari bir qator o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lib, bular, birinchidan, Umumiy qismdagi jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni nazarda tutuvchi normalar jinoyat sodir etilguniga qadar (*155-m 4-q, 157-m 2-q, 160-m 2-q*) yoki jinoyat sodir etilgandan keyingi (*122-m 3-q, 123-m 2-q, 155²-m 3-q, 155³-m 3-q, 178-m 3-q, 180, 181, 181¹, 184, 185², 188, 189, 190, 192², 211, 212, 213, 223, 244², 248*) aybdorni xulq-atvorini rag`batlantirishni nazarda tutadi. Ikkinchidan, Maxsus qismning rag`batlantiruvchi normalarini amalga oshirishda qandaydir fakultativlikka xos emas, chunki ular Maxsus qismdagi moddalarning bevosita tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu esa qonunni qo`llovchilarning ularga ko`proq e`tibor qaratishlariga olib keladi. Zero, ularda nazarda tutilgan subyektning ijobiy xulqini tashkil etuvchi asoslar va shartlarni aniqlash ikkinchi darajali yoki qo`shimcha xususiyatga ega bo`lmay, doim hisobga olishni taqoza etadi. JKning maxsus qismidagi normalarning ushbu xususiyati ularning ko`p hollarda qo`llanishi uchun ijobiy ta`sir etadi va shu sababli maxsus rag`batlantiruvchi normalar har doim umumiysiga qaraganda samaraliroq hisoblanadi. Mazkur holat, uning ijobiy imkoniyatlarini inobatga olgan holda JKning maxsus qismida rag`batlantiruvchi normalar ko`payishini bashorat qilishga imkon beradi. Bu normalarning mazmuni jinoyatning muayyan turiga mos xususiyatlarga, ijtimoiy xavfli oqibatlar mavjud bo`lganida esa yetkazilgan zarar miqdori va turiga bog`liqdir.

Jinoyat huquqida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tarzidagi rag`batlantiruvchi Maxsus qism normalarini tahlil qilgan S.G. Kelina ularning quyidagi belgilarini ajratib ko`rsatadi:

➤ javobgarlikdan ozod qilish qilmishida jinoyat tarkibi mavjud bo`lgan shaxslargagina nisbatan qo`llaniladi;

⁵⁵ Коняхин В.П. Теоретические основы построения Общей части Российского уголовного права. СПб., 2002, с. 76-128

- bu normalar jinoiy oqibatlar bo`lmagandagina qo`llaniladi;
- ular jinoyat haqida o`z ixtiyori bilan arz qilish yoki xabar berish, jinoyatning oldini olish, jinoiy oqibatlarga yo`l qo`ymaslikda faol ko`maklashish shaklida namoyon b`ladigan ijobiy xatti-harakatni rag`batlantiradi.
- Surishtiruv, tergov organlari, prokuror va sudning rag`batlantiruvchi normani qo`llash huquqini emas, balki majburiyatini ifodalaydi⁵⁶.

S.G. Kelinaning bu fikrini juda asosli deb hisoblaymiz, chunki nazariy jihatdan masalaning barcha tomonlari yoritilib, amaliyotda JK va JPK talablari asosida jinoiy voqelik bilan bog`liq yuqorida qayd etilgan holatlarning barchasini to`la, har tomonlama, xolisona o`rganilishi adolatli xulosa chiqarishga zamin yaratadi.

JK Maxsus qismidagi jinoiy javobgarlikdan ozod etishni nazarda tutuvchi maxsus normalarning o`zaro o`xshashligi hamda farqlari mavjud bo`lib, bu normalarning dispozitsiyasi hamda sanksiyalari hamda ularni tatbiq etishdagi shartlarni tahlil qilish orqali aniqlash mumkin.

JKning 155-moddasi 4-qismi, 155²-moddasi 3-qismi, 155³-moddasi 3-qismi, 157-moddasi 2-qismi, 160-modda 2-qimidagi maxsus jinoiy javobgarlikdan ozod qilish normalar nazarda tutilgan rag`batlantirishni vakolatli organlar aybdorning harakatlari davlatning manfaatlariga ziyon yetkazmagan hollarda yoxud bir qator hollarda jinoiy oqibatning oldini olish uchun ochiq-oydin, aniq imkoniyat bo`lganda qo`llashlari mumkinligi nazarda tutilgan. Demak, jinoyatga tayyorgarlik yoxud jinoyat suiqasd bosqichlarida maxsus rag`batlantiruvchi normalar asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish mumkinligini ta`kidlash lozim. Binobarin, ijtimoiy xavfli oqibatlarning mavjudligi maxsus rag`batlantiruvchi normalar qo`llanilishini istisno etadi. Bunday hollarda shaxsning sodir etilgan qilmish haqida hokimiyat organlariga xabar berish, jinoyatni ochishda faol ko`maklashish kabilarda ifodalangan munosabati ijobiy hisoblanib, jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida baholanishi kerak.

⁵⁶ Келина С.Г. Теоретические вопросы освобождения от уголовной ответственности. – М., 1974. –С.13.

JKning 155-moddasi 4-qismida *terrorizmni tayyorlashda ishtirok etgan shaxs, agar u hokimiyat organlariga o`z vaqtida xabar berish yoki boshqa usul bilan og`ir oqibatlar yuzaga kelishining hamda terrorchilar maqsadlari amalga oshirilishining oldini olishga faol ko`maklashgan bo`lsa, basharti bu shaxsning harakatlarida jinoyatning boshqa tarkibi bo`lmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi belgilangan.*

JK 155²-moddasida terrorchilik faoliyatini amalga oshirish maqsadida o`quvdan o`tish, chiqish yoki harakatlanish uchun javobgarlik belgilangan bo`lib, ushbu moddaning 3-qismida *ushbu moddada nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxs, agar u terrorchilik faoliyatini amalga oshirish yoxud ushbu **Kodeksning 155, 158, 159, 161, 242, 245, 254, 255¹** va (yoki) **264-moddalarida** nazarda tutilgan jinoyatlardan birini sodir etish maqsadida o`tkazilayotganligi o`zi uchun ayon bo`lgan o`quvdan o`tganligi, chiqib ketishga yoki harakatlanishga uringanligi to`g`risida hokimiyat organlariga ixtiyoriy ravishda xabar qilsa, sodir etilgan jinoyatni fosh qilishga yoki bunday o`quvdan o`tgan, chiqib ketishni, harakatlanishni yoki o`quvni amalga oshirgan, tashkil etgan yoxud moliyalashtirgan boshqa shaxslarni, shuningdek o`quv o`tkazilgan joyni aniqlashga faol ko`maklashsa va agar uning harakatlarida jinoyatning boshqa tarkibi mavjud bo`lmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi belgilangan.*

JKning 155³-moddasining 3-qismida esa, *terrorizmni moliyalashtirishda ishtirok etgan shaxs, agar u hokimiyat organlariga o`z vaqtida xabar berish yoki boshqa usul bilan og`ir oqibatlar yuzaga kelishining hamda terrorchilar maqsadlari amalga oshirilishining oldini olishga faol ko`maklashgan bo`lsa, basharti bu shaxsning harakatlarida jinoyatning boshqa tarkibi bo`lmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi belgilangan.*

Shuningdek, JKning 157-moddasida davlatga xoinlik qilganlik uchun javobgarlik belgilangan bo`lib, ushbu moddaning 2-qismida chet el davlati yoki tashkiloti tomonidan O`zbekiston Respublikasiga qarshi qaratilgan davlatga zarar yetkazuvchi faoliyatni amalga oshirishda hamkorlik qilish uchun jalb qilingan

O`zbekiston Respublikasining fuqarosi o`zining bunday hamkorligi to`g`risida hokimiyat organlariga ixtiyoriy ravishda arz qilsa, uning faoliyati esa respublika manfaatlariga zarar yetkazmagan bo`lsa, javobgarlikdan ozod qilinishi ko`rsatib o`tilgan.

Ushbu moddanig 3-qismida basharti, O`zbekiston Respublikasining fuqarosi, o`z qilmishi to`g`risida hokimiyat organlariga ixtiyoriy ravishda xabar qilib, jinoyatni ochishga faol yordam bergan va buning natijasida davlat uchun kelib chiqishi mumkin bo`lgan og`ir oqibatlarning oldi olingan bo`lsa, jazodan ozod qilinishi nazarda tutilgan.

JKning 160-moddasining 2-qismida esa, chet el razvedkasi bilan hamkorlik qilishga jalb qilingan shaxs, basharti, o`ziga yuklatilgan topshiriqni bajarish yuzasidan hech qanday harakat sodir etmasdan, bu haqda o`z ixtiyori bilan hokimiyat organlariga xabar bersa, javobgarlikdan ozod qilish belgilangan.

Shu bilan birga, ushbu moddaning 3-qismida belgilanishicha, o`zining jinoiy faoliyatini ixtiyoriy ravishda to`xtatgan va qilmishi to`g`risida hokimiyat organlariga ma`lum qilib, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan shaxs, basharti, davlat uchun kelib chiqishi mumkin bo`lgan og`ir oqibatlarning oldi olingan bo`lsa, jazodan ozod qilinadi.

Bundan tashqari, JKning 211-moddasi 4-qismiga binoan, basharti, shaxsga nisbatan pora so`rab tovlamachilik qilingan bo`lsa va ushbu shaxs jinoiy harakatlar sodir etilganidan keyin bu haqda o`ttiz sutka mobaynida o`z ixtiyori bilan arz qilsa, chin ko`ngildan pushaymon bo`lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergan bo`lsa, u javobgarlikdan ozod etiladi.

Zero, chin ko`ngildan pushaymon bo`lish, asl mohiyatiga ko`ra subyektning sodir etilgan jinoyatga nisbatan shaxsiy, ruhiy ya`ni psixalogik munosabati bo`lib, o`z qilmishidan afsuslanish, vijdon azobi yoki uyalish shaklida namoyon bo`lishi mumkin⁵⁷.

⁵⁷ С.П. Шерба. А.В. Савкин. Деятельное раскаяние и в совершенном преступлении. – М. “Спарк”. 1997. С. 12.

Shu bilan bir qatorda, JKning 212-moddasi 4-qismida Basharti, pora olish-berishda vositachilik qilgan shaxs jinoyiy harakatlarni sodir etganidan keyin bu haqda o`ttiz sutka mobaynida o`z ixtiyori bilan arz qilsa, chin ko`ngildan pushaymon bo`lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergan bo`lsa, javobgarlikdan ozod qilinishi nazarda tutilgan.

JKning 213-moddasi 5-qismida basharti, moddiy qimmatliklar bergan yoki mulkiy manfaatdor etgan shaxsga nisbatan moddiy qimmatliklar yoki mulkiy manfaat so`rab tovlamachilik qilingan bo`lsa va ushbu shaxs jinoyiy harakatlar sodir etilganidan keyin bu haqda o`ttiz sutka ichida o`z ixtiyori bilan arz qilsa, chin ko`ngildan pushaymon bo`lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergan bo`lsa, u javobgarlikdan ozod etilishi belgilangan.

JKning 223-moddasi 3-qismida belgilanishicha esa, O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida nazarda tutilgan siyosiy boshpana huquqidan foydalanish uchun kirish hujjatlarini tegishli darajada rasmiylashtirmasdan O`zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo`lmagan shaxslar javobgarlikdan ozod qilinadilar.

Shunga o`xshash norma JKning 244²-moddasi 3-qismida belgilangan bo`lib, unga muvofiq, basharti shaxs taqiqlangan tashkilotlar mavjudligi to`g`risida o`z ixtiyori bilan xabar qilgan va jinoyatni ochishga yordam bergan bo`lsa, u ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilinadi.

JKning 248-moddasi 4-qismida nazarda tutilgan buyumlarni o`z ixtiyori bilan topshirgan shaxs javobgarlikdan ozod qilinadi.

Biz yuqorida JKning 155-modasi 4-qismida *terrorizmni tayyorlashda ishtirok etgan shaxs, agar u hokimiyat organlariga o`z vaqtida xabar berish yoki boshqa usul bilan og`ir oqibatlar yuzaga kelishining hamda terrorchilar maqsadlari amalga oshirilishining oldini olishga faol ko`maklashgan bo`lsa, basharti bu shaxsning*

harakatlarida jinoyatning boshqa tarkibi bo`lmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi belgilanganligi to`g`risida eslatib o`tdik.

Mazkur normaning zaruri belgilari bo`lib, ushbu jinoyatning obyektiv tomonini ifodalovchi bir qator holatlarni o`zida namoyon etishini M.X. Rustamboyev quyidagicha ifodalaydi:

- shaxs faqat terroristik aktning tayyorlanishida ishtirok etgan;
- shaxs o`z vaqtida, ya`ni jinoyatning obyektiv tomoni boshlangunga qadar hokimiyat organlariga terroristik akt to`g`risida ma`lumot bergan, bu esa, o`z navbatida, og`ir oqibatlar kelib chiqishining va terroristlar maqsadi amalga oshirilishining oldini olgan;

- shaxs og`ir oqibatlar kelib chiqishi va terroristlar maqsadining amalga oshirishining oldini boshqa usulda olgan bo`lsa, ya`ni terroristik aktning oldi olinishiga olib kelgan har qanday harakatni amalga oshirgan – tayyorlanayotgan terroristik aktga nishon bo`lgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar yoki korxonalar ma`muriyatiga shaxsan o`zi kelgan, davlat organlarini anonim ravishda ogohlantirgan bo`lsa, shuningdek, ko`pchilik uchun xavfli harakatlarning oldini olish bo`yicha boshqa faol harakatlar qilgan bo`lsa, boshqa fuqarolarni zararli va og`ir oqibatlar kelib chiqishini cheklash va zararlantirishga jalb etgan bo`lsa va hokazo;

- shaxsning harakatlarida boshqa jinoyat tarkibi (masalan, qurol yoki portlovchi moddalar sotib olish, saqlash, bunday vositalarni o`g`irlash, ularni tayyorlash va hokazo) mavjud bo`lmasa⁵⁸.

M.X. Rustamboyevning yuqoridagi fikrlarini asosli deb hisoblaymiz, sababi shaxs jinoyatining oldini olishdagi harakatlari aynan jinoiy oqibatni yuz berishini bartaraf etishi, shuningdek jinoiy guruhning boshqa a`zolarini fosh qilishga va bu jinoiy guruhni bartaraf qilishga qaratilgan.

⁵⁸ M.X. Rustamboyev. O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. – 216-b.

Aybdor tomonidan yetkazilgan xabarning ungacha boshqa bir shaxslar yoki vositalar orqali huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ma'lum bo'lganligi uning javobgarlikdan ozod qilinishiga monelik qilmaydi, chunki unda jinoyatni oldini olish bilan bog'liq barcha uning erkiga bog'liq harakatlar to'la amalga oshirilgan va bu bilan u jinoyatdan voz kechganligini namoyon etadi. Shubhasiz, terrorizm deyarli barcha holatlarda jinoiy uyushma a'zolari omonidan sodir etiladi. JKning 242-moddasiga binoan jinoiy uyushmaga a'zo bo'lib, ishtirok etish holati tugallangan o'ta og'ir jinoyat hisoblanadi. Ammo, qonunshunos bu jinoyat oqibatida juda katta o'g'ir oqibatlar kelib chiqishini oldini olish maqsadida jinoiy uyushma a'zolariga, bunday jinoyatni oldini olishga da'vat qilib, agarda ularning harakatlarida boshqa jinoyat tarkibi bo'lmasa jinoiy javobgarlikdan ozod qilishga kafolat beradi.

Shu bilan birga, JKning 155² va 155³-moddalarida terrorchilik faoliyatini amalga oshirish maqsadida o'quvdan o'tish, chiqish, harakatlanish va terrorizmni moliyalashtirganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, shuningdek ushbu moddalarning oxirgi qismlarida rag'batlantiruvchi normalar ham belgilab qo'yilgan. Ushbu rag'batlantiruvchi normalarga binoan, quyidagi hollatlarning barchasi mavjud bo'lsa, shaxs javobgarlikdan ozod qilinadi:

- shaxs hokimiyat organlariga o'z vaqtida xabar bersa;
- shaxs yuqorida ko'rsatilgan jinoyatlar natijasida og'ir oqibatlar yuzaga kelishining hamda terrorchilar maqsadlari amalga oshirilishining oldini olishga faol ko'maklashgan bo'lsa;
- shaxsning harakatlarida jinoyatning boshqa tarkibi bo'lmasa.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish bilan bog'liq yana bir rag'batlantiruvchi norma JKning 157-moddasi 2-qismida belgilangan bo'lib, chet el davlati yoki tashkiloti tomonidan O'zbekiston Respublikasiga qarshi qaratilgan davlatga zarar yetkazuvchi faoliyatni amalga oshirishda hamkorlik qilish uchun jalb qilingan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi o'zining bunday hamkorligi to'g'risida hokimiyat

organlariga ixtiyoriy ravishda arz qilsa, uning faoliyati esa respublika manfaatlariga zarar yetkazmagan bo`lsa, javobgarlikdan ozod qilinishi nazarda tutilgan.

Josuslikning obyektiv tomoni JKning 160-moddasini chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo`lmagan shaxsga nisbatan qo`llashga doir sharhda batafsilroq yoritib berilgan. Agar josuslik O`zbekiston Respublikasi fuqarosi tomonidan sodir etilgan bo`lsa, bu qilmish JKning 157-moddasiga ko`ra davlatga xoinlik sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

JKning 157-moddasi 2-qismida davlatga xoinlik qilishga jalb qilingan shaxs uchun rag`batlantiruvchi norma bo`lgan so`nggi imkon, ya'ni davlat manfaatlariga yetadigan zararining hamda jinoiy javobgarlikka tortilishning oldini olishning imkoni mavjud. Ushbu moddaning 2-qismiga muvofiq aybdorni javobgarlikdan ozod etish uchun quyidagi ikkita shartning mavjudligi zarur:

- shaxs chet el davlati yoki tashkiloti bilan o`zining hamkorligi to`g`risida hokimiyat organlariga xabar berishi ixtiyoriy bo`lishi shart;
- shaxsning chet el davlati yoki tashkiloti bilan hamkorligidan O`zbekiston Respublikasi manfaatlariga zarar yetmagan bo`lishi kerak.

Ixtiyoriy xabar qilish deganda, aybdorning chet el davlati yoki chet el tashkiloti bilan hamkorligi haqida ixtiyoriy ravishda hokimiyat organlariga arz qilishi harakati tegishli organlarga uning aloqasi ma'lum bo`lishidan avval ro`y berishi tushuniladi. Bundan tashqari, bunday arz aybdor tomonidan biror kishining ta'sirisiz o`z xohishi bilan amalga oshirilishi kerak⁵⁹.

Ixtiyoriylik baholovchi tushuncha bo`lib, subyektiv belgi hisoblanadi. Bu holda aybdor o`zining xorijiy davlat yoki chet el tashkiloti bilan hamkorligini davom ettirishning realligini va hech qanday salbiy oqibatlarga olib kelishini anglab yetadi. Agarda aybdor o`zining hamkorligi to`g`risida ushlab olish jarayonida yoki boshqa turdagi tashqi ta`sirlar natijasida xabar bersa, bu ixtiyoriy xabar berish hisoblanmaydi.

⁵⁹ Rustamboyev M.X. O`zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. III tom. – T., "Ilm ziyo", 2018, 270-b.

Xabar berishning ixtiyoriyligi aybni bo`yniga olish to`g`risida borib arz qilishni nazarda tutmaydi, ammo buni istisno ham qilmaydi. Bu holatda jinoyatning sodir qilinishi to`g`risida hokimiyat organlariga xabar berishning o`zi yetarli hisoblanadi. Bunda hokimiyat organi deganda, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlaridan biri tushuniladi.

Zarar yetkazilmaganligi JKning 157-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan rag`batlantiruvchi normalarning majburiy sharti hisoblanadi. Zarar yetkazilmaganligi deganda, aybdorning o`z hamkorligi to`g`risida o`z vaqtida xabar berishi, ya`ni bu ishni hokimiyat organlari O`zbekiston manfaatlariga zarar yetkazilishining oldini olish uchun yetarli muddatga ega bo`ladigan tarzda amalga oshirilishi kerak. Obyektiv ravishda bunday xabar aybdorning jinoyatini og`ir oqibatlar kelib chiqishining oldini olishga ongli ravishda yordam berishini anglatadi.

JKning 157-moddasi 3-qismida yana boshqa bir rag`batlantiruvchi norma belgilangan bo`lib, ushbu normaga muvofiq aybdor quyida berilgan shartlarga rioya qilsa, davlatga xoinlik qilinishi natijasida kelib chiqishi mumkin bo`lgan og`ir oqibatlar darajasi oasayib, natijada aybdor jazodan ozod qilinishi mumkin:

- sodir qilingan jinoyat to`g`risida ixtiyoriy xabar berish;
- jinoyatning ochilishiga faol yordam berish;
- buning natijasida davlat uchun kelib chiqishi mumkin bo`lgan og`ir oqibatlarining oldini olish.

Jinoyatning ochilishiga faol yordam berish deganda, O`zbekiston Respublikasi hududidagi maxsus xizmatga maxfiy ko`mak berishi haqida rozilik berish, jinoyatlarni ochish va yo`lini to`shish, xorijiy maxsus xizmat organlaridan olingan vazifalarni boshqalar bajarishining oldini olish, xorijiy razvedka vakillari foydalanadigan vaqtinchalik yoki doimiy yashash joylarini, jinoyatni sodir etgan shaxslarni aniqlash va boshqalarda yordam berishda ifodalanadi⁶⁰. Bu tushuncha, shuningdek jinoyatni tezkor,

⁶⁰ M.X. Rustamboyev. O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. – 234-b.

to`la va obyektiv ochilishi uchun ahamiyatga ega bo`lgan, jinoyat qurollari, vositalari, o`g`irlangan mulklarning turgan joylari haqida xabar berishni o`z ichiga oladi.

JKning 157-moddasi 2-qismida qonunshunos tomonidan nazarda tutilgan o`ziga xos ikkita holatga e`tibor qaratish lozim bo`ladi.

Birinchidan, ushbu moddaning 2-qismida chet el davlati yoki tashkiloti tomonidan O`zbekiston Respublikasiga qarshi qaratilgan davlatga zarar yetkazuvchi faoliyatni amalga oshirishda hamkorlik qilish uchun jalb qilingan O`zbekiston Respublikasining fuqarosi o`zining bunday hamkorligi to`g`risida hokimiyat organlariga ixtiyoriy ravishda arz qilsa, uning faoliyati esa respublika manfaatlariga zarar yetkazmagan bo`lsa, uning javobgarlikdan ozod qilinishi belgilangan. Bu holatda shaxs jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytib arz qilganligi sababli zarar yetkazishning oldi olinganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinishi nazarda tutilgan.

Qonunshunos JKning 155-moddasi 4-qismida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning zaruriy belgisi sifatida o`z vaqtida xabar qilishni, 157-moddaning 2-qismida esa hokimiyat organlariga arz qilishni nazarda tutadi.

JKning 160-moddasi ikkinchi va uchinchi qismlariga binoan chet el razvedkasi bilan hamkorlik qilishga jalb qilingan shaxs, basharti, o`ziga yuklatilgan topshiriqni bajarish yuzasidan hech qanday harakat sodir etmasdan, bu haqda o`z ixtiyori bilan hokimiyat organlariga xabar bersa, javobgarlikdan ozod qilinadi, shuningdek o`zining jinoiy faoliyatini ixtiyoriy ravishda to`xtatgan va qilmishi to`g`risida hokimiyat organlariga ma'lum qilib, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan shaxs, basharti, davlat uchun kelib chiqishi mumkin bo`lgan og`ir oqibatlarining oldi olingan bo`lsa, jazodan ozod qilinadi.

Tahlil qilinayotgan moddaning 2 va 3-qismlari JKning 157-moddasi tegishli normalari bilan o`xshashdir.

JKning 160-moddasida rag`batlantiruvchi normalarning ikki turi nazarda tutilgan. Qonun chiqaruvchi organning bunday qarorni qabul qilishi ushbu jinoyatlarga xos jihatlari, ularning sodir etilish xususiyatlari bilan bog`liq. Mazkur normalardagi

rag`batlantiruvchi normalarning birinchi turida rag`batlantirish tariqasida javobgarlikdan ozod qilish, ikkinchisida esa jazodan ozod qilish nazarda tutilgan. Ushbu moddalarda jinoyat sodir etilgandan keyin amalga oshirilgan ijtimoiy xatti-harakatlar uchun javobgarlikdan ozod qilish tarzidagi rag`batlantirishning belgilanishi aybdorning qilmishi bevosita davlat manfaatlariga ziyon yetkazishga qaratilmaganligi hamda zarar hali yetkazilmaganligi bilan bog`liq.

Yuridik adabiyotlarda o`z ixtiyori bilan arz qilish, xabar berish yoki aybini bo`yniga olish tog`risida arz qilishning yuridik jihatdan ahamiyatli deb topilishi mumkin bo`ladigan vaqti haqida har xil fikrlar bildirilgan. Ulardan biriga ko`ra, arz qilish, xabar berish yoki aybini bo`yniga olish to`g`risida arz qilishni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jinoyat sodir etilganligi haqidagi fakt hali noma`lum bo`lgan taqdirdagina o`z ixtiyori deb baholash lozim⁶¹.

Bir qarashda bunday nuqtai nazar mantiqan to`g`ridek tuyuladi. Ammo unga asoslanadigan bo`lsak, ijobiy xulqni tashkil etuvchi bir qator holatlar rag`batlantirish imkoniyati doirasidan tashqarida qoladi. Zero, ko`pincha huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jinoiy ishi qo`zg`atilgan, ammo uni sodir qilgan shaxs noma`lum bo`ladi yoxud gumon qilinayotgan shaxs mavjud bo`ladiyu, lekin tergov organlarida uni javobgarlikka tortish uchun asos bo`ladigan dalillar bo`lmaydi. Bir qator hollarda esa bu dalillar topilmasligi uchun mavjud barcha shart-sharoitlar ushbu holatlar shaxsning dastlabki tergov bosqichida sodir etilgan jinoyat haqida bergan xabari ixtiyoriy topish uchun asos sifatida baholanishi kerak.

JKning 244²-moddasi 3-qismida mazkur moddaning 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxs uchun javobgarlikdan ozod qilishni nazarda tutuvchi rag`batlantiruvchi norma belgilangan bo`lib, unga binoan shaxs quyidagi 2 shartni bajarsa javobgarlikdan ozod qilinadi:

⁶¹ Абдурахмонов Р.С. Процессуальные основания освобождения взяточдателя от уголовной ответственности // Вопросы совершенствования и укрепления законности и правопорядка. – Омск, 1998. С. 128.

– aybdor shaxs taqiqlangan tashkilotlar mavjudligi to`g`risida o`z ixtiyori bilan xabar qilganligi;

– jinoyatni ochishga yordam berganligi.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning majburiy sharti aybdor shaxs mazkur moddaning 3-qismida nazarda tutilgan ikki shartni bir paytda bajarishidir.

Javobgarlikdan ozod qilishni nazarda tutuvchi ushbu rag`batlantiruvchi maxsus norma diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish va ularga rahbarlik qilish, ularning faoliyatidan ishtirok etishdan iborat jinoyatlarga qarshi kurashning samarali vositasi hisoblanadi. Ijobiy xulqning bunday shakli muhimligi bu kabi qilmishlar jamiyat uchun katta xavf tug`dirishi hamda ularning oldini olish fuqarolar, jamiyat va davlat huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga imkon berishi bilan bog`liqdir. Ushbu normada qonun chiqaruvchi organ taqiqlangan tshkilotning mavjudligi to`g`risida o`z ixtiyori bilan xabar berishdek sharti bilan bir qatorda yana bir mezon – jinoyatni ochishda faol yordamlashish shartini ham nazarda tutgan bo`lib, ular birgalikda shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning moddiy asosini tashkil qiladi. Jinoyatni tayyorlashda o`zi ishtirok etgan shaxsning bu haqda hokimiyat organlariga o`z vaqtida xabar berishi maxsus rag`batlantiruvchi normalarni qo`llash asosi bo`lgan ijobiy xulqning mustaqil elementi hisoblanadi.

Og`ir oqibatlar kelib chiqishi va terrorchilar maqsadlari amalga oshishning oldini olishda faol yordamlashish JKning 155-moddasi 4-qismida nazarda tutilgan ijobiy xulqning mustaqil shakli bo`lib, unga aybdorning huquqni muhofaza qiluvchi organlarga tayyorlanayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan jnoyat haqida o`z vaqtida xabar berish orqali terrorchilarning jamiyat uchun xavfli harakatlariga chek qo`yishga qaratilgan xatti-harakati xosdir.

JKning 211, 212 va 213-moddalari 4-qismlarida nazarda tutilgan maxsus normalar ham rag`batlantirish xususiyatiga egadir. Ushbu normalarning asosi hisoblangan ijobiy xulq shakllari bir xil bo`lib, aybdor shaxsning faol va chin ko`ngildan pushaymon bo`lishi hamda pora berganligi, pora berishda vositachilik

qilganligi yoxud davlat xizmatchisini pora evaziga og`dirib olgani haqida o`z ixtiyori bilan 30 sutka ichida xabar berishida namoyon boladi. Ijobiy xulqning bunday shakli har qanday hokimiyat organiga tegishli ariza bilan murojaat qilishni taqazo etadi. Aybdor shaxsning axboroti, buning sabablaridan qat'iy nazar, ixtiyoriy deb tan olinadi, lekin bundan hokimiyat idoralariga sodir qilingan jinoyat to`g`risida ma'lum bo`lgan holatlar istisno etiladi⁶².

Jinoyat haqida ixtiyoriy arz qilish, chin dildan pushaymon bo`lishning dalolati bo`lib, mazkur rag`batlantiruvchi normalar tuzilishida majburiy bo`g`in hisoblanadi, pora oluvchini fosh etishga qaratilgan maxsus mazmunga ega bo`ladi. Fikrimizcha, hatto ixtiyoriy arz qilish bo`lganda ham, keyinchalik tergov jarayonida jinoyatni ochishda faol ko`maklashish tarzidagi ijobiy xatti-harakatning bo`lmasligi sodir etgan jinoyati haqida o`z ixtiyori bilan xabar bergan shaxsni rag`batlantirishni rad qilishga asos bo`lishi mumkin.

Shuningdek, JKning 122-moddasi 3-qismida va 123-moddaning 2-qismida ham rag`batlantiruvchi maxsus normalar mavjud bo`lib, ushbu normalarga muvofiq aybdor o`z qarmog`i ostidagi voyaga yetmagan, moddiy yordamga muhtoj shaxslarni yoki mehnatga layoqatsiz, moddiy yordamga muhtoj ota-onasini moddiy ta'minlashdan bo`yin tovlagan shaxslar, agar u aliment majburiyatlari bo`yicha qarzdorlikni to`liq to`lagan bo`lsa, javobgarlikdan ozod qilinadi. Mazkur rag`batlantiruvchi normaning muhim jihati, moddiy yordamga muhtoj bo`lib qolgan shaxslarni aybdorning aliment qarzdorligini to`liq to`laganligi sababli qiyin vaziyatdan tezroq chiqishga ko`maklashishi hisoblanadi.

O`zida noqonuniy saqlanayotgan o`qotar qurol, o`q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini o`z ixtiyori bilan topshirgan shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish mumkinligini nazarda tutuvchi JKning 248-moddasida ham maxsus rag`batlantiruvchi norma mavjud. U rag`batlantiruvchi normalarnig turlaridan biri

⁶² O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi: ilmiy-amaliy sharh. Toshkent. 1997. – 274-B.

bo`lib, bunday jinoiy holatlarning oldini olishda juda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu normadagi asosiy konstruktiv belgi aybdor faoliyatining ixtiyoriyligidir. Oliy sud Plenumining “Qonunga xilof ravishda qurolga egalik qilish to`g`risidagi ishlar bo`yicha sud amaliyoti haqida”gi 1996-yil 27-fevralda qabul qilingan qarorining 12-bandiga muvofiq, shaxs JKning 248-moddasida qayd etilgan ashyolarni erkin tarzda o`z ixtiyori bilan topshirish to`g`risida qarorga kelsa, u ashyolarni o`z ixtiyori bilan topshirgan hisoblanadi.

Qonun chiqaruvchi ushbu vaziyatda mazkur ashyolar kelajakda katta xavf tug`dirishi, ya`ni jinoyatlarning sodir etilishiga sabab bo`lishining oldini olish maqsadini nazarda tutgan.

Shaxs tintuv jarayonida yoki unda qurol borligi haqida dalillar keltirilishi natijasida qurolni topshirish to`g`risidagi xulosaga kelsa, u qurolni o`z ixtiyori bila topshirgan hisoblanmaydi⁶³. Bunday tavsiya to`g`riligidan shubhalanmagan holda qurolni tegishli organlar yoki mansabdor shaxslar talabi bilan topshirish jazoni yengillashtiruvchi holat deb baholanishi kerak deb maqullaymiz.

Shaxs JKning 248-moddasida ko`rsatilgan narsalarni, ular qancha vaqt saqlanganligidan qat`iy nazar, o`z ixtiyori bilan topshirgan taqdirda, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi haqidagi tavsiya ham to`g`ri deb o`ylaymiz.

Bundan tashqari, JKning 178, 180, 181, 181¹, 184, 185², 188, 189, 190, 192⁹-moddalarida ham jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni nazarda tutuvchi alohida rag`batlantiruvchi normalar mavjud. Ushbu modalarning barchasida iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilga bo`lib, javobgarlikdan ozod qilishni nazarda tutuvchi asoslar deyarli bir xil. Bular quyidagi ikki shartdan iborat:

- ❖ aybdor yuqoridagi jinoyatlardan birini birinchi marta sodir qilgan bo`lsa;
- ❖ aybdor jinoyat aniqlangan kundan e`tiboran o`ttiz kunlik muddatda yetkazilgan moddiy zararining o`rnini qoplagan bo`lsa.

⁶³ O`zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining “Qonunga xilof ravishda qurlga egalik qilish to`g`risidagi ishlar bo`yicha sud amaliyoti haqida”gi 1996-yil 27-fevraldagi Qarori.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish bilan bog`liq JKning Maxsus qismidagi normalar fikrimizcha, yanada takomillashtirilishi kerak. O`rganishimiz jarayonida mazkur masala yuzasidan MDHning qator davlatlari Jinoyat kodekslarining Maxsus qismidagi javobgarlikdan ozod etish bilan bog`liq normalar O`zbekiston Respublikasi JKning tegishli moddalari bilan qiyosiy tahlil qilganimizda quyidagilar ma`lum bo`ldi. Masalan, Rossiy Federatsiyasi JKning Maxsus qismida OIV kasalligini tarqatish(122-m), odam o`g`irlash (126-m), odam savdosi (127¹-m), jismoniy shaxsdan soliq va to`lovlarni to`lashdan bo`yin tovlash (184-m), garov olish (206), yolg`on guvohlik berish (307), jinoyatni yashirish (316-m), harbiy qism yoki xizmat joyini o`zboshimchalik bilan tashlab ketish (287), dezertirlik (388) kabi, Belarus Respublikasining JKda jinoyat faoliyatidan olingan daromadlarni legallashtirish (235-m), fitna yoki davlat hokimiyatini egallash maqsadida sodir etilgan boshqa harakatlar (357-m), guvoh yoki jabrlanuvchinig yoxud ekspert yoki tarjimonning o`ziga yuklatilgan majburiyatini bajarishni rad etishi yoki bo`yin tovlashi (402-m), jinoyat haqida xabar bermaslik (406-m), shuningdek, Ukraina, Moldava, Armaniston, Ozarbayjon, Qozog`iston Respublikalarining Jinoiy kodeksilari Maxsus qismida yuqoridagi o`xshash jinoyatlar yuzasidan javobgarlikdan ozod etishga oid normalar mavjud.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalar va xorijiy davlatlar tajribasiga asosan, Jinoyat kodeksi Maxsus qismidagi 135, 137, 245, 287, 288, 290, 273, 276-moddalariga jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni nazarda tutuvchi alohida normalar kiritilsa maqsadga muvofiq bo`lardi.

Xulosa qilib aytganda, aybdorga nisbatan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning qo`llanishi jinoiy jazolarni liberallashtirish bilan bog`liq hozirgi davrda majburlov choralarning tejash tamoyilini ro`yobga chiqarishda yordamlashish barobarida jinoyatchilikka qarshi kurashishda samara beradi va bu o`z navbatida jinoyatlarning oldini olishga imkon yaratganligidan dalolat beradi.

III BOB. JINOIY JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISHGA OID XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI VA MILLIY QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH

§ 3.1. Xorijiy mamlakatlar qonunchiligiga muvofiq jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning xususiyatlari

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishga oid qonun normalari xorijiy davlatlarning ham jinoyat qonunchiligida mustahkamlangan bo`lib, ayrim xorijiy davlatlarning jinoiy javobgarlikdan ozod qilishga oid tajribalari O`zbekiston tajribasiga o`xshash bo`lsa, ba`zi davlatlarning tajribasi tubdan farq qiladi. Hatto ayrim rivojlangan davlatlarda ham jinoiy javogarlidan ozod qilish instituti mavjud bo`lmay, ularda asosan jazodan ozod qilish va jazoni yengillashtirishga e`tibor qaratilgan. Shu sababli, jinoyat qonunchiligimizda mustahkam o`rin olgan ushbu institutni takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqishimiz uchun, albatta, tatqiqotimiz davomida xorijiy tajribani ham o`rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro jinoyat qonunchiligida jinoiy javobgarlikdn ozod qilishning ayrim jihatlari bilan bog`liq qoidalar ham mavjud. Shunday qilib, 1968-yilda harbiy jinoyatlar va insoniyatga qarshi jinoyatlar uchun muddat o`tganlik qoidasini qo`llamaslik to`g`risida BMT konvensiyasi qabul qilingan va 1970-yil 11-noyabr kuni BMTning 2391-sonli rezalutsiyasiga muvofiq kuchga kirgan⁶⁴. Ushbu konvensiyaning qoidalari jinoyat qonunchiligimizda o`z aksini topgan bo`lib, JK 64-moddasida harbiy va insoniyatga qarshi jinoyatlarga nisbatan muddatlar o`tganligi qoidasi qo`llanilmasligi belgilangan.

1996-yil 17-fevralda qabul qilingan MDHga a`zo davlatlar uchun namunaviy Jinoyat kodeksi jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning 4 turini o`z ichiga oladi: aybiga

⁶⁴ BMT Bosh Assambleyasining 1968- yil 2391-sonli Rezolutsiyasiga muvofiq qabul qilingan "Harbiy jinoyatlar va insoniyatga qarshi jinoyatlarga nisbatan muddati o`tganlik qoidasi qo`llanilmasligi to`g`riisdagi" konvensiya.

chin dildan pushaymon bo`lish (74-modda), jabrlanuvchi bilan yarashish (75-modda), vaziyatning o`zgarishi (76-modda) va da'vo muddati o`tgani (77-modda)⁶⁵.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning ushbu turlari O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 64, 65, 66, 66¹-moddalarida o`z aksini topgan.

Olib borayotgan tadqiqotimiz maqsadlariga erishish uchun, birinchi navbatda, O`zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunchiligiga o`xshash bo`lgan MDHga a'zo bir nechta davlarning Jinoyat kodeksidagi javobgarlikdan ozod qilish institutini o`rgansak, so`ngra esa, boshqa rivojlangan davlatlarning jinoyat qonunchiligiga murojaat qilsak.

Ukraina. Ukraina Jinoyat kodeksida ham javobgarlikdan ozod qilishga bag`ishlangan alohida bob mavjud bo`li, uning 9-bo`limi “Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish” deb nomlangan. Ukraina Jinoyat kodeksiga binoan, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish faqat sud tomonidan amalga oshiriladi va jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun quyidagi asoslar mavjud:

- aybdor o`z qilmishiga chin ko`ngildan pushaymon bo`lishi bilan bog`liq holda;
- jinoyatchining jabrlanuvchi bilan yarashishi munosabati bilan;
- shaxsning garov evaziga o`tkazilishi munosabati bilan;
- vaziyatning o`zgarishi tufayli;
- da'vo muddati o`tganligi sababli⁶⁶.

Keling, Ukraina Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan javobgarlikdan ozod qilish asoslarining har biriga alohida alohida to`xtalib, O`zbekisto Respublikasi Jinoyat kodeksida nazarda tutilga javobgarlikdan ozod qilish asoslari bilan qiyosiy tahlil qilsak.

Ukraina Jinoyat kodeksining 45-moddasida chin dildan pushaymon bo`lganligi sababli jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning asoslari keltirib o`ilgan bo`lib, unga ko`ra yengil yoki beparvolik natijasida o`rtacha og`irlikdagi jinoyatni sodir qilgan shaxs, agar

⁶⁵ Модельный Уголовный кодекс для государств-участников СНГ (принят постановлением Межпарламентской Ассамблеи государств-участников СНГ от 17.02.1996 г. (ред. от 27 ноября 2015 г.) // ИПС «ГАРАНТ». – URL: <http://base.garant.ru/2566472/5403cdaba4adcc1fa9fb4eed9b040c90> (дата обращения: 16.01.2020 г.)

⁶⁶ Криминальный кодекс Украины от 05.04.2001 г. (ред. от 20.12.2019 г.) // Законодательство Украины: сайт Верховной Рады Украины. – URL: <https://zakon.rada.gov.ua/laws/show/2341-14> (дата обращения: 11.01.2020 г.).

u jinoyat sodir etilgandan keyin chin dildan tavba qilgan bo`lsa, jinoyatning oshkor etilishiga faol hissa qo`shgan va yetkazilgan zararni to`liq qoplagan yoki yetkazilgan zararni bartaraf etgan bo`lsa, shas jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi belgilangan. Shuningdek, Ukraina Jinoyat kodeksining 45-moddasi yana bir muhim o`ziga xos norma belgilangan bo`lib, unga ko`ra, korrupsion jinoyatlar, ya'ni Ukraina Jinoyat kodeksining 191, 262, 308, 312, 313, 320 , 357 , 410-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar agar ular rasmiy maqomni suiiste'mol qilish orqali sodir etilgan bo`lsa, shuningdek 210, 354, 364, 364 — 1, 365 — 2, 368-369 — 2-moddalarda nazarda tutilgan jinoyatlar sodir etilgan bo`lsa, chin ko`ngildan pushaymon bo`lganligi sababli javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin emasligi belgilangan.

Ukraina Jinoyat kodeksining 45-moddasida nazarda tutilgan norma O`zbekiston JKning 66-moddasida nazarda tutilgan norma bilan juda o`xshash, ammo O`zbekiston JKda aybdor o`z qilmishiga amalda pushaymon bo`lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish korrupsion jinoyatlarga nisbatan tatbiq qilinmaydi deb belgilangan norma mavjud emas. Bizningcha, ushbu normani O`zbekiston Jinoyat kodeksiga ham kiritilsa maqsadga muvofiq bo`lard. Sababi, ushbu norma mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashda juda samarali hisoblanadi.

Ukraina jinoyat qonunchiligiga muvofiq, javobgarlikdan ozod qilishning yana bir turi jinoyatchining aybdor bilan yarashganligi hisoblanadi. Ukraina Jinoyat kodeksining 46-moddasiga muvofiq, korrupsion jinoyatlardan tashqari birinchi marta yengil jinoyat yoki o`rtacha og`irlikdagi ehtiyotsizlik natijasida jinoyatini sodir etgan shaxs jabrlanuvchi bilan yarashgan va unga yetkazilgan zararni qoplagan yoki yetkazilgan zararni bartaraf etgan bo`lsa, jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi.

Ushbu norma O`zbekiston Jinoyat kodeksi 66¹-moddasidagi yarashganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish asoslarini ifodalovchi normadan farq qiladi. O`zbekiston JKda yarashganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin bo`lgan jinoyatlar ro`yxati aniq belgilab qo`yilgan.

Shuningdek, Ukraina jinoyat kodeksida korrupsiyaga oid jinoyatlarga nisbatan yarashuv qo`llanilmasligi belgilangan. Bizning fikrimizcha, ushbu normani kodeksga kiritish mantiqsizlik hisoblanadi, chunki korrupsiyaga oid jinoyatlarning aksaryatida jabrlanuvchilar bo`lmaydi.

Ukrainada jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning o`ziga xos turlaridan biri shaxsni garov evaziga o`tkazilishi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish hisoblanadi. Ukraina Jinoyat kodeksining 47-moddasiga binoan, agar shaxs birinchi marta yengil yoki o`rtacha og`irlikdagi jinoyatni sodir qilgan va o`z aybiga iqror bo`lib, qilmishiga chin dildan pushaymon bo`lgan bo`lsa, uni korxonaga, muassasaga, tashkilotlarga garov puli evaziga kafillikka berish bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish mumkin. Ammo ushbu norma korrupsiyaga oid jinoyatlarga nisbatan tatbiq qilinmaydi.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning ushbu turini shartli javobgarlikdan ozod qilish desak ham bo`ladi. Sababi, ushbu moddaning 2-qismida shaxs bir yil ichida kafillik shartlarini buzsa, o`zi sodir qilgan jinoyati uchun javobgarlikka tortilishi belgilangan.

Javobgarlikdan ozod qilishning bu turi O`zbekiston Jinoyat kodeksida nazarda tutilmagan bo`lib, ammo sobiq ittifoq davridagi O`zbekiston SSR Jinoyat kodeksida yuridik shaxslarning kafilligi evaziga javobgarlikdan ozod qilishni nazarda tutuvchi norma mavjud edi. Biroq, ushbu norma 1994-yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksiga kiritilmadi. Bugungi kunda javobgarlikdan ozod qilishning ushbu turi sobiq ittifoq tarkibidagi davlatlar orasidan faqat Ukraina Jinoyat qonunchiligida saqlanib qolgan.

Fikrimizcha, korxonaga, muassasaga, tashkilotlarning kafilligi evaziga javobgarlikdan ozod qilishni O`zbekiston Jinoyat kodeksiga javobgarlikdan ozod qilishning yangi turi sifatida kiritilsa maqsadga muvofiq bo`lardi. Chunki, javobgarlikdan ozod qilishning ushbu turi Jinoyat kodeksiga kiritilishi yuridik shaxslarning jamiyatda jinoyatchilikka qarshi kurashdagi rolini oshiradi va loqaydlik kayfiyatidan xalos qiladi.

Ukraina Jinoyat kodeksida belgilangan javobgarlikdan ozod qilishning yana bir turi, “vaziyat o`zgarganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish” hisoblanadi. Javobgarlikdan ozod qilishning ushbu turi deyarli barcha MDHga a’zo davlatlarning jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan. Jumladan, O`zbekiston Jinoyat kodeksida ham javobgarlikdan ozod qilishning ushbu turi nazarda tutilgan bo`lib, O`zbekiston JKning 65-moddasi “Qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo`qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish” deb nomlangan. Ukraina Jkdagi vaziyat o`zgarganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish O`zbekiston JKda nazarda tutilgan javobgarlikdan ozod qilishning ushbu turi bilan o`xshash. Lekin Ukraina jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan vaziyat o`zgarishi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishning bizning qonunchiligimizdan farq qiluvchi o`ziga xos xususiyatlari mavjud. Jumladan, Ukraina JKning 48-moddasida birinchi marta jinoyat sodir qilgan yoki yengil jinoyat qilgan shaxs, jinoyat ishini yuritish vaqtida vaziyat o`zgarganligi munosabati bilan uning qilgan qilmishi o`zining ijtimoiy xavfliligini yo`qotsa yoki shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini deb topilsa javobgarlikdan ozod qilinishi belgilangan. Shuningdek, ushbu moddada korrupsiyaga oid jinoyatlar, yo`l harakati xavfsizligini buzish yoki spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar yoki boshqa mastlik holatida transpor vositalarini olib qochgan yoki diqqat va reaksiya tezligini kamaytiradigan tranportga oid jinoyatlar vaziyat o`zgarganligi sababli javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin emas.

Ukraina jinoyat qonunchiligida javobgarlikdan ozod qilishning eng oxirgi turi bu javobgarlikka tortish muddati o`tganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish hisoblanadi. Ushbu javobgarlikdan ozod qilish turi O`zbekiston Jinoyat kodeksida ham mustahkamlangan bo`lib, ular bir biriga o`xshash hisoblanadi. Ammo Ukraina JKning 49-moddasida moddasida mustahkamlab qo`yilgan javobgarlikka tortish muddatlariga bag`ishlangan normada, bizning jinoyat qonunchiligimizda nazarda tutilgan normadan farqli o`ziga xos jihatlari mavjud. Birinchidan, Ukraina JKning 49-moddasida jinoyat sodir etilganidan buyon 15 yil

o`tgani bo`lsa, jinoyat sodir qilgan shaxs javobgarlikdan ozod qilinishi belgilangan. Bu muddat O`zbekiston JKning 64-moddasida ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan va uncha og`ir bo`lmagan jinoyatlar uchun 10 yil, og`ir va o`ta og`ir jinoyatlar uchun esa 25 yil qilib belgilangan. Ikkinchidan, Ukraina JKda javobgarlikka tortish muddati tugamasidan shaxs yangi jinoyat sodir qilsa muddat uzilishi, ammo bundan ikki yildan ortiq bo`lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadigan yengil jinoyatlar mustasnoligi belgilab qo`yilgan. Muddatlarning uzilishiga oid O`zbekiston jinoyat qonunchiligida biroz o`zgacharoq qoida belgilangan bo`lib, bunda muddat uzulishiga oid normada asosiy e`tibor sodir etilgan jinoyatning og`ir yoki yengilligiga emas, balki dastlabki jinoyatning og`ir yengilligiga qaratilgan. Ya`ni agar og`ir yoki o`ta og`ir jinoyat sodir etgan shaxs ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlar o`tmasdan qasddan yangi jinoyat sodir etsa, muddatning o`tishi uziladi. Uchinchidan, Ukraina JKning 49-moddasida ushbu kodeksning 151² - 156¹, 301¹ – 303-moddalarda jinoyatlar sodir etilgan taqdirda muddatlarni hisoblash jabrlanuvchi voyaga yetgan yoki vafot etgan bo`lsa ham voyaga yetishi kerak bo`lgan kundan hisoblanadi. Biroq bizning jinoyat qonunchiligimizda ushbu normaga o`xshash norma mavjud emas.

Gruziya. Guruzya Jinoyat kodeksining ham XIII bobi “Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish” deb nomlangan bo`lib, ushbu bobda javobgarlikdan ozod qilishning quyidagi 4 ta turi belgilab qo`yilgan:

aybdor qilmishiga chin dildan pushaymon bo`lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish (68-modda);

vaziyat o`zgarishi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish (70-modda);

ayblanuvchining tergov organlari bilan hamkorligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish (70¹-modda);

javobgarlikka tortish muddati o`tganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish (71-modda)⁶⁷.

⁶⁷ Уголовный кодекс Республики Грузия от 22 июля 1999 г. (ред. от 29.05.2019 г.) // URL: <https://www.legislationline.org/ru/documents/section/criminal-codes> (дата обращения: 11.01.2020 г.)

Gruziya Jinoyat kodeksining 68-moddasida chin dildan pushaymon bo`lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishning asoslari ko`rsatib o`tilgan bo`lib, unga muvofiq birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, ushbu kodeks maxsus qismining bir moddasi yoki qismida nazarda tutilgan jinoyat uchun maksimal jazo 3 yil ozodlikdan mahrum qilishdan oshmasa javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin, agar u jinoyat sodir etilganidan keyin aybiga iqror bo`lgan, jinoyat ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo`lsa. Shuningdek, ushbu moddaning 2-qismida boshqa toifadagi jinoyatni sodir etgan shaxs, agar bu ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan bo`lsa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinligi belgilangan. Ko`rinib turibdiki, Gruziya Jinoyat kodeksida belgilangan ushbu norma bizning jinoyat qonunchiligimizda belgilangan qilmishiga pushaymon bo`lganligi sababli javobgarlikdan ozod qilish bilan deyarli bir xil, ammo bizning qonunchiligimizda ushbu javobgarlikdan ozod qilish doirsida Gruziyanikiga qaraganda insonparvarliroq normalar o`rnatilgan.

Gruziya Jinoyat kodeksida javobgarlikdan ozod qilishning yana bir muhim asosi vaziyat o`zgarganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish bo`lib, Gruziya JKning 70-moddasiga binoan, vaziyat o`zgarganligi sababli qilmish uchun jinoiy ta`qib qilish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, jinoyat sodir etgan shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin. Javobgarlikdan ozod qilishning ushbu turi ham milliy qonunchiligimizda mustahkamlangan bo`lib, Gruziyaniki bilan juda o`xshash. Ammo bizning jinoyat qonunchiligimizda vaziyat o`zgarganligi sababli javobgarlikdan ozod qilishni nazarda tutuvchi aniqroq norma kiritilgan. Ya'ni O`zbekiston JKda jinoyat ishini yuritishning qaysi bosqichida vaziyat o`zgarsa javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinligi aniq ko`rsatilgan.

Gruziya jinoyat qonunchiligiga 2004-yilda kiritilgan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning yangi turi, ya'ni ayblanuvchining tergov organlari bilan hamkorligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish instituti kiritilgan. Javobgarlikdan ozod qilishning ushbu turi MDHga a'zo boshqa davlatlarning jinoyat qonunchiligida

uchramaydi, shu qatorda O`zbekiston jinoyat qonunchiligida ham. Gruzuya JKning 70¹-moddasiga ko`ra, maxsus hollarda, ayblanuvchining tergov organlari bilan hamkorligi natijasida, o`ta og`ir jinoyat sodir etgan mansabdor shaxs yoki shaxs(lar) ning shaxsi aniqlanib, uning bevosita yordami bilan ushbu jinoyatni fosh etish uchun muhim shart-sharoit yaratish mumkin bo`lganida, sud ayblanuvchini jinoiy javobgarlikdan butunlay ozod qilishga haqlidir.

Javobgarlikdan ozod qilishning bu turi o`ta og`ir jinoyatlarni oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi, ammo ushbu norma biroz noaniqroq bayon qilingan.

Gruzuya jinoyat qonunchiligida javobgarlikdan ozod qilishning yana bir turi muddat o`tganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish hisoblanadi. Gruzuya JKning 71-moddasida quyidagi muddatlar o`tsa, shaxs javobgarlikdan ozod qilinishi belgilangan:

ushbu Kodeksning Maxsus qismining moddasida yoki moddasining bir qismida nazarda tutilgan eng yuqori jazo ikki yillik ozodlikdan mahrum qilishdan oshmagan jinoyat sodir etilganidan keyin ikki yil o`tgach;

uncha og`ir bo`lmagan boshqa jinoyat sodir etilganidan keyin olti yil o`tgach;

og`ir jinoyat sodir etilganidan keyin o`n yil o`tib;

ushbu Kodeksning 332 – 342¹-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar sodir etilganidan keyin o`n besh yil o`tgach, agar ular juda og`ir jinoyatlar toifasiga kirmasa.

ushbu Kodeksning 137-141-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar sodir etilganidan yigirma yil o`tgach, agar ular juda og`ir jinoyatlar toifasiga kirmasa;

o`ta og`ir jinoyat sodir etilganidan keyin o`ttiz yil o`tgach.

Shuningdek ushbu normaning 2-qismida javobgarlikka tortish muddati jinoyat sodir etilgan kundan boshlab va shaxs ayblanuvchi sifatida javobgarlikka tortilgunga qadar hisoblanishi va yangi jinoyat sodir etilgan taqdirda, har bir jinoyat uchun da'vo muddati alohida hisoblanishi belgilangan.

Ushbu moddaning 3 va 4-qismlarida esa, jinoyatni sodir etgan shaxs tergovdan yoki suddan yashiringan taqdirda, javobgarlikka tortish muddati to`xtatib turishi,

bunday holda, da'vo muddatining davom etishi aybdor ushlangan yoki taslim bo'lgan paytdan boshlab tiklanishi, shuningdek, muddatsiz ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxsga nisbatan da'vo muddatini qo'llash masalasi sud tomonidan hal qilinishi, agar sud da'vo muddatini qo'llashni iloji yo'q deb hisoblasa, muddatsiz ozodlikdan mahrum qilish muayyan muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilishi belgilangan.

Shu bilan birga, Guruzya JKning 71-moddasida javobgarlikka tortish muddati qo'llanilmaydigan holatlar ham mavjud bo'lib, bular quyidagilardan iborat:

Gruziyaning xalqaro shartnomasida nazarda tutilgan hollarda da'vo muddati qo'llanilmaydi;

Ushbu Kodeksning 144¹-144³-moddalarida ko'zda tutilgan harakatlarga, shuningdek, o'sha Kodeksning 137-141 va 253-255²-moddalarida nazarda tutilgan voyaga etmaganlarga nisbatan xatti-harakatlar sodir etilgan taqdirda, da'vo muddati qo'llanilmaydi;

da'vo muddati shaxs immunitet bilan himoyalangan muddatga ham to'xtatiladi.

Bundan tashqari, 71-moddaga binoan, Guruzyaga ekstraditsiya qilingan shaxsga nisbatan tegishli protsessual harakatlarni amalga oshirishning iloji bo'lmagan paytgacha ham javobgarlikka tortish muddati to'xtatib turiladi, ammo bundan ushbu moddaning 3 va 4-qismlarida nazarda tutilgan hollar mustasno. Shuningdek, Gruziyaning "Jinoyat huquqi sohasidagi xalqaro hamkorlik to'g'risida" gi Qonunining 42-moddasiga binoan, Gruziyaga keyingi sud ishlarini yuritish maqsadida jinoiy ish materiallari yoki ularning tegishli tartibda tasdiqlangan nusxalari yuborilganda, Gruziyada ish yurituvchi organ chet el davlatining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan da'vo muddatini o'tashni to'xtatib turish uchun asoslarni hisobga oladi, agar ular ushbu moddada nazarda tutilgan javobgarlikka tortish muddatini to'xtatib qo'yish asoslariga o'xshash bo'lsa.

Yuqoridagi Guruzya jinoyat qonunida nazarda tutilgan normadan ko'rinib turibdiki, bizning Jinoyat kodeksimizda mustahkamlab qo'yilgan muddat o'tganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish Guruzyanikiga qaraganda

insonparvarliroq hisoblanadi, sababi O`zbekiston JKda o`ta og`ir jinoyatlar uchun javobgarlikdan ozod qilish muddati 14 yil qilib belgilangan, ammo bu muddat Guruzya JKda 30 yil qilib belgilangan. Bundan tashqari bizda javobgarlikka tortish muddati jinoyat sodir etilgan vaqtdan sud hukmi qonuniy kuchga kirguncha bo`lgan vaqtgacha hisoblanadi, biroq Guruzyada bu jinoyat sodir etilgandan boshlab, shaxs ayblanuvchi sifatida javobgarlikka tortilgunga qadar hisoblanadi. Ammo Guruzya tajribasidan olishimiz kerak bo`lgan foydali ma'lumotlar ham mavjud. Jumladan, O`zbekiston JKda javobgarlikka tortish muddati o`tganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishni nazarda tutuvchi 64-moddada ekstraditsiya masalasi yoritilmagan, shuningdek voyaga yetmaganlarga nisbatan xatti-harakatlar sodir etilganda javobgarlikka tortish muddati qo`llanilmasligi ham O`zbekiston jinoyat qonunchiligida mavjud emas. Shu sababli ushbu normalarni jinoyat qonunchiligimizga kiritsak maqsadga muvofiq bo`lard.

Shu o`rinda, MDHga kirmaydigan boshqa rivojlangan xorijiy davlatlarning ham qonunchiligiga to`xtalib o`tsak. Romano-german va anglo-sakson yuridik oilalari mamlakatlarning jinoyat qonunlarini umumiy tahlil qilish shuni xulosa qilishga imkon beradi: aksariyat hollarda jinoyatchilikdan keyingi ijobiy xatti-harakatlarning baholanishi va oqibatlari faqat sud vakolatlariga tegishli. Shunga ko`ra, qonunda "jinoiy javobgarlikdan ozod qilish" atamasi deyarli ishlatilmaydi, bu "jinoyat ta'qibidan ozod qilish" tushunchasiga yo`l ochib beradi. Tabiiyki, bu, boshqa narsalar qatori, G`arb davlatlarining ijtimoiy va huquqiy tizimida sud (sudya) rolining ko`tarilishi bilan izohlanadi. Mahalliy qonunchilikda jinoiy javobgarlikdan ozod qilish deb ataladigan ko`plab muassasalar (muassasalar) chet el jinoyat qonunchiligida jazodan ozod qilish turlari sifatida harakat qilishadi va faqat sud idoralari ularni qo`llash huquqiga ega.

Germaniya. Germaniya jinoyat kodeksida javobgarlikdan ozod qilishni nazarda tutuvchi maxsus bob yoki bo`lim mavud emas. Ammo Germaniya JKning 78-moddasida javobgarlikka tortish muddatlari belgilangan bo`lib, bular quyidagilardan iborat:

- sodir etilishi uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan jinoyatlarga nisbatan 30 yil;
- eng yuqori jazo 10 yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish bo`lgan jinoyatlarga nisbatan 20 yil;
- sodir etilganligi uchun eng yuqori jazo besh yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bo`lgan jinoyatlarga nisbatan 10 yil;
- sodir etganligi uchun eng yuqori jazo bir yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bo`lgan jinoyatlarga nisbatan nisbatan besh yil;
- boshqa harakatlarga nisbatan uch yil.

Da'vo muddatining davomiyligi qonunda nazarda tutilgan jazo miqdoriga qarab, yengillashtiruvchi va og`irlashtiruvchi holatlar hisobga olinmasdan belgilanadi⁶⁸.

Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat kodeksining II bobi hukmni ijro etish muddatini tartibga soladi. Jinoyat kodeksining 79-bandiga binoan, hukumni ijro etishmuddati tugagandan so`ng, tayinlangan va qonuniy kuchga kirgan jazo yoki boshqa choralar bajarilishi mumkin emas. Bir umrga ozodlikdan mahrum qilish jazosining ijro etilishi eskirish muddati bilan istisno etilmaydi. Hukmni ijro etish muddati:

- 10 yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga nisbatan 25 yil;
- besh yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosiga nisbatan 20 yil;
- bir yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosiga nisbatan 10 yil;
- bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosiga va 30 kunlik stavkadan yuqori bo`lgan pul jarimasiga nisbatan besh yil;
- 30 kunlik stavka miqdoridagi pul jarimasiga nisbatan uch yil.

Profilaktik hibsga olish va xatti-harakatlarning muddatsiz nazoratini amalga oshirish da'vo muddati bilan istisno etilmaydi.

⁶⁸ Уголовный кодекс Федеративной Республики Германия / науч. ред. Д.А. Шестаков. СПб., 2003. С. 390.

Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat kodeksining 31-moddasida jinoyatda sheriklarning ixtiyoriy ravishda rad etish shartlari mavjud. Jinoyatga dalolat qiluvchi shaxs, agar u boshqa birovni jinoyat sodir etishga ishontirishga urinishdan ixtiyoriy ravishda bosh tortgan bo`lsa va boshqa shaxsning ushbu xatti-harakatni sodir etish xavfi oldini olgan bo`lsa, jazolanmaydi. Ishtirokchilik uchun jinoyat sodir etishda yordam berishdan bosh tortish kifoya. Agar sheriklarning sa'y-harakatlariga qaramay, jinoiy qilmish baribir sodir etilgan bo`lsa, ularning qilmishining oldini olishga qaratilgan ixtiyoriy va qat'iyatli harakatlari ushbu shaxslarning jazosiz qolishi uchun etarli.

Aybiga chin dildan pushaymon bo`lish tushunchasi Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat kodeksining Maxsus qismida eng ko`p qo`llanilgan. Shunday qilib, Germaniya JKning 83a-moddasiga ko`ra, aybdor o`z aybiga chin dildan pushaymon bo`lgan taqdirda, sud o`z xohishiga ko`ra jazoni engillashtirishi yoki og`ir jinoyatlar uchun jazodan ozod qilishi mumkin: federatsiyaga xiyonat qilish (§ 81); davlatga xiyonat qilish (§ 82); xiyonat qilishga tayyorgarlik (83-§). Ushbu jinoyatlar uchun eng yuqori jazo umrbod ozodlikdan mahrum qilish yoki 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish shaklida ta'minlanadi.

Aybiga chin dildan pushaymon bo`lish deganda, keyingi jinoiy harakatlardan ixtiyoriy ravishda voz kechish, vujudga kelgan va sezilgan xavfni yo`q qilish yoki sezilarli darajada pasaytirish, qilmishning yakunlanishiga ixtiyoriy ravishda yo`l qo`ymaslik kabi harakatlar tushuniladi.

Jinoyat qonuni sudning jazosini yengillashtirish yoki jazodan voz kechish huquqini faol pushaymonlik alomatlari mavjud bo`lganda va boshqa bir qator jinoyatlar uchun beradi (masalan, 84-m "Konstitutsiyaga zid deb topilgan partiya faoliyatini davom ettirish", 87-m "Sabotaj maqsadida yashirin faoliyati" va boshqalar)

Fransiya. Fransiyaning Jinoyat kodeksida ham jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish bo'yicha maxsus bo`lim mavjud emas. Biroq, alohida normalar jazodan ozod qilish masalalariga bag`ishlangan (Fransiya Jinoyat kodeksining 6-bo`limi).

Jazoni o`tashtan ozod qilish amnistiya va afv etish to`g`risidagi aktni qo`llash natijasida kelib chiqishi mumkin. Frantsiya Jinoyat kodeksining 133-7-moddasiga muvofiq, afv etish faqat hukmni ijro etishdan ozod qilinishga olib keladi. Amnistiya hukmning oqibatlarini yo`q qiladi. Bu barcha jazolarni o`z ta'sirini tiklash imkoniyatisiz bekor qiladi. Amnistiya jinoyatchining yoki sherikning jinoiy huquqbuzarlikni avvalgi sudlanganlik paytida unga berilishi mumkin bo`lgan jazo muddatini kechiktirish huquqini tiklaydi (Frantsiya Jinoyat kodeksining 133-9-moddalari).

Fransiyaning Jinoyat kodeksida aybiga chin ko`ngildan pushaymon bo`lish tushunchasi mavjud emas, ammo Maxsus qismning bir qator me'yorlarida ushbu asoslarga ko`ra jazodan ozod qilish nazarda tutilgan. Shunday qilib, Fransiya Jinoyat kodeksining 422-1-moddasiga binoan, terroristik harakatni amalga oshirishga uringan har qanday shaxs bu haqida ma'muriy yoki sud organlarini ogohlantirish orqali u qilmishni sodir etishdan qochib, zarurat tug`ilganda boshqa ishtirokchilarni aniqlasa, jazodan ozod qilinadi. Agar ushbu qilmish allaqachon sodir etilgan bo`lsa va jinoyatchi jinoiy harakatlarni to`xtatib, huquqni muhofaza qilish idoralariga jinoyat to`g`risida xabar bergan bo`lsa va shu bilan odamlarning o`limiga yoki sog`lig`iga jiddiy zarar etkazilishiga yo`l qo`ymasa, jazo ikki baravar kamaytirilishi mumkin.

§ 3.2. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishga oid milliy qonunchilik normalarini rivojlantirish.

O`zbekiston Respublikasi jinoiy qonunchiligida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish instituti yetarlicha batafsil ishlab chiqilganiga qaramay, tadqiqotlarimiz natijasida uning qonunchilik shakli va ichki tartibga solish nuqtai nazaridan bir qator kamchiliklari mavjudligi aniqlandi. Bu ko`rib chiqilayotgan muassasani takomillashtirish bo`yicha takliflar ishlab chiqish zarurligini anglatadi.

Shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish deganda jinoyat sodir qilgan, shuningdek, jinoyat yo`liga kirgan bo`lsa-da, ammo og`ir yoki o`ta ogir jinoyat sodir etilishining oldini olishga harakat qilgan shaxsga nisbatan Jinoyat kodeksida belgilangan asos va shartlar bilan JPK tartibida vakolatli davlat organi (tergov yoki sud) tomonidan sudning ayblov hukmi chiqarilgunga qadar ish yuritishning har qanday bosqichida (sudga qadar yoki sudda ish yuritish), ya`ni jazo yoki boshqa huquqiy ta`sir chorasini qo`llashdan voz kechib, sodir qilgan jinoiy qilmishning barcha oqibatlaridan ozod qilish tushuniladi.

Bizning fikrimizcha, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tushunchasi turlicha talqin qilinmasligi, ayniqsa, hozirgi amaliyotda bu masaladagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish maqsadida Jinoyat kodeksida ushbu tushuncha o`zining aniq ta`rifini topishi zarur.

Jinoyat kodeksining 14, 16, 18, 23, 27, 35, 42-moddalarida tegishincha, “jinoyat”, “jinoyat uchun javobgarlik”, “aqli rasolik”, “murakkab aybli jinoyat”, “jinoyatda ishtirokchilik”, “qilmishning jinoiyiligini istisno kiladigan xolatlar”, “jazo” tushunchaparining bayon etilgani ham mazkur yangi normani qo`shishni taqozo etadi.

Shuningdek, Jinoyat kodeksidagi javobgarlikdan ozod qilishni qo`llash mumkin bo`lgan moddalarning birortasida javobgarlikdan ozod qilishni sud yoki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan qo`llanilishi to`g`risida aytilmagan. Ammo jazodan ozod qilishni nazarda tutuvchi moddalarning deyarli barchasida

jazodan faqat sud ozod qilishi mumkinligi qayd qilingan. Shunga muvofiq, javobgarlikdan sud yoki boshqa jinoyat protsessi ishtirokchisi tomonidan ozod qilinishi qonunda aniq ko`rsatib qo`yilishi kerak deb hisoblaymiz.

Yuqoridagi kamchiliklarni hal qilishimiz uchun Jinoyat kodeksiga “Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning umumiy qoidalari” nomli yangi moddani kiritsak maqsadga muvofiq bo`ladi. Zero, ushbu institut to`g`risidagi umumiy qoidalarni nazarda tutuvchi norma ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida (Ukraina, Belerussiya) ham nazarda tutilgan. Ammo bizning jinoyat qonunchiligiga taklif qilayotgan ushbu norma yuqorida zikr qilingan xorijiy davlatlar jinoyat kodekslarida nazarda tutilgan normalardan farq qiladi. Ya`ni biz ilgari surayotgan ushbu normada jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning umumiy qoidalaridan tashqari, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tushunchasi ham aniq bayon qilinadi.

Mavjud amaliyotdan kelib chiqib, Jinoyat kodeksi yangi mazmundagi “Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning umumiy qoidalari” nomli norma bilan, ya`ni “Shaxs jinoyat sodir qilgan, shuningdek, ushbu Kodeks Maxsus qismining ayrim moddalarida nazarda tutilgan holatda jinoyat yo`liga kirgan, ammo o`z vaqtida jinoyat natijasida kelib chiqishi mumkin bo`lgan oqibatlarining oldini olishga harakat qilgan bo`lsa, unga nisbatan ushbu kodeksda belgilangan asos va shartlar bilan davlat organi tomonidan sudning ayblov hukmi chiqarilgunga qadar ish yuritishning har qanday bosqichida jazo yoki boshqa huquqiy ta`sir chorasini qo`llashdan voz kechib, sodir qilgan jinoiy qilmish barcha oqibatlarining bekor qilinishi jinoiy javobgarlikdan ozod qilish deb hisoblanadi.

Jinoiy javobgarlikdan ozod etishga shaxs jinoyat ishi bo`yicha ayblanuvchi sifatida jalb qilingan paytdan boshlab va sud hukm chiqarish uchun maslahat xonasiga kirguniga qadar yo`l qo`yiladi.

Jinoiy javobgarlikdan ozod etishning javobgarlikka tortish muddatining o`tib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish (64-m), qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo`qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish (65-m), aybdor o`z qilmishiga amalda pushaymon bo`lganligi munosabati bilan javobgarlikdan

ozod qilish (66-m) turlari asosida javobgarlikdan ozod qilish ham tergov, ham sud organlari tomonidan amalga oshiriladi. Yarashuv (66¹-m), kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish (67-m), amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish (68-m) faqat sud tomonidan hal qilinadi”.

Shuningdek, jinoyat qonunchiligimizda javobgarlikdan ozod qilishning muddat o`tib ketganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish turida ham muammo va kamchiliklar mavjud. Jumladan, Jinoyat kodeksining 64-moddasi 4-qismida og`ir yoki o`ta og`ir jinoyat sodir qilgan shaxs ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlar o`tmasdan qasddan yangi jinoyat sodir qilsa, muddatning uzilishi belgilangan. Biroq bunda aynan og`ir yoki o`ta og`ir jinoyat sodir etgan shaxsning qasddan yangi jinoyat sodir qilishi zaruriy belgi qilib ko`rsatilganda qonunshunos qanaqa asosdan kelib chiqqanligi noma`lum. Maboda shaxs ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan yoki uncha og`ir bo`lmagan jinoyatni sodir qilgandan keyin muddat o`tmasdan yangi og`ir yoki o`ta og`ir jinoyat sodir qilsa, muammo qanday yechilishi masalasi jinoyat qonun hujjatlarida aniq ko`rsatilmagan. Shu sababli, JK 64-moddasi 4-qismida muddat uzilishini nazarda tutuvchi normaga, og`ir yoki o`ta og`ir jinoyat sodir qilgan shaxs ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan muddatlar o`tmasdan yana og`ir yoki o`ta og`ir jinoyat sodir qilsa muddat o`tishi uziladi deb o`zgartirish kiritilsa maqsadga muvofiq bo`lardi.

Bundan tashqari, JKning 85-moddasida voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosi voyaga yetgan shaxslarga nisbatan ancha kam muddatga tayinlanishi belgilangan. Albatta bu qonunchiligimizdagi ijobiy, insonparvar qoida hisoblanadi, ammo jinoyat qonunchiligimizda voyaga yetmaganlarga nisbatan javobgarlikka tortish muddati o`tganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishga oid hech qanday yengilliklar mavjud emas. Shu sababli, JKning 85-moddasida nazara tutilgan ijobiy xususiyatni voyaga yetmaganlarni muddat o`tganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishga ham tatbiq qilgan holda, JKning 64-moddasida nazarda

tutilgan muddatlarni voyaga yetmaganlarga nisbatan yarmiga qisqartirilsa maqsadga muvofiq bo`lardi.

Shu bilan birga, jinoyatga tayyorgarlik va suiqasd qilinganda, moddiy va formal jinoyatlarda, ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlarda tashkilotchi, dalolatchi, bajaruvchi va yordamchi harakatlarida o`tish muddatining boshlanishi, bir necha jinoyatlar sodir etilganda, davomli, uzoqqa cho`zilgan, takroriy jinoyatlarda muddat o`tishi boshlanishining o`ziga xos tomonlari mavjud bo`lib, ularni ochib berish uchun Oliy sud Plenumi tomonidan tegishli tushuntirishlar berilsa, jinoyatchilikka qarshi kurashda samaradorlikka erishilgan bo`lar edi.

Shunday qilib yuqorida bayon qilinganlarni inobatga olgan holda JKning 64-moddasi quyidagicha bayon qilinishi lozim:

Agar jinoyat sodir etilgan kundan boshlab, davomli jinoyatlarda jinoyat tamom bo`lgan, uzoqqa cho`zilgan jinoyatlarda aniqlangan kundan boshlab quyidagi muddatlar:

a) ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab — ikki yil;

b) uncha og`ir bo`lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab — to`rt yil;

v) og`ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab — sakkiz yil;

g) o`ta og`ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab (ushbu moddaning 7 va 8-qismi bundan mustasno) — o`n to`rt yil o`tgan bo`lsa, shaxs javobgarlikdan ozod qilinadi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan javobgarlikka tortish muddatlari voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlikdan ozod etishda yarmiga qisqartiriladi.

Javobgarlikka tortish muddati jinoyat sodir etilgan kundan boshlab hukm qonuniy kuchga kirgan kungacha hisoblanadi.

Agar jinoyat sodir etgan va jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxs tergov yoki suddan yashirinsa, muddatning o`tishi to`xtatiladi. Aybdor ushlangan yoki aybini bo`yniga olib arz qilgan kundan boshlab muddatning o`tishi qaytadan tiklanadi.

Agar og`ir yoki o`ta og`ir jinoyat sodir etgan shaxs ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlar o`tkazilganidan yana og`ir yoki o`ta og`ir jinoyat sodir etsa, muddatning o`tishi uziladi. Bunday holda javobgarlikka tortish muddatlari yangi jinoyat sodir etilgan kundan boshlab hisoblanadi. Qolgan hollarda, agar shaxs javobgarlikka tortish muddatlari o`tkazilganidan yangi jinoyat sodir etsa, bu muddatlar har bir jinoyat uchun alohida hisoblanadi.

Agar ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan yoki uncha og`ir bo`lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab o`n yil, og`ir yoki o`ta og`ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab yigirma besh yil o`tkazilgan bo`lsa va muddatning o`tishi uzilmagan bo`lsa, jinoyat ishining to`xtatilganidan qat`iy nazar ushbu moddaning 7 va 8-qismlari bundan mustasno), shaxs javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Ushbu Kodeks Maxsus qismining moddasida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan, javobgarlikka tortish muddatlarini qo`llash masalasi sud tomonidan hal qilinadi. Agar sud javobgarlikka tortish muddatini qo`llashni lozim topmasa, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi o`rniga ozodlikdan mahrum qilish tayinlanadi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlar ushbu Kodeksning 150 — 157-moddalarida, 158-moddasining birinchi qismida, 159-moddasining uchinchi va to`rtinchi qismlarida, 160, 161 va 244²-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan qo`llanilmaydi.

Jinoyat qonunchiligimizda javobgarlikdan ozod qilishning eng keng qo`llaniladigan turlaridan biri yarashuv instituti hisoblanadi. Ushbu institut jinoyat qonunchiligimizga 2001-yilda kiritilgan bo`lib, bugungi kunga qadar muntazam ravishda takomillashtirishda bo`lib kelmoqda. Ammo shunga qaramay, jinoyat va jinoyat protsessual kodeksimizda ushbu institutga oid yetarlicha muammo va kamchiliklar mavjud. Jumladan, O`zbekiston Respublikasi JPKning 583-moddasida yarashuv to`g`risidagi ariza jabrlanuvchi (fuqaroviy da`vogar) yoxud uning qonuniy vakili tomonidan surishtiruv va dastlabki tergovning, shuningdek sud muhokamasining

istalgan bosqichida, ammo sud maslahatxonaga kirishdan oldin berilishi mumkinligi qat'iy belgilab qo'yilgan. Ya'ni jinoyat qonunchiligimizga binoan yuqori instansiya sudlarida yarashuvni qo'llab bo'lmaydi. Holbuki, amaliyotda birinchi bosqich sudi JKning 66¹-moddasida ko'rsatilgan jinoyatlar toifasiga kiritilgan ishlarni ko'rish jarayonida taraflardan yarashuv haqidagi ariza kelib tushmagan taqdirda ish yuzasidan ayblov hukmi chiqarilgandan so'ng, taraflardan yarashuv haqidagi arizalar kelib tushishi hollari ko'plab uchramoqda.

Bundan tashqari, Qonunchiligimizda sud ishni ko'rib chiqib, aybdorning harakatlarini yarashuv instituti doirasiga tushadigan Jinoyat kodeksi Maxsus qismining moddasiga o'zgartirgan hollarda unga nisbatan JKning 66¹-moddasini qo'llash imkoniyati mavjud emas edi.

Muhtaram Prezidentimizning 2020-yil 10-avgustdagi "Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, shaxsga e'lon qilingan ayblov, jinoyat ishi sudning qaysi instantsiyasida ko'rilayotganligidan qat'iy nazar, yarashuv instituti doirasiga tushadigan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining moddasi yoki qismiga o'zgartirilgan hollarda yarashuv institutini qo'llash tartibini joriy qilish bo'yicha qonunchilikka o'zgartirish kiritish to'g'risidagi takliflariga mutloq qo'shilamiz.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 66¹-moddasida og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmasligi belgilangan. Biroq, amaliyotda og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar ushbu moddalarda nazarda tutilgan jinoyatlarni ehtiyotsizlik natijasida sodir qilgan va aybiga iqror bo'lib, jabrlanuvchi bilan yarashib, yetkazilgan zararni to'liq qoplagan taqdirda ham jinoiy javobgarlikka tortilmoqda.

Yuqorida qayd etilgan Farmonda og`ir yoki o`ta og`ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod etilmasligiga oid qoida voyaga yetmaganlar, birinchi va ikkinchi guruh nogironlari, ayollar, oltmish yoshdan oshgan erkaklar va ehtiyotsizlik orqasida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo`llanilmasligi haqidagi tartib o`rnatiladi. Farmondagi ushbu takliflarga qisman qo`shilaman. Bizningcha, ushbu normani yanada leberallashtirilsa maqsadga muvofiq bo`lardi. Ya`ni, Jkning 66¹-moddasi oxirgi qismida nazarda tutilgan norma quyidagicha bayon qilinsa maqsadga muvofiq bo`lardi: “o`ta og`ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi, o`n sakkiz yoshga to`lmagan shaxslar, birinchi va ikkinchi guruh nogironlari, ayollar, shuningdek oltmish yoshdan oshgan erkaklar hamda ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatlarni ehtiyotsizlik orqasida sodir etgan shaxslar bundan mustasno”.

JPKning 583-moddasida yarashuv haqidagi arizani qabul qilish paytida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jabrlanuvchiga yoki uning qonuniy vakiliga sud yarashuvni tasdiqlasa, u mazkur ish bo`yicha ish yuritishni qayta tiklash to`g`risida iltimosnoma berish huquqini yo`qotishini tushuntirilishi kerakligi belgilab qo`yilgan. Ammo amaliyotda ba`zi bir hollarda aybdorlar jabrlanuvchini unga yetkazilgan zararni keyin to`lashga ishontirib, yarashuv asosida javobgarlikdan ozod qilingandan so`ng, jabrlanuvchiga yetkazgan zararini qoplab bermayapti. Natijada jabrlanuvchilar ishni tiklanishini so`rab huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishmoqda. Holbuki, JPK normalariga muvofiq mazkur ish bo`yicha ish yurutuvni qayta tiklash mumkin emas.

Shu sababli qonuchiligimizdagi ushbu muammoni hal qilish uchun Jinoyat-protsessual kodeksining 583-moddasiga 5-bandi quyidagicha bayon qilinsa maqsadga muvofiq bo`lardi: “Arizani qabul qilish paytida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va

sud jabrlanuvchiga yoki uning qonuniy vakiliga sud yarashuvni tasdiqlasa, u mazkur ish bo'yicha ish yuritishni qayta tiklash to'g'risida iltimosnoma berish huquqini yo'qotishini, biroq aybdor shaxs yarashuv shartlarini buzib yetkazilgan zararni o'z vaqtida qoplamagan bo'lsa, u bir yil ichida mazkur ish bo'yicha ish yurituvni qayta tiklash bo'yicha iltimosnoma berish huquqi borligini tushuntirishi shart". Ushbu qoida Litva jinoyat qonunchiligida ham mavjud bo'lib, unga ko'ra agar aybdor jabrlanuvchi bilan yarashuvga erishilgandan so'ng bir yil ichida yarashuv shartlarini bajarmasa, yetkazilgan zararni qoplamasa sud yarashuvni bekor qilib javobgarlikka tortishi mumkin.

Jinoyat qonunchiligimizdagi javobgarlikdan ozod qilish institutini yanada rivojlantirish uchun qonunchiligimizga javobgarlikda ozod qilishning yangi turini, ya'ni shaxsni jamoat tashkilotlariga kafillikka berish sababli javobgarlikdan ozod qilishni kiritsak maqsadga muvofiq bo'lardi. Javobgarlikda ozod qilishning ushbu turi Ukraina davlatida mavjud bo'lib, biz ushbu davlat tajribasini o'rganib chiqdik va javobgarlikdan ozod qilishning ushbu turi ham jinoyatchilikka qarshi kurashda muhim ahamiyatga ega ekanligiga amin bo'ldik. Shu sababli, amaldagi Jinoyat kodeksiga "Shaxsni jamoat tashkilotiga kafillikka berish sababli javobgarlikdan ozod qilish" deb nomlangan yangi 65¹-modda, ya'ni "ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatni birinchi marotaba sodir etgan va qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan shaxs jamoat tashkilotlarining iltimosnomasiga binoan garov puli evaziga jamoat tashkiloti kafilligiga berilib, javobgarlikdan ozod etilishi mumkin.

Agar shaxs bir yil ichida kafillik shartlarini buzsa, o'zi sodir qilgan jinoyati uchun javobgarlikka tortiladi".

Bu o'rinda gap jamoat tashkilotlari, ya'ni fuqarolik jamiyati institutlarida — nodavlat tashkilotda ishlagan, jinoyat sodir etgan shaxs haqida bormoqda. Javobgarlikdan ozod etishning mazkur turining afzalligi shundaki, jamiyatni demokratlashtirish, fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirish bilan bog'liq islohotlarning hozirgi bosqichida jamoat nazoratini amalga oshirishga alohida e'tibor

berilmoqda. Fuqarolik jamiyatiga xos faoliyat bilan shug'ullanayotgan jamoat tashkiloti ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatni sodir etib qilmishiga pushaymon bo'lgan shaxsni o'z tarbiyasiga olishi mumkin, chunki javobgarlikning murakkabligini to'liq anglagan holda qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lib tuzalish yo'liga o'tgan bo'lsa, kafillikka olish yo'li bilan unda ijobiy xulq-atvorning shakllanishiga erishish mumkinligi shubhasizdir.

Jinoyat kodeksining 67-moddasida nazarda tutilgan javobgarlikdan ozod qilishning yana bir turi kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilishda ham muammo mavjudmavjud. Ya'ni JKning 67-moddasida agar jinoyat sodir etgan shaxsda hukm chiqarilguniga qadar o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan tarzda ruhiy holatning buzilishi yuzaga kelgan bo'lsa, u javobgarlikdan ozod qilinishi, bunday shaxs ushbu Kodeksning 64-moddasida nazarda tutilgan muddatlar o'tmasdan tuzalsa, javobgarlikka tortilishi va bunday holda javobgarlikka tortish muddatlari sud tomonidan tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llanilgan kundan hisoblanishi belgilangan. Ammo JKning 64-moddasiga muvofiq javobgarlikka tortish muddati jinoyat sodir qilingan kundan boshlab hisoblanadi. Ko'rinib turibdiki JKning 64 va 67-moddalarida muddatlar yuzasidan muammolar mavjud. Keling ushbu muammoni quyidagi amaliy misolda ko'rib chiqsak. **A** ismli shaxs 01.01.2018-yilda Jinoyat kodeksining 105-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir qildi. JKning 105-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat uchun maksimal jazo 3 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish qilib belgilangan. **A** JKning 64-moddasiga muvofiq 01.01.2020-yilgacha javobgarlikka tortilishi mumkin. Ammo 01.12.2019-yilda **A** ning qilgan jinoyati aniqlanib, tergov qilinib sudga yuborildi. Biroq **A** sud ruhiy kasal deb topib, tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'lash to'g'risida ajrim chiqardi. Ushbu holatda javobgarlikka tortish muddati JKning 67-moddasiga muvofiq **A** ga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov chorsini qo'llanilgan vaqtdan boshlab hisoblanadi. Demak, shaxs bu vaziyatda 01.01.2021-yilgacha javobgarlikka tortilishi mumkin. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, JKning 67-moddasida nazarda tutilgan

ushbu norma shaxsning holatini og`irlashtiryapti va bu jinoyat qonunchiligining insonparvarlik prinsipiga zid hisoblanadi. Shu sababli JKning 67-moddasini JKning 64-moddasiga muvofiqlashtirilsa maqsadga muvofiq bo`lardi.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish bilan bog`liq JKning Maxsus qismidagi normalar fkrimizcha, yanada takomillashtirilishi kerak. O`rganishimiz jarayonida mazkur masala yuzasidan MDHning qator davlatlari Jinoyat kodekslarining Maxsus qismidagi javobgarlikdan ozod etish bilan bog`liq normalar O`zbekiston Respublikasi JKning tegishli moddalari bilan qiyosiy tahlil qilganimizda quyidagilar ma`lum bo`ldi. Masalan, Rossiy Federatsiyasi JKning Maxsus qismida OIV kasalligini tarqatish (122-m), odam o`g`irlash (126-m), odam savdosi (127¹-m), jismoniy shaxsdan soliq va to`lovlarni to`lashdan bo`yin tovlash (184-m), garov olish (206), yolg`on guvohlik berish (307), jinoyatni yashirish (316-m), harbiy qism yoki xizmat joyini o`zboshimchalik bilan tashlab ketish (287), dezertirlik (388) kabi, Belarus Respublikasining JKda jinoyat faoliyatidan olingan daromadlarni legallashtirish (235-m), fitna yoki davlat hokimiyatini egallash maqsadida sodir etilgan boshqa harakatlar (357-m), guvoh yoki jabrlanuvchinig yoxud ekspert yoki tarjimonning o`ziga yuklatilgan majburiyatini bajarishni rad etishi yoki bo`yin tovlashi (402-m), jinoyat haqida xabar bermaslik (406-m), shuningdek, Ukraina, Moldava, Armaniston, Ozarbayjon, Qozog`iston Respublikalarining Jinoayt kodeksilari Maxsus qismida yuqoridagi o`xshash jinoyatlar yuzasidan javobgarlikdan ozod etishga oid normalar mavjud.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalar va xorijiy davlatlar tajribasiga asosan, Jinoyat kodeksi Maxsus qismidagi 135, 137, 245, 287, 288, 290, 273, 276-moddalariga jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni nazarda tutuvchi alohida normalar kiritilsa maqsadga muvofiq bo`lardi.

XULOSA

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish sohasi bo'yicha to'plangan nazariy hamda amaliy bilimlarni umumlashtirish, tanqidiy tahlil qilish davomida tadqiqot mavzusidan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelindi va ular ikki qismdan iborat holda bayon qilingan.

I. Jinoyat huquqi nazaryasini rivojlantirish bo'yicha xulosalar va takliflar:

1. Jinoiy javobgarlikdan ozod etish institutlari jinoyat huquqining boshqa soha yoki institutlari kabi tarixiy-huquqiy jihatdan tadrijiylik, ya'ni asta-sekinlik, bosqichma-bosqich rivojlanish xususiyatiga ega bo'lib, o'zida insonparvarlilik tamoyilini singdirgani bilan ajralib turadi.

2. Jinoyat kodeksining Umumiy va Maxsus qismidagi ayrim moddalari dispozitsiyasida ko'rsatilgan shartlar shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

3. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning asosi bo'lib nafaqat shaxsning va jinoyatning ijtimoiy xavfi yuqori emasligi, ayni paytda Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan shartlarning bajarilishi ham talab qilinadi. Jumladan, Jinoyat kodeksining 66¹-moddasida shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslaridan tashqari yana 4 ta shart mavjud bo'lib, bular:

- 1) shaxsning aybiga iqror bo'lishi;
- 2) jabrlanuvchi bilan yarashishi;
- 3) yetkazilgan zararni bartaraf etishi;
- 4) sodir qilingan jinoyatning Jinoyat kodeksi 66¹-moddasi dispozitsiyasida ko'rsatilgan jinoyatlar tarkibiga kiritilganligi kabi shartlar hisoblanadi va ushbu shartlardan birortasining bo'lmasligi jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni qo'llamaslikka asos bo'ladi.

4. Aybdorga nisbatan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning qo'llanilishi jinoiy jazolarni libeallashtirish bilan bog'liq hozirgi davrda majburlov choralarning tejash

tamoyili ro'yobga chiqarishda ko'maklashish barobarida jinoyatchilikka qarshi kurashda samara beradi va bu o'z navbatida jinoyatlarning oldini olishga imkon yaratilganidan dalolat beradi.

5. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tushunchasi turlicha talqin qilinmasligi, ayniqsa, hozirgi amaliyotda bu masaladagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish maqsadida Jinoyat kodeksida ushbu tushuncha o'zining aniq ta'rifini topishi zarur.

Jinoyat kodeksining 14, 16, 18, 23, 27, 35, 42-moddalarida tegishincha, "jinoyat", "jinoyat uchun javobgarlik", "aqli rasolik", "murakkab aybli jinoyat", "jinoyatda ishtirokchilik", "qilmishning jinoiyligini istisno kiladigan xolatlar", "jazo" tushunchalarining bayon etilgani ham mazkur yangi normani qo'shishni taqozo etadi.

Mavjud amaliyotdan kelib chiqib, Jinoyat kodeksi yangi mazmundagi **"Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning umumiy qoidalari"** nomli norma bilan, ya'ni *"Jinoyat sodir etgan shaxs, agar sodir etgan qilmishining xususiyatlari, aybdorning shaxsi va ishning boshqa holatlarini e'tiborga olib, uni jazo qo'llamasdan turib ham tuzatish mumkin degan xulosaga kelinsa, shuningdek ushbu Kodeks Maxsus qismining alohida moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etganidan so'ng qonun dispozitsiyasida belgilangan harakatlarni bajargan shaxs ushbu kodeksda belgilangan tartibda tergov va sud organlari tomonidan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.*

Jinoiy javobgarlikdan ozod etishga shaxs jinoyat ishi bo'yicha gumonlanuvchi sifatida jalb qilingan paytdan boshlab va sud hukm chiqarish uchun maslahat xonasiga kirguniga qadar yo'l qo'yiladi.

Jinoiy javobgarlikdan ozod etishning javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish (64-m), qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish (65-m), aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish (66-m) turlari asosida javobgarlikdan ozod qilish ham tergov ham sud organlari tomonidan amalga oshiriladi. Yarashuv (66¹-m), kasallik

tufayli javobgarlikdan ozod qilish (67-m), amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish (68-m) faqat sud tomonidan hal qilinadi”.

II. Jinoyat qonunchiligini takomillashtirish bo`yicha takliflar:

1. Jinoyat qonunchiligimizda javobgarlikdan ozod qilishning muddat o`tib ketganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish turida ham muammo va kamchiliklar mavjud, degan xulosaga kelindi. Jumladan, Jinoyat kodeksining 64-moddasi 4-qismida og`ir yoki o`ta og`ir jinoyat sodir qilgan shaxs ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlar o`tmasdan qasddan yangi jinoyat sodir qilsa, muddatning uzilishi belgilangan. Biroq bunda aynan og`ir yoki o`ta og`ir jinoyat sodir etgan shaxsning qasddan yangi jinoyat sodir qilishi zaruriy belgi qilib ko`rsatilganda qonunshunos qanaqa asosdan kelib chiqqanligi noma'lum. Maboda shaxs ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan yoki uncha og`ir bo`lmagan jinoyatni sodir qilgandan keyin muddat o`tmasdan yangi og`ir yoki o`ta og`ir jinoyat sodir qilsa, muammo qanday yechilishi masalasi jinoyat qonun hujjatlarida aniq ko`rsatilmagan. Shu sababli, **JK 64-moddasi 4-qismida** muddat uzilishini nazarda tutuvchi normaga, *og`ir yoki o`ta og`ir jinoyat sodir qilgan shaxs ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan muddatlar o`tmasdan yana og`ir yoki o`ta og`ir jinoyat sodir qilsa muddat o`tishi uziladi* deb o`zgartirish kiritilsa maqsadga muvofiq bo`lardi.

2. Jinoyat kodeksi 6-bo`lmining 81-90-moddalari voyaga yetmaganlarning javobgarligiga oid qoidalarni belgilagan bo`lib, ularga ko`ra voyaga yetmaganlarning javobgarligi bir muncha yengil belgilangan. Albatta bu qonunchiligimizdagi ijobiy, insonparvar qoida hisoblanadi, ammo jinoyat qonunchiligimizda voyaga yetmaganlarga nisbatan javobgarlikka tortish muddati o`tganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishga oid hech qanday yengilliklar mavjud emas. Shu sababli, Jinoyat kodeksining 6-bo`lmida nazara tutilgan ijobiy xususiyatni voyaga yetmaganlarni muddat o`tganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishga ham tatbiq qilgan holda, JKning 64-moddasida nazarda tutilgan muddatlarni voyaga yetmaganlarga nisbatan yarmiga qisqartirilsa maqsadga muvofiq bo`lardi edi.

Shunga ko`ra, **JKning 64-moddasini** quyidagi mazmundagi yangi qism bilan to`ldirish taklif etiladi: – *“Agarda shaxs ushbu moddada nazarda tutilgan jinoyatlarni o`n sakkiz yoshga to`lgunga qadar sodir etgan bo`lsa, belgilangan muddatlar tegishli ravishda teng yarmiga qisqartiriladi”*.

Shu bilan birga, jinoyatga tayyorgarlik va suiqasd qilinganda, moddiy va formal jinoyatlarda, ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlarda tashkilotchi, dalolatchi, bajaruvchi va yordamchi harakatlarida o`tish muddatining boshlanishi, bir necha jinoyatlar sodir etilganda, davomli, uzoqqa cho`zilgan, takroriy jinoyatlarda muddat o`tishi boshlanishining o`ziga xos tomonlari mavjud bo`lib, ularni ochib berish uchun Oliy sud Plenumi tomonidan tegishli tushuntirishlar berilsa, jinoyatchilikka qarshi kurashda samaradorlikka erishilgan bo`lar edi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda Jinoyat kodeksi 64-moddasi quyidagi tahrirda bayon etilishi lozim:

“64-modda. Javobgarlikka tortish muddati o`tib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish

Agar jinoyat sodir etilgan kundan boshlab, davomli jinoyatlarda jinoyat tamom bo`lgan, uzoqqa cho`zilgan jinoyatlarda aniqlangan kundan boshlab quyidagi muddatlar:

a) ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab — ikki yil;

b) uncha og`ir bo`lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab — to`rt yil;

v) og`ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab — sakkiz yil;

g) o`ta og`ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab (ushbu moddaning 7 va 8-qismi bundan mustasno) — o`n to`rt yil o`tgan bo`lsa, shaxs javobgarlikdan ozod qilinadi.

Agarda shaxs ushbu moddada nazarda tutilgan jinoyatlarni o`n sakkiz yoshga to`lgunga qadar sodir etgan bo`lsa, belgilangan muddatlar tegishli ravishda teng yarmiga qisqartiriladi.

Javobgarlikka tortish muddati jinoyat sodir etilgan kundan boshlab hukm qonuniy kuchga kirgan kungacha hisoblanadi.

Agar jinoyat sodir etgan va jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxs tergov yoki suddan yashirinsa, muddatning o`tishi to`xtatiladi. Aybdor ushlangan yoki aybini bo`yniga olib arz qilgan kundan boshlab muddatning o`tishi qaytadan tiklanadi.

*Agar og`ir yoki o`ta og`ir jinoyat sodir etgan shaxs ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlar o`tmasdan **yana og`ir yoki o`ta og`ir jinoyat sodir etsa**, muddatning o`tishi uziladi. Bunday holda javobgarlikka tortish muddatlari yangi jinoyat sodir etilgan kundan boshlab hisoblanadi. Qolgan hollarda, agar shaxs javobgarlikka tortish muddatlari o`tmasdan yangi jinoyat sodir etsa, bu muddatlar har bir jinoyat uchun alohida hisoblanadi.*

*Agar ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan yoki uncha og`ir bo`lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab o`n yil, og`ir yoki o`ta og`ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab yigirma besh yil o`tgan bo`lsa va muddatning o`tishi uzilmagan bo`lsa, jinoyat ishining to`xtatilganidan qat`iy nazar ushbu moddaning **7 va 8-qismlari** bundan mustasno), shaxs javobgarlikka tortilishi mumkin emas.*

Ushbu Kodeks Maxsus qismining moddasida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan, javobgarlikka tortish muddatlarini qo`llash masalasi sud tomonidan hal qilinadi. Agar sud javobgarlikka tortish muddatini qo`llashni lozim topmasa, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi o`rniga ozodlikdan mahrum qilish tayinlanadi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlar ushbu Kodeksning 150 — 157-moddalarida, 158-moddasining birinchi qismida, 159-moddasining uchinchi va to`rtinchi qismlarida, 160, 161 va 244²-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan qo`llanilmaydi”.

3. Jinoyat kodeksiga quyidagi tahrirda “Shaxsni kafillikka berish orqali javobgarlikdan ozod qilish” nomli yangi 65¹-modda kiritilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

“65¹-modda. Shaxsni kafillikka berish orqali javobgarlikdan ozod qilish

Ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan yoki uncha og`ir bo`lmagan jinoyatni birinchi marotaba sodir etgan va qilmishiga chin ko`ngildan pushaymon bo`lgan shaxs korxonasi, muassasi va tashkilotlarning iltimosnomasiga binoan, ularning kafilligiga berilib, javobgarlikdan ozod etilishi mumkin.

Agar shaxs bir yil ichida kafillik shartlarini buzsa, o`zi sodir qilgan jinoyati uchun javobgarlikka tortiladi”.

4. O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 66¹-moddasida og`ir yoki o`ta og`ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmasligi belgilangan. Biroq, amaliyotda og`ir yoki o`ta og`ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar ushbu moddalarda nazarda tutilgan jinoyatlarni ehtiyotsizlik natijasida sodir qilgan va aybiga iqror bo`lib, jabrlanuvchi bilan yarashib, yetkazilgan zararni to`liq qoplagan taqdirda ham jinoiy javobgarlikka tortilmoqda.

Muhtaram Prezidentimizning **2020-yil 10-avgustdagi “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmoniga** muvofiq og`ir yoki o`ta og`ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod etilmasligiga oid qoida voyaga yetmaganlar, birinchi va ikkinchi guruh nogironlari, ayollar, oltmish yoshdan oshgan erkaklar va ehtiyotsizlik orqasida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo`llanilmasligi haqidagi tartib o`rnatiladi. Farmondagi ushbu takliflarga qisman qo`shilaman. Bizningcha, ushbu normani yanada leberallashtirilsa maqsadga muvofiq bo`lardir. Ya`ni, **Jkning 66¹-moddasi oxirgi qismida** nazarda

tutilgan norma quyidagicha bayon qilinsa maqsadga muvofiq bo`lardi: *“o`ta og`ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi, o`n sakkiz yoshga to`lmagan shaxslar, birinchi va ikkinchi guruh nogironlari, ayollar, shuningdek oltmish yoshdan oshgan erkaklar hamda ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatlarni ehtiyotsizlik orqasida sodir etgan shaxslar bundan mustasno”*.

5. Jinoyat-protsessual kodeksining 583-moddasida yarashuv haqidagi arizani qabul qilish paytida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jabrlanuvchiga yoki uning qonuniy vakiliga sud yarashuvni tasdiqlasa, u mazkur ish bo`yicha ish yuritishni qayta tiklash to`g`risida iltimosnoma berish huquqini yo`qotishini tushuntirilishi kerakligi belgilab qo`yilgan. Ammo amaliyotda ba`zi bir hollarda aybdorlar jabrlanuvchini unga yetkazilgan zararni keyin to`lashga ishontirib, yarashuv asosida javobgarlikdan ozod qilingandan so`ng, jabrlanuvchiga yetkazgan zararini qoplab bermayapti. Natijada jabrlanuvchilar ishni tiklanishini so`rab huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishmoqda. Holbuki, JPK normalariga muvofiq mazkur ish bo`yicha ish yurutuvni qayta tiklash mumkin emas.

Shu sababli qonuchiligimizdagi ushbu muammoni hal qilish uchun **Jinoyat-protsessual kodeksining 583-moddasiga 5-bandi** quyidagicha bayon qilinsa maqsadga muvofiq bo`lardi: *“Arizani qabul qilish paytida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jabrlanuvchiga yoki uning qonuniy vakiliga sud yarashuvni tasdiqlasa, u mazkur ish bo`yicha ish yuritishni qayta tiklash to`g`risida iltimosnoma berish huquqini yo`qotishini, biroq aybdor shaxs yarashuv shartlarini buzib yetkazilgan zararni o`z vaqtida qoplamagan bo`lsa, u bir yil ichida mazkur ish bo`yicha ish yurituvni qayta tiklash bo`yicha iltimosnoma berish huquqi borligini tushuntirishi shart”*.

Ma`lumki, amaliyotda birinchi bosqich sudi JKning 66¹-moddasida ko`rsatilgan jinoyatlar toifasiga kiritilgan ishlarni ko`rish jarayonida taraflardan yarashuv haqidagi

ariza kelib tushmagan taqdirda ish yuzasidan ayblov hukmi chiqarilgandan so`ng, taraflardan yarashuv haqidagi arizalar kelib tushishi hollari ko`plab uchramoqda.

Bundan tashqari, Qonunchiligimizda sud ishni ko`rib chiqib, aybdorning harakatlarini yarashuv instituti doirasiga tushadigan Jinoyat kodeksi Maxsus qismining moddasiga o`zgartirgan hollarda unga nisbatan JKning 66¹-moddasini qo`llash imkoniyati mavjud emas edi.

Muhtaram Prezidentimizning **2020-yil 10-avgustdagi “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmoniga** muvofiq, shaxsga e`lon qilingan ayblov, jinoyat ishi sudning qaysi instantsiyasida ko`rilayotganligidan qat`iy nazar, yarashuv instituti doirasiga tushadigan O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining moddasi yoki qismiga o`zgartirilgan hollarda yarashuv institutini qo`llash tartibini joriy qilish bo`yicha qonunchilikka o`zgartirish kiritish mutloq qo`shilamiz.

6. O`zbekiston Respublikasi JKning 64-moddasiga ko`ra, jinoiy javobgarlikka tortish muddatlari jinoyat sodir etilgan kundan boshlanadi. Ammo JK 67-moddasi asosida tibbiy yo`sindagi majburlov choralari qo`llanilgan shaxsga nisbatan javobgarlikka tortish muddatlari sud tomonidan tibbiy yo`sindagi majburlov chorasi qo`llanilgan kundan hisoblanadi. Bunday holat boshqa xuddi shunday jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan tibbiy yo`sindagi majburlov chorasi qo`llangan shaxsning ahvolini ma`lum darajada og`irlashtiradi. Chunki javobgarlikka tortish muddatlarini 67-moddada belgilangan tartibda hisoblash, avvalo, JK 64-moddasi talablariga xilof bo`lsa, ikkinchi tomondan, jinoiy javobgarlikka tortish muddatlarini sun`iy ravishda uzaytirib yuboradi. Ushbu muammoni bartaraf qilish maqsadida, **Jinoyat kodeksi 67-moddasi 2-qismidagi** *“Bunday holda javobgarlikka tortish muddatlari sud tomonidan tibbiy yo`sindagi majburlov chorasi qo`llanilgan kundan hisoblanadi”* degan qismi olib tashlansa maqsadga muvofiq bo`lardi.

7. Jinoiy jazolarni liberallashtirish jarayoni bilan bog`liq islohotlarni yanada chuqurlashtirishning hozirgi bosqichida insonparvarlilik prinsipining Jinoyat

kodeksidan yanada chuqurroq o`rin egallashiga ko`maklashishi nazarda tutilgan holda jinoiy javobgarlikdan ozod qilish bilan bog`liq Jinoyat kodeksining maxsus qismidagi qator normalar javobgarlikdan ozod etishga oid qator normalar bilan to`ldirilishi lozim.

Taqiqotimiz jarayoni qator MDHga a`zo davlatlarning jinoyat qonunchiligini o`rganishimiz natijasida **JKning 135, 137, 245-moddalari** javobgarlikdan ozod etishni nazarda tutuvchi quyidagi mazmundagi yangi qismlar bilan to`ldirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

“135-modda. Odam savdosi”. To`rtinchi qism. *“Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismining “b” bandida nazarda tutilgan qilmishlarni birinchi marotaba sodir etgan shaxs, agar u jabrlanuvchini ixtiyoriy ravishda ozod etgan va sodir qilgan jinoyatni ochishga yordam bergan bo`lsa, basharti bu shaxsning harakatlarida jinoyatning boshqa tarkibi bo`lmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi”*.

“137-modda. Odam o`g`irlash”. To`rtinchi qism. *“Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan qilmishni birinchi marotaba sodir qilgan shaxs, agar u o`g`irlangan odamni ixtiyoriy ravishda ozod qilsa, jinoyatni ochishga yordam bergan bo`lsa, jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplagan bo`lsa va uning harakatlarida jinoyatning boshqa tarkibi bo`lmasa, javobgarlikdan ozod etiladi”*.

“245-modda. Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish. Uchinchi qism. *“Garov sifatida tutqinlikka olingan shaxsni ixtiyoriy ravishda yoki hokimiyatning talabi bilan ozod etgan shaxs, agar uning harakatlarida jinoyatning boshqa tarkibi bo`lmasa, javobgarlikdan ozod etiladi”*.

8. Shunga o`xshash javobgarlikdan ozod qilishni nazarda tutuvchi normalar JKning 287-modda (**xizmat joyini o`zboshimchalik bilan tashlab ketish**), 288-moddas (**dezertirlik**), 290-modda (**o`zining biron a`zosini mayib qilish yo`li bilan yoki boshqa uslda harbiy xizmatdan bo`yin tovlash**) lariga ham kiritilsa maqsadga muvofiq bo`lardi.

9. **Shaxs giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o`tkazish maqsadini ko`zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish,**

saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek ularni qonunga xilof ravishda o`tkazish (273-m, 1-q), giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o`tkazish maqsadini ko`zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar (276-m, 1-q) bilan bog`liq jinoyat sodir etgani haqida aybini bo`yniga olib o`z ixtiyori bilan topshirganligi ushbu shaxsning tuzalish yo`liga kirganligidan dalolat berib, ijtimoiy xavfli emasligini bildiradi.

Shuningdek, mazkur normalarda shaxsning o`zi ixtiyoriy ravishda jinoyat haqida tegishli organga xabar berib arz etishi belgilanganligi, uni jazodan emas, balki javobgarlikdan ozod qilishni nazarda tutadi. Shu sababli, Jinoyat kodeksining 273, 276-moddalaridagi **“jazodan ozod qilinadi”** degan so`zlar **“javobgarlikdan ozod qilinadi”** degan so`zlarga almashtirilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Rahbariy adabiyotlar

1.1. SH. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. // O`zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag`ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo`shma majlisidagi ma`ruzasi. 2016-il 14-dekabr. // uza.uz.

1.2. SH. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. // O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagi ma`ruzasi. 2016-yil 7-dekabr. // uza.uz.

1.3. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi — inson manfaatlarini ta'minlashning muhim omilidir. 2017-yil 7-yanvardagi “Prokuratura organlari xodimlari kuni” oldidan bir guruh soha xodimlari bilan uchrashuvdagi nutq. // <http://xs.uz/index.php/uzhzhatar/itemlist/date/2017/1/9>.

1.4. SH.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma`ruzasi // 2017-yil 13-yanvar. uza.uz.

1.5. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent “O`zbekiston”, 2010, 20-b.

1.6. I.A.Karimov. Adolat qonun ustuvorligida. Toshkent – “O`zbekiston” 2002 y. B 36.

1.7. I.A Karimov. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir.19-tom.T., «O`zbekiston», 2011-yil. 220 bet.

II. Qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar:

2.1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: O`zbekiston, 2020. -40 b.

2.2. O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2020 y., 03/20/603/0071-son.

2.3. O`zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2019. -672 b.

2.4. O`zbekiston Respublikasining “Sudlar to`g`risida”gi qonuni. O`zbekistonning yangi qonunlari. K. 25. – Toshkent: Adolat, 2001. – B. 54.

2.5. O`zbekiston Respublikasining “Prokuratura to`g`risida”gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2020-y., 03/20/603/0071-son.

2.6. O`zbekiston Respublikasining 14.05.2014-yilda qabul qilingan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to`g`risida”gi Qonuni // www.lex.uz.

2.7. O`zbekiston Respublikasining 10.03.2020-yildagi “Sud ishlarini yuritish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O`zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida”gi O`RQ-607-sonli Qonuni.

2.8. O`zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish KONTSEPTSIYASI // (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.10.2018-y., 06/18/5547/1975-son) <https://lex.uz/docs/3735818> . (Murojaat etilgan sana 15.04.2020-yil).

2.9. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish choratadbirlari to`g`risida”gi PF-4850-sonli Farmoni // O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2016 y., 43-son, 497-modda.

2.10. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-2833-son Qarori // O`zbekiston

Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.12.2019-y., 06/19/5894/4161-son.

2.11. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2020-yil 10-avgustdagi “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PF-6041-son Farmoni // www.lex.uz.

2.12. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risidagi Farmoni// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.12.2019-y., 06/19/5892/4134-son.

2.13. Oliy sud Plenumining 2001-yil 2-noyabrdagi “Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O`zbekiston Respublikasi Jinoyat, Jinoyat-prostessual kodekslari hamda Ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksiga o`zgartishlar va qo`shimchalar kiritish haqida” gi O`zbekiston Respublikasining qonunini sud amaliyotida qo`llash haqida”gi 25 - sonli qarori // www.lex.uz.

2.14. Oliy sud Plenumining 2002-yil 25-oktyabrdagi “Yarashuv to`g`risidagi ishlar bo`yicha sud amaliyoti haqida”gi 27- sonli qarori // www.lex.uz .

2.15. Oliy sud Plenumining 2008-yil 12-noyabrdagi “Ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo`sindagi majburlov choralarini qo`llash bo`yicha sud amaliyoti to`g`risida” gi 23-sonli qarori // www.lex.uz .

2.16. Oliy sud Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi “Voyaga etmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo`yicha sud amaliyoti to`g`risida” gi 21-sonli qarori // www.lex.uz .

2.17. O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 22-dekabrdagi 16-sonli “Sudlar tomonidan amnistiya aktlarini qo`llashning ayrim masalalari to`g`risida”gi qarori // www.lex.uz .

2.18. O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil 14-noyabrdagi «Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni qo`llashning ayrim masalalari to`g`risida»gi 15-sonli qarori // www.lex.uz .

2.19. Криминальный кодекс Украины 2001 г. (ред. от 20.12.2019 г.) // Законодательство Украины: сайт Верховной Рады Украины. – URL: <https://zakon.rada.gov.ua/laws/show/2341-14>.

2.20. Уголовный кодекс Азербайджанской Республики 2019 г. (в ред. от 09.07.2019 г.) / https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30420353#pos=968;-54.

2.21. Уголовный кодекс Литовской Республики 2000 г. // URL: <https://studylib.ru/doc/3734814/ugolovnyj-kodeks-litovskoj-respubliki>.

2.22. Уголовный кодекс Республики Беларусь 1999 г. (ред. от 11.11.2019 г.) // Национальный правовой Интернет-портал Республики Беларусь. – URL: <http://pravo.by/document/?guid=3871&p0=hk9900275>.

2.23. Уголовный кодекс Республики Грузия от 1999 г. (ред. от 29.05.2019 г.) // URL: <https://www.legislationline.org/ru/documents/section/criminal-codes>.

2.24. Уголовный кодекс Республики Казахстан 2014 г. (ред. от 27.12.2019 г.) // URL: URL: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31575252#pos=1175;54.

2.25. Уголовный кодекс Федеративной Республики Германия / науч. Ред. Д.А. Шестакова. СПб., 2003.

2.26. Уголовный кодекс Франции / науч. ред. Л.В. Головкин, Н.Е. Крыловой. СПб., 2003.

2.27. Модельный Уголовный кодекс для государств-участников СНГ (принят постановлением Межпарламентской Ассамблеи государств-участников СНГ от 17.02.1996 г. (ред. от 27 ноября 2015 г.) // ИПС «ГАРАНТ». – URL: <http://base.garant.ru/2566472/5403cdaba4adcc1fa9fb4eed9b040c90>.

2.28. Уголовный кодекс Российской Федерации 1996 г. (ред. от 27.12.2019 г.) // СПС «Консультант Плюс». – URL: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/.

2.29. BMT Bosh Assambleyasining 1968-yil 2391-sonli Rezolutsiyasiga muvofiq qabul qilingan “Harbiy jinoyatlar va insoniyatga qarshi jinoyatlarga nisbatan muddati oʻtganlik qoidasi qoʻllanilmasligi toʻgʻriisdagi” konvensiya.

III. Monografiya, darslik va oʻquv qoʻllanmalar:

3.1. M.H.Rustamboyev. Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi (Umumiy qism). Oliy oʻquv yurtlari uchun darslik. – Toshkent.: «ILM ZIYO», 2011. -477 bet.

3.2. M. Usmonaliyev. Jinoyat huquqi (Umumiy qism). – T.: «Yangi asr avlodi», 2010, - 662 bet.

3.3. Rustamboyev M.X. Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga sharhlar (Umumiy qism). – Toshkent: “Adolat”, 2016. -608 bet.

3.4. Oʻzbekiston SSR Jinoyat kodeksiga sharhlar: Abdumajidov Gʻ.A., Axmedov B. A va boshqalar. – Toshkent. Oʻzbekiston 1988. -580 b.

3.5. Poʻlatov B.X. Prokurorning sudda davlat ayblovini quvvatlash faoliyati. Oʻquv qoʻllanma. Toshkent, “Qonun himoyasida” jurnali 2005 17-29-betlar.

3.6. Abdurasulova Q.R. Kriminalogiya. – Toshkent. TDYI nashriyoti, 2008. - 305 bet.

3.7. Jinoyat huquqi. (Umumiy qism) Darslik. Mas’ul muharrir: yu.f.f.d (PhD) X.Ochilov – T.: Adolat nashriyoti, 2020. 264 b.

3.8. Niyozova S. Ishtirokchilik tushunchasi, turlari, shakllari javobgarlik masalasi. Oʻquv qoʻllanma. T.: TDYuI, 2003. – 48 b.

3.9. Курс уголовного права. Общая часть. Том 2. Учение о наказании. Учебник для вузов. Под пред. Н.Ф. Кузнецовой и И.М. Тяжковой. – М: ИКД Зерцало- М, 2002. С.464.

3.10. Ветров Н.И. Уголовное право. Общая часть. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, Закон и право, 1999 г. С. 331.

3.11. Уголовное право Российской Федерации. Общая часть/Под ред, Б.В.Здравомыслова. –М.: 2007.

3.12. А.В. Наумов Российское уголовное право. Общая часть. Курс лекций. – М.: Бек, 2006.

3.13. Российское уголовное право. Общая часть / под ред. В.П. Коняхина, М.Л. Прохоровой. М., 2014.

3.14. Курс уголовного права. Том 2. Общая часть. Учение о наказании. Коллектив авторов. — М.: Зерцало. 2002. С. 155.

IV. Dissertatsiya, avtoreferat va ilmiy maqolalar:

4.1. Niyozova Sh.G. Muddatlarning o'tganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilishning muammolari. – Yuridik fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: TDYI, 2010. 26 b.

4.2. Berdiyev SH. Jinoyat qonunlarining liberallashtirilishi jarayonida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni takomillashtirish muammolari. – Yuridik fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: TDYI, 2011. -52 b.

4.3. Кузьмина О.Н. Институт освобождения от уголовной ответственности: генезис формирования, современное состояние, перспективы оптимизации. – Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. 2020. С. 205.

4.4. Наумов В.В. Уголовно-правовая характеристика освобождения от уголовной ответственности по нормам Особенной части УК РФ: дис. ... канд. юрид. наук. М., 2009.

4.5. Сверчков В.В. Концептуальные основы решения проблем освобождения от уголовной ответственности: автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. Н. Новгород, 2008.

4.6. Благов Е.В. Освобождение от уголовной ответственности в связи с деятельным раскаянием // Актуальные проблемы российского права. 2017. № 7.

4.7. Власенко В.В. Освобождение от уголовной ответственности с назначением судебного штрафа (ст. 762 УК РФ) // Уголовное право. 2017. № 1.

4.8. Дудченко М. Ю. Освобождение от уголовной ответственности с назначением судебного штрафа: возможные проблемы на практике // Уголовный процесс. 2016. № 10.

V. Internet resurslari:

- 5.1. www.lex.uz
- 5.2. www.norma.uz
- 5.3. www.prezident.uz
- 5.4. [www.huquq va burch](http://www.huquq.va.burch)
- 5.5. www.stat.uz
- 5.6. www.ziyonet.uz
- 5.7. www.disnatlib.uz
- 5.8. www.e-library
- 5.9. www.disstertant.uz
- 5.10. www.cebyrlrninka.ru
- 5.11. www.duma.consultant.ru
- 5.12. www.proquest.com
- 5.13. www.wkmigas.com
- 5.14. www.fparf.ru